






O‘ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2022 №4(7)



O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan "O'zbekiston sud-ekspertizasi" ilmiy jurnali yuridik va siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Xalilov A.U. Sud ekspertizasi rivojlanishiga oid nazariy konsepsiyalar tahlili..... | 2 |
| Давронов А.Р. Одорологическая экспертиза как доказательство в уголовном процессе..... | 12 |
| Махкамов М.З., Ромаданова Т.А. Идентификационные исследования маркировочных обозначений транспортных средств..... | 20 |
| Nazarov A.A., Umidillayev Q.H. Avtomototransport vositalarini ko'zdan kechirish va natijalarni rasmiylashtirish..... | 28 |
| Хусанов А. Д., Солиева Н.А. Современное состояние и перспективы развития инновационных технологий в судебно-экспертной деятельности | 32 |
| Kadirov E.O. O'zbekistonda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilm-fan va amaliyot uyg'unligi | 38 |
| G'ulomov A. Sh. Yuridik fanlarni o'qitishda produktiv ta'lim texnologiyalarining ahamiyati | 43 |
| Jo'rayeva Sh.N. Yevropa Ittifoqi ekologik siyosatida mintaqaviy muammolar..... | 47 |
| Zamonov Z. Sharq mutafakkirlarining qarashlari – fuqarolik jamiyati qurishning konseptual g'oyalari (sharq mutafakkirlari qarashlari misolida) | 52 |
| Qolqanov N. Siyosiy yetakchi imijining takomillashuvida imijmeykerlar xizmatidan foydalanishning ahamiyati | 58 |
| Xasanova S. O'. Yig'ilish qarorlarining davlat organlarida huquqiy ahamiyati | 62 |
| Bekmurodov A.B. Korrupsiya muammosining mamlakatimizda va xorijda o'rganilishi..... | 67 |
| Boydedayev S. Jamiyatda korrupsiya jinoyatchiligini pasaytirish, nazorat qilish va oldini olish choralari..... | 76 |
| Шерматова А. А. Государственная служба в контексте административной реформы: правовые основы и перспективы развития узбекского законодательства | 87 |

Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi**

Bosh muharrir:

Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Uchkun UZAKOV

Mas'ul kotib:

Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:

Akbar TASHKULOV

Aktam MUHAMMADIEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Tolibjon ORZIYEV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

Mas'ul muharrir:

Husan NISHONOV

Dizayner:

Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:

Malohat TOSHOVA

"O'zbekiston sud ekspertizasi" huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda
1185-sonli guvoynoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg'ona yo'li ko'chasi 46-uy.

Telefonlar:

(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: www.sudex.uz

e-mail: info@sudex.uz

facebook.com/sudex.uz

telegram.me/sudex.uz

Jurnal 14.02.2023-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

SUD EKSPERTIZASI RIVOJLANISHIGA OID NAZARIY KONSEPSIYALAR TAHLILI

XALILOV

Akram Utamurodovich,

*X.Sulaymonova nomidagi Respublika
sud ekspertiza markazi direktori*

ANNOTATSIYA

Maqolada sud ekspertizasining rivojlanishiga oid ilmiy-nazariy konsepsiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda O'zbekistonda sud ekspertizasining samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekspert, sud ekspertizasi, sud ekspertizasining umumiy nazariyasi, sud-ekspertlik faoliyati.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются научно-теоретические концепции, связанные с развитием судебной экспертизы. Также был освещен характер проводимых сегодня в Узбекистане реформ, направленных на повышение эффективности судебно-экспертной деятельности.

Ключевые слова: эксперт, судебная экспертиза, общая теория судебной экспертизы, судебно-экспертная деятельность.

ANNOTATION

The article analyzes scientific and theoretical concepts related to the development of forensic science. The nature of the reforms being carried out today in Uzbekistan aimed at improving the efficiency of forensic activities was also highlighted.

Key words: expert, forensic examination, general theory of forensic examination, forensic activities.

Dunyoning hozirgi zamonaviy yuqori texnologik taraqqiyot bosqichida fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi murakkab, ziddiyatli muammolar yechimini sud ekspertizasisiz tasavvur qilish qiyin.

Tabiiy, texnik, gumanitar va boshqa fanlar yutuqlaridan foydalanish texnika, fan, san'at va hunarmandchilikni chuqur bilishni talab qiladigan masalalarni mohirona hal qilish imkonini beradi. Sud-ekspertiza faoliyatini normativ, ilmiy-texnik, uslubiy, tashkiliy jihatdan ta'minlashning hozirgi darajasida (ayni shu faoliyat sud ekspertizasini ilmiy-amaliy tatbiq etish bilan bog'liq) sud ishlarini muvaffaqiyatli hal etishda uning roli tobora ortib borayotganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin.

Shu bilan birga, sud-ekspertiza faoliyatidek murakkab hodisaning mohiyatini, hozirgi holatini tushunish, rivojlanish istiqbollari va tendensiyalarini bashorat qilish uchun uning tarixini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Tarixdan ma'lumki, qadim zamonlarda ham sud ishlarini ko'rib chiqishda maxsus bilimlardan foydalanish zaruratga aylangan. Qalbakilashtirish bilan bog'liq holatlarni tekshirganda, qadimgi Rim sudi qo'lda yozilgan matnlarni o'rganish uchun mutaxassislar jamoasini jalb qilgan. Shuningdek, Rim imperiyasida sud-tibbiyotga oid bilimlardan sud jarayonida foydalanish rivojlangan: tirik odamlar va jasadlarni tekshirishda sudlar shifokorlar tomonidan ishlab chiqilgan sud-tibbiy ekspertiza va qullarning jismoniy holatini aniqlash uchun maxsus qoidalarni o'z ichiga olgan qonunchilik jadvallaridan foydalanganlar.

Tadqiqotchi S.F.Bichkova Sima Szyanning "Tarixiy esdaliklar"i imperator Sin tomonidan chiqarilgan jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha qo'llanmani o'z ichiga olganligi haqidagi ma'lumotlarni keltiradi¹. Sin Shi Xuandi unda sud-ekspertiza bilimlariga katta o'rin ajratgan.

Maxsus bilimlardan foydalanishga oid dashtabki tarixiy hujjatlarda bunday bilimga ega bo'lgan kishilar bilimdon (bilimli – biror narsada katta bilimga ega, biror narsadan yaxshi

¹ Бычкова Л.Ф. Теория судебной экспертизы. – Бишкек: Кыргызско-Российский Славянский университет им. Б.Н. Ельцина (КРСУ), 2015. – С. 118.

xabardor bo'lgan) deb atalganligi qayd etilgan. Bundan tashqari, Germaniyaning 1532-yildagi "Karolina" umumimperiya qonunlari to'plamiga ko'ra, professional advokatlar, farmatsevtlar va jarrohlarning bilimdon odamlar hisoblangan. Uning 73-moddasida shunday ta'kidlangan edi: "Jinoyat ishlari bo'yicha sud tarkibida bilimdon shaxslarning yo'qligi sababli ko'rsatmalar jinoyat ishlari bo'yicha suddan tashqari komissarlar tomonidan ham eshitilgan..."². Qonunning 159-moddasida insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda agar jinoyat sodir etgan shaxs bolaligidan aqli nora-so bo'lsa, uning harakatlari uchun jazo tayinlash mumkin yoki mumkin emasligi maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar kengashiga havola qilingan³.

Angliyada, Germaniyadan farqli o'laroq, bilimdon odamlarning alohida shakli yo'q edi. Ekspert sudga bilimdon guvoh sifatida chaqirilgan.

Huquqiy deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan ma'lumot, shu jumladan dalillarni olish uchun obyektlarni to'plash, o'rganish zarurati dunyoning ko'plab mamlakatlarida fan va texnika, san'at va hunarmandchilikning turli sohalaridagi ilmiy ishlanmalardan sud ishlarini yuritishda foydalanish zaruratini keltirib chiqardi, odil sudlov muammolarini hal etish sifatini oshirish imkonini berdi.

Ko'p qayd etiladigan va sud jarayonlarida boshqalariga nisbatan eng ko'p qo'llaniladigan birinchi ilmiy tadqiqot – daktiloskopik (barmoq izlari) ekspertizasi – E. Lokaranning ma'lumotiga ko'ra, biolog olimlar M. Malpigi va Y.Purkinyega tegishli⁴. M.Malpigi 1686-yilda birinchi bo'lib qo'llarning kaft yuzasidagi papillyar chiziqlarni va ularda joylashgan yoriqlarni ilmiy tomondan tadqiq qiladi va ta'riflab berdi. Y.Purkinye 1823-yilda "Ko'rish organi va teri tuzilishini fiziologik o'rganish to'g'risida"gi dissertatsiyasini nashr ettiradi va unda papillyarlar chiziqlarini tahlil qilib, tadqiqotida ularni to'qqiz guruhga ajratgan⁵.

² Каролина (лат. Constitutio Criminalis Carolina или, сокращённо, С.С.С. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/958463>

³ Хрестоматия по всеобщей истории государства и право / под ред. К.И. Батыра и Е.В. Поликарповой. Т.1. – М., 1996. – С. 317-318.

⁴ Локар Э. Руководство по криминалистике. – М.: Юридическое изд-во НКЮ, 1941. – С. 189.

⁵ Аминев Фарит Гизарович. Судбно-экспертная деятельность в российской федерации: современные проблемы и пути их решения: диссертация ... доктора Юридических наук: 12.00.12. 2017. – С. 182.

Birmuncha vaqt o'tgach, Tokioda ishlagan shotlandiyalik shifokor G.Foulds va Bengaliyada (Hindiston) xizmat qilgan ingliz mustamlakachi amaldori V.Xershel bir-biridan mustaqil ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan va inson barmoqlaridagi papillyar chiziqlarning o'ziga xosligi va o'zgarasligini isbotlagan. Inson barmoqlaridagi alohidalikka asoslanib shaxsni aniqlash imkoni paydo bo'lgan. Mashhur antropolog va fiziolog F.Galton 1892-yilda "Barmoq izlari" kitobini nashr ettiradi va unda papillyar barmoq izlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy qoidalar belgilab berilgan⁶.

XX asrgacha xorij davlatlarida sud trasologik ekspertiza daktiloskopik yoki qo'lyozma ekspertizasi kabi keng tarqalmagan edi. Trasologiyaning ilmiy asoslari rossiyalik olimlar tomonidan yaratilgan. Shuning uchun ularning ishlari chet ellik kriminologlarning trasologiya ilmining ayrim tor sohalari rivojlantirishga hissa qo'shgan deyish mumkin.

Polshalik kriminolog I.Kasprjakning quloq chig'anog'i izlarini o'rganish metodologiyasini ishlab chiqishga qo'shgan ilmiy hissasi e'tiborga sazovor. Ushbu soha otoskopiya deb ataladi. Shuningdek, I.Kasprjak tomonidan maxsus ishlab chiqilgan qurilma – quloq chig'anog'ining eksperimental izlarini olish uchun mo'ljallangan otometr ham qiziqish uyg'otadi. Izlarni olishda bosim kuchi tartibga solinadi. Iz shakllanishining turli mexanizmiga qarab, izlarda ko'rsatilgan belgilar ham ajralib turadi⁷.

O'qotar qurollarning jinoyat sodir etishda keng qo'llanilishi bilan ballistik tadqiqotlar o'tkazish zarurati paydo bo'lgan. Shu tariqa B. Robbins 1742-yilda ballistik mayatnikni ishlab chiqqan va u o'qning tezligini 1700 m/s gacha⁸ qayd etish imkonini bergan va u ba'zi takomillashtirishlar bilan hali ham sud ballistik ekspertizasida qo'llaniladi.

Sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish amaliyotining boshlanishi Boloniya universiteti professori K.Baldi nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1622-yilda "Yozuvchining odatlari va fazilatlarini maktubidan tanib olish usuli bo'yicha mulohazalar" kitobini nashr ettirgan⁹. 1637-yilda J.Rovenoning "Yozuvni o'rganishga oid risola" asari nashr etildi. Keyingi tadqiqotlar, asosan, grafologiya (yunoncha grapho – yozaman, logos – ta'limot) sohasida XVIII–XIX asrlarda olib borilgan bo'lib, ularga I.X.Groman, E. Xokar, J.I.Mishon, J.K.Jamen, V.Langenbrux, V.Preyer va boshqalar rahbarlik qilgan. Qo'lyozma ekspertizasining ilmiy ishlab chiqilgan qoidalari birinchi bo'lib amerikalik mutaxassis A.Osbornning "Hujjatlarni o'rganish" asarida bayon qilingan.

Feodallarga berilgan hisobotlar, o'rta asrlarda qurilish obyektlarida ishlatilgan materiallarni hisobga olish kitoblarini o'rganish sud-buxgalteriya ekspertizasining birinchi ko'rinishi bo'lib xizmat qilgan. Ikki tomonlama buxgalteriya tizimining asoschisi matematik L.Pacholi (1445-1515) – "Hisob va yozuvlar traktati" muallifi hisoblanadi.



⁶ Гальтон Ф. Отпечатки пальцев. – Лондон, 1884. – С. 67.

⁷ Аминев Фарит Гизарович. Судебно-экспертная деятельность в российской федерации: современные проблемы и пути их решения: диссертация ... доктора Юридических наук: 12.00.12. 2017. – С.117.

⁸ O'sha manba.

⁹ Эсенбаева А.И., Бычкова Л.Ф. Основы судебно-почерковедческой экспертизы. Часть 1. Учебное пособие. – Бишкек, 2017. – С. 36.

1654-yildan boshlab, Rossiyada buxgalteriya ishlari tartibi tashkil etilgandan so‘ng, mamlakatda va chet elda sud-buxgalteriya tadqiqotlari bir xil darajada rivojlangan.

Sud-portret ekspertizasi-ning ilmiy asoslari birinchi marta A.Bertilon tizimiga muvofiq ro‘yxatga olish kartalarini to‘ldirishda shaxsning tashqi qiyofasini tizimli tavsiflash shaklida paydo bo‘lgan.

Parij politsiyasi xodimi – A.Bertilon sud ekspertizasi va kriminalistikada bir qancha yo‘nalishlarning asoschisi hisoblanadi: shaxsning tashqi qiyofasini tavsiflash tizimi – “og‘zaki portret” usuli, signalli suratga olish usuli, kriminalistik ro‘yxatdan o‘tkazishning antropometrik tizimi (“bertilonaj”) va boshqalar¹⁰.

A.Bertilonning izdoshi, Shveysariyaning Lozanna universiteti professori R.A.Reyss 1904-yilda “Alfons Bertilon usuli bo‘yicha odamning og‘zaki portreti, tavsifi va identifikatsiyasi” qo‘llanmasida signaletik fotosuratlar yordamida shaxsni aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni bayon qilgan.

Tadqiqotchi G. Shneykert 1925-yilda “Shaxsni aniqlash uchun belgilar haqidagi ta‘limot” nomli kitobini nashr ettiradi. Mazkur kitobda tashqi ko‘rinish haqidagi ta‘limotni amalda qo‘llash usullari batafsil ko‘rib chiqilgan.

Chet ellik ekspertlar tomonidan sud-portret ekspertizasini modernizatsiya qilishga urinishlardan biri rigalik kriminolog R.E.Elbur tomonidan ishlab chiqilgan “grafik identifikatsion algoritm” ishlanmasidir. Usulning amaliy sinovlari uning noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatgan¹¹. Hozirgi vaqtda sud-portret ekspertizasi kompyuter dasturlari yordamida boshning egilishi va burilishini, shuningdek, videotasvirlarni hisobga olgan holda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Dunyo mamlakatlarida o‘tkaziladigan sud-tibbiyot ekspertizalarining soni juda ko‘p va

¹⁰ Отцов современной криминалистики. <https://pravo.ru/interpreto/practice/view/104709/>

¹¹ Графические алгоритмы и возможности их использования в процессе идентификационных криминалистических экспертиз / под ред. В. А. Соколова. Рига, 1965. – С. 45-48.



ular bir nechta tadqiqotlarda aks etishi mumkin. Shu bois yaqin kelajakda sud jarayonlarida talabga ega bo‘ladigan sud ekspertizasi turlari va ko‘rinishlariga e‘tibor qaratamiz.

Tez rivojlanayotgan sud ekspertizalaridan biri genotiposkopik ekspertiza (DNK tahlili) bo‘lib, uning asosiy vazifasi ma‘lum bir shaxsdan biologik kelib chiqish izlarini aniqlashdir. Chet elda ushbu sud ekspertizasi rivojlanishining quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Tadqiqotchilar J. Uotson va F. Krik 1953-yilda DNK molekulasi qo‘sh spiralli tuzilishini kashf etib, uning uch o‘lchamli modelini ko‘rsatdi va yangi paydo bo‘lgan molekulyar biologiya fani jadal rivojlandi;

Lester universiteti (Angliya) laboratoriyasi xodimi A.Jeffris kriminalist ekspertlar tomonidan DNK barmoq izi yoki gen daktiloskopiyasi deb ataladigan shaxsni genetik identifikatsiyalash usulini ishlab chiqdi (“DNK tahlili” atamasi fanda qo‘llaniladi, sud ekspertizasida – “genotiposkopiya tekshiruvi” deyiladi);¹²

1986-yilda “Setus” korporatsiyasi xodimi K.Myullis (AQSH) DNKning juda kam miqdorini tekshirish imkonini beruvchi polimeraza zanjirli reaksiya usulini taklif qildi;

1987-yil – Britaniya sudi birinchi marta A.Jeffris tomonidan o‘tkazilgan genotiposkopik tekshiruv natijalarini dalil sifatida tan oldi;

1988-yil – Kolorado shtatida (AQSH) barcha mahkumlarni DNK hisobiga qo‘yish to‘g‘risida qonun qabul qilingan.

¹² Jeffreys A. J., Wilson V. & Thein S. L. Individual-specific ‘fingerprints’ of human DNA // Nature. 1985; 316, 76–79; DOI: 10.1038/316076a0.

Rossiya Federatsiyasida 1989 yildan beri sud-genotiposkopiya tekshiruvlari o'tkazilmoqda.

Markaziy Osiyoda 2000-yilda birinchilardan bo'lib odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi O'zbekistonda, ya'ni X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida ilk bora o'tkazila boshlagan. Hozirgi kunda ham mamlakatimizda yagona ushbu turdagi tadqiqotlarni o'tkazadigan laboratoriya hisoblanadi. Mazkur laboratoriyada sud genetik DNK ekspertizasi tadqiqotlarida noma'lum shaxsni identifikatsiya qilish, turli jinoyat ishlari bo'yicha taqdim etilgan ashyoviy dalildagi biomaterialning aynan kimga tegishli ekanligini aniqlash, biologik ota-onalik

1896-yilda Gildesgeym shahrida bo'linma tuzgan va unda odamlar bilan birga 12 ta it ham xizmat qilgan¹³. Shundan so'ng 100 yildan kamroq vaqt ichida olifaktologik tadqiqotlar shu qadar e'tirofga sazovor bo'lganki, 1994-yilga kelib 12 ta Yevropa davlatida (Rossiya, Belarus, Litva, Ukraina, Belgiya, Vengriya, Germaniya, Gollandiya, Daniya, Polsha, Sloveniya, Chexiya) sud-olfaktor ekspertizasi bo'yicha sud-tibbiy bo'linmalar faoliyat ko'rsata boshlagan.

Dunyoning barcha mamlakatlarida kompyuter axboroti sohasida sodir etilayotgan jinoyatlar soni ortib borayotganligi munosabati bilan ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish chorra-tadbirlarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida 1981-yilda huquqni muhofaza qilish faoliyatining texnik tomonini muvofiqlashtiruvchi Milliy Kompyuter xavfsizligi markazi (NCSC) tashkil etilgan¹⁴. Kompyuter texnikasi ekspertizalari har bir mamlakatda o'ziga xos usullar bo'yicha amalga oshiriladi. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida sud ekspertlari kompyuter xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar D.Aykov, K.Seyger, U.Fonstorxlar tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmada ko'rsatilgan masalalar asosida hal qilishadi.

Xorijda sud-ekspertiza faoliyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, sud ekspertizalarining deyarli barcha turlari sud ekspertlari tomonidan yuqori ilmiy, uslubiy va amaliy saviyada amalga oshirilmoqda. Qolaversa, transmilliy xususiyat kasb etayotgan, tobora takomillashib borayotgan uyushgan jinoyatchilik darajasining ortib borishi munosabati bilan ushbu global illatga qarshi kurashish tizimining barcha elementlarini birlashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash tizimining muhim qismlaridan biri, turli mamlakatlar sud-ekspertiza tashkilotlarining bunday birlashuvi so'nggi yillarda yanada faollashmoqda. Dunyoda va har bir alohida mamlakatda sud-ekspertiza faoliyati darajasini

fakti, Y-xromosoma tadqiqotlari orqali ota avlod bo'yicha o'zaro biologik qarindoshlikni aniqlash va biomaterialning jins mansubligini aniqlash kabi vazifalar hal etilmoqda.

Shu bilan birgalikda X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan hozirda irsiy kasalliklarga moyillik, biologik yoshni aniqlash, etno genetik va etnik kelib chiqishini aniqlash, hayvonlarning DNKsi yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish, ashyoviy dalillardan biologik izlarni izlash bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Odamning hid izlarining sud-ekspertizasi voqea joyidan olingan narsalarda hid izlarining mavjudligi va kelib chiqishini aniqlashga, shuningdek, bir qator boshqa, torroq vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Ushbu turdagi tadqiqotlarni sud protsessida qo'llashning boshlanishi G.Gross tomonidan amalga oshirilgan. U

¹³ Гросс Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики / Гросс Г. - М. : Лекс Эст, 2002. – С. 1088.

¹⁴ Центр национальной компьютерной безопасности США. <https://ru.wikipedia.org/wiki/0>

oshirish maqsadidagi hamkorlik xalqaro ekspertlar faoliyatining barcha darajalarida (ham davlat, ham nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari va ekspertlar hamjamiyati, fan va texnologiyaning alohida vakillari o‘rtasida) faollashmoqda.

Xorijda sud ekspertizalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishini tarixiy tahlil qilish sud ekspertizalarining turlari va ko‘rinishlari uzoq tarixga ega bo‘lib, bir xil shakllanish yo‘lidan o‘tgan va rivojlanishning bir xil qonuniyatlariga bo‘ysungan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy, ma‘muriy sud ishlarida sud ekspertizasining yuqorida ko‘rib chiqilgan turlari va ko‘rinishlaridan tashqari boshqa turlari ham qo‘llaniladi, ularning soni fan va texnikaning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lishi bilan muttasil ortib bormoqda. Ayni paytda dunyoda va sud jarayonlari uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib rivojlanib borayotgan va ilg‘or sud ekspertizalarining ro‘yxatida zamonaviy yuqori texnologiyalar muhimligi sabab dolzarb bo‘lib borayotganlarini belgilab o‘tish mumkin: kompyuter-texnik, genotiposkopiya, videofonoskopiya, odorologik - hid izlari tekshiruvlari, psixofiziologik, moddalar, mahsulotlar, materiallarning yuqori texnologik sud ekspertizalari, ekologik, sud-iqtisodiy va boshqalar.

Tarixiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, barcha mamlakatlarda sud ekspertizasining yangi usullarini ishlab chiqish va ilgari ishlab chiqilgan usullarini takomillashtirish jarayoni davom etmoqda. Biroq bir narsani e‘tiborga olmaslik mumkin emas: bu rivojlanish muvofiqashtirilgan harakatlarning mukammal tizimi emas, balki har bir mamlakat sud ekspertizalarining o‘z ekspert amaliyoti uchun dolzarb muammolarni hal qilish yo‘lidagi turli xil urinishlaridir. Shu bois, sud ekspertizasining yanada rivojlanishi sud ekspertizasi tashkilotlari faoliyatida to‘plangan ilmiy bilimlarni ham mamlakat ichida, ham turli mamlakatlarning sud ekspertlari o‘rtasida, shuningdek, xalqaro sud ekspertizasi tashkilotlari doirasida yaqin hamkorlik va tajriba almashish yo‘li bilan mustahkamlash bo‘yicha ko‘plab ishlarni tashkil etishda ko‘rinadi.

Jahonda jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus

bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlarini takomillashtirish, ekspertlar va mutaxassislar imkoniyatlaridan foydalanishning taktik usullarini rivojlantirish, jinoyat protsessida shaxs bilan bog‘liq ekspertiza o‘tkazish jarayonlarida ularning huquq va erkinliklari kafolatlanishining ta‘sirchan yangi mexanizmlarini joriy etish zarurati bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo etmoqda.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi besh yilda O‘zbekistonda ham sud ekspertizasi tizimi jadallik bilan rivojlanmoqda. Respublikamizda inson huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, jinoyatlarni aniqlash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, jinoyat ishlarini yuritishda advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan masalalar bo‘yicha ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma‘lumot-maslahatlarini so‘rash va olish tartibini aniqlashtirish;¹⁵ protsessual qonunchilik normalari buzilib olingan ko‘rsatuvlar, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar hamda boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik; xalqaro standartlar asosida sud ekspertizasi faoliyatini takomillashtirish (“ISO/IEC 17025” standartini joriy etish); sud ekspertizasi o‘tkazishning muddati va sifatini



¹⁵ 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Prezident Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-y., 6-son, 70-modda.

nazorat qilish bo‘yicha idoralararo elektron tizim ishlab chiqish; sud ekspertizasining yangi turlarini joriy qilish¹⁶; ekspertiza o‘tkazish va taftish qilishning aniq mezon hamda tartib-taomillarini takomillashtirish; mutaxassisning protsessual maqomini aniqlashtirish, shuningdek, mutaxassis fikriga protsessual tus berish¹⁷ bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda

Respublikamizda inson huquqlari, qadr-qimmati va sha‘ni oliy qadriyat hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni e‘zozlash yo‘lida amalga oshirayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham inson manfaatlarining ustuvorligini so‘zsiz ta‘minlashga qaratilgandir.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda sud-huquq islohotlarini yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari izchil davom etmoqda. Jumladan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish sud-huquq sohasidagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilab berildi.

Ushbu yo‘nalishda sud idoralari huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa idoralar bilan o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlab, birgalikda tegishli chora-tadbirlarni ko‘rib bormoqda.

Sudlarga kelib tushayotgan arizalar, da‘vo arizalari va shikoyatlarni sinchkovlik bilan o‘rganish, nizolarni belgilangan muddatlarda va qonuniy hal etish, ishlarni ko‘rish sifatini oshirish, bu borada oshkorlik va ochiqlikni yanada kuchaytirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Yana bir muhim masala, respublikamizda sud ekspertizasi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solib turuvchi yetarli normativ-huquqiy hujjatlar bazasi yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Res-

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-sonli “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // www.lex.uz.

publikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi, “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi qonunlar hamda qonun osti hujjatlari shular jumlasidandir.

Ushbu qonunlarda sud ekspertizasi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq asosiy tartib-qoidalar, talablar, prinsiplar, ushbu munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

Shu bilan birga sudlarda odil sudlovni amalga oshirish, ishlarni ko‘rib chiqish, sud ekspertizasini tayinlash borasida muhim o‘zgarishlar sodir etilayotgan ekan, milliy qonunchilikning mazkur sohaga oid qismini ham takomillashtirish, ularga tegishli ravishda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritib borish taqozo qilinadi.

Ish bo‘yicha taqdim etilgan va talab qilib olingan dalillarga to‘g‘ri baho berish va ularni har taraflama, obyektiv tekshirish borasida fan, san‘at, texnika yoki hunar sohasida maxsus bilim talab qilinadigan masalalarga tegishli baho berishda ekspertiza o‘tkazish va uning xulosalaridan dalil tariqasida foydalanish sud qarorlarining adolatliligini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish va nizolarni qonuniy hal etishda sud ekspertizasi imkoniyatlaridan keng foydalanish muhimdir. Chunki sud ekspertizasi maxsus bilimlarga asoslangan, ish bo‘yicha haqiqiy holatni aniqlashga qaratilgan asosiy protsessual vosita, inkor etib bo‘lmaydigan tilsiz dalildir.

Hozirgi sharoitda ushbu faoliyatning shakli va usullari muntazam ravishda takomillashib borishini fan va texnikaning yangi yutuqlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki nizolarni hal etishda qator holatlar yuzasidan maxsus bilim, ya‘ni fan, texnika, san‘at yoki kasbni qo‘llagan holda tadqiqot o‘tkazish va shu asosda tegishli ma‘lumotlarni olishga zarurat paydo bo‘ladi. Bunday tadqiqotlar maxsus jihozlangan laboratoriya va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tegishli bilimga ega mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladi.

Shu bois, ekspertizaning nazariy asoslarini bilish, nafaqat ekspertiza doirasida ilmiy izlanishlar o‘tkazish, ekspertiza muassasalarining amaliy faoliyati, hatto sudlar uchun ham alohida ahami-

yatga ega. Boshqa yo‘nalishlar kabi, sud ekspertizasi ham rivojlanayotgan sohalar toifasiga kiradi, yangi ilmiy ma‘lumotlar va ularning natijalari amaliy faoliyatni takomillashtirishga, sud ekspertizasi, uning ayrim turlariga oid nazariy qarashlarni boyitishga olib keladi.

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi (Markaz) uzoq yillardan beri mamlakatda sud ekspertizasi sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga fuqarolik, xo‘jalik, ma‘muriy va jinoiy ishlarni yuritishda zamonaviy ilm-fan imkoniyatlaridan foydalangan holda nazariy va amaliy yordam ko‘rsatib kelmoqda.

Xususan, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida keyingi 3 yilda 10 ta (Sud lingvistika, Sud kompyuter-texnik, Sud avtomobil yo‘llari, Sud elektrotexnika, Sud-psixologik, Oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizasi, Sud-soliq, Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash ekspertizasi, Bank sohasida boy berilgan foydani aniqlash, Sovuq qurollar kriminalistik ekspertizasi) yangi ekspertiza turlari joriy qilinib, faoliyatga tatbiq etildi, natijada Markazda amalga oshiriladigan ekspertiza turlari 44 tadan 54 taga, mutaxassislik yo‘nalishlari esa 73 taga yetkazildi. Shuningdek, fuqarolarimiz hamda sud-tergov organlarining sud ekspertiza xulosalariga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida 2022-yildan yangi “Sud kompyuter-texnika bo‘limi” tashkil etildi.

Natijada Markaz va uning hududiy bo‘limlariga sud-tergov idoralari tomonidan ekspertizalar tayinlash hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mutaxassis fikri olishga ehtiyoji yildan-yilga oshib bormoqda. Birgina misol, agar ekspertlar tomonidan 2020-yilda 923,8 ming ta obyektlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilib, 28 678 ta ekspertiza xulosalari, mutaxassis fikrlari berilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib esa 1 mln 244,9 mingta obyektlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilib, 35 309 ta ekspertiza xulosalari va mutaxassis fikrlari berilgan yoki 2020 yilga nisbatan 7 mingtaga oshgan. Bu O‘zbekistonda fan va texnikaning izchil taraqqiyotiga xos ravishda sud ekspertizasi ham barqaror rivojlanishini ko‘rsatadi. Markazda ekspertlik tadqiqotlarining jahon standartlariga mos keladigan zamonaviy ilmiy darajada o‘tkazilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Sud ekspertizasi inson huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashdagi ahamiyatini inobatga ol-

gan holda bu boradagi qonunchilik asoslari ham takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni ekspertlik faoliyatning huquqiy poydevorini yaratdi, uning asosida qabul qilingan bir necha qarorlar sohaning turli yo‘nalishlarini takomillashtirishga qaratildi.

So‘nggi yillarda barcha sohalar qatori, sud-huquq tizimining ajralmas qismi, muhim bo‘g‘inlaridan sanalgan sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham izchillik bilan islohotlar amalga oshirilib, ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha farmon va qarorlar qabul qilindi va ularga asosan ushbu sohadagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilib, sud eksperti kadrlarining kasbiy malakasini oshirish, sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash, sud ekspertizasi jarayonida advokatlar hamda nodavlat sud ekspertlari ishtirokini ta‘minlash orqali odil sudlovni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4125-son qaroriga asosan mamlakatimizda ilk bor nodavlat tashkilotlar tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi va Hukumatimizning 2020-yil 24-martdagi 180-sonli qarori bilan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyati tartibga solinib, hozirgi kunda 4 ta nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Ushbu sohadagi islohotlar izchillik bilan davom ettirilib, 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha 2021–2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Bunda, avvalambor sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur yangi

tahrirdagi Qonun loyihasida quyidagilar qamrab olindi:

sud ekspertlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalarini takomillashtirish;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining maqomi, ularga qo‘yiladigan talablar, ular tomonidan sud ekspertizalari va tadqiqotlarini o‘tkazish tartib-taomili hamda ish reglamentlarini belgilash;

nodavlat sud-ekspertlik faoliyatini metodik ta‘minlash hamda tartibga solish mexanizmini joriy etish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan ekspertlar tomonidan beriladigan mutaxassis fikrini berish; qayta ekspertiza o‘tkazish vakolati beriladigan ekspertlar reyestrini yuritish tizimini joriy etish va unga kiritishga doir talablarni belgilash; maxsus vakolatli organning huquq va majburiyatlarini belgilash; sud ekspertlari tomonidan qasamyod qabul qilish va kasb-etika qoidalarini belgilash;

iqtisodiy, fuqarolik va ma‘muriy ish yuritishda advokatga sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida ekspert xulosasini sud muhokamasida taqdim etish uchun davlat va nodavlat sud-ekspertiza muassasalarida shartnoma asosida advokat so‘rovi yuborish orqali ekspertiza o‘tkazish tashabbusi huquqini berish;

sud-ekspertlik faoliyatining yanada ishonchligini oshirish maqsadida akkreditatsiya va validatsiya institutlarini joriy etish kabi masalalar o‘rin olgan.

2022-yil 3-avgust kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi 786-sonli Qonuni bilan “Advokatura to‘g‘risida”gi, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarining ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual, Iqtisodiy protsessual va O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida advokatga iqtisodiy, fuqarolik va ma‘muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o‘tkazilishini so‘rash hamda ekspertiza xulosasi ish materiallariga qo‘shib qo‘yilishini va sud tomonidan ushbu xulosa ishdagi mavjud dalillar bilan birgalikda baholanishini talab qilish huquqlari berilmoqda.



Shuningdek, mazkur Qonunning 71-moddasida esa advokat so‘roviga ko‘ra ekspertiza xulosasini olish muddatlari davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanadi hamda advokat so‘roviga orderning ko‘chirma nusxasi, sud ekspertizasi advokat so‘roviga ko‘ra tayinlanganda esa o‘rganish obyektlari va to‘laqonli ekspertiza o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ish materiallari ham ilova qilinadi, deb bayon etilgan.

Ta’kidlash kerakki, bunday normalarning kiritilishi albatta milliy qonunchiligimiz uchun katta yangilik hisoblanib, O‘zbekiston advokatlari-ning kasbiy huquqlarini kengaytirishdagi muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi bosqichda davlat sud-ekspertiza siyosatini shakllantirish jinoiy protsess jarayoni doirasida ham, undan tashqari ham davom etmoqda. Ushbu siyosat sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot natijalarni sud protsessiga joriy etish, nodavlat sud ekspertiza institutlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan.

Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazishning yagona talablari hamda umumiy tadqiqot usullari zamonaviy talablar orqali takomillashib bormoqda. Namunalarga qo‘yiladigan talablar, ekspertlar faoliyatini monitoring qilishning shaffof tartibini ta’minlash, ekspertiza tadqiqotlarini yangi bosqichga olib chiqadi va sud ekspertizasi nufuzining oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni. 2010-yil 1-iyun, №O‘RQ-249.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5491507>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // www.lex.uz.
4. Бычкова Л.Ф. Теория судебной экспертизы. Бишкек: Кыргызско-Российский Славянский университет им. Б.Н. Ельцина (КРСУ), 2015. – С. 118.
5. Атаходжаев С.А. Теоретические основы и методика судебно-посерковедческого многообъектного исследования подписей. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 1983.
6. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessul va kriminalistik jihatlari. Yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.

ОДОРОЛОГИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА КАК ДОКАЗАТЕЛЬСТВО В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

ДАВРОНОВ

*Атобек Равшанович,
преподаватель кафедры
уголовного процессуального права
Ташкентского государственного
юридического университета,
доктор философии по
юридическим наукам (PhD)*

АННОТАЦИЯ

В исследовании автор рассматривает специфический метод криминалистики – одорологическую экспертизу. Рассмотрены современные теоретические и практические проблемы, связанные с подготовкой и проведением одорологической экспертизы. В статье приводится сравнительное исследование запаховых образцов, возможность которого базируется на индивидуальности запаха каждого человека. Главной задачей эксперта является установление наличия запаховых следов конкретных людей, подозреваемых в совершении преступлений. В ходе экспертизы исследуются пахучие следы обмена веществ человека. Эти следы могут скапливаться на различных предметах – одежде, обуви, головных уборах и т.д. Действительно, такие предметы могут хранить запах хозяина очень длительное время, иногда несколько лет. Запах может храниться и в засохшей крови. В этом случае на экспертизу отправляется либо сам предмет с пятном, либо делается соскоб, а если кровь на пористой поверхности, то делают смыв. Помимо вышперечисленного автор пришел к выводу, что пахучие следы сохраняются на разных предметах разное время: например, на окурке или рукоятке ножа – до нескольких часов, а если преступник контактировал с вещью больше получаса, то запах сохраняется до трех суток.

Ключевые слова: одорология, хроматография, масс-спектрометрия, ольфакторный, экспертиза, запахи, следы, криминалистика, доказательства, лаборатория.

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot doirasida muallif sud tibbiyotining o'ziga xos odorologik ekspertizasi usulini ko'rib chiqadi. Odorologik ekspertizani tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq zamonaviy nazariy va amaliy muammolar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada hid namunalari qiyosiy o'rganish o'tkaziladi, ularning imkoniyati har bir inson hidining individualligiga asoslanadi. Ekspertning asosiy vazifasi jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarning hid izlari mavjudligini aniqlashdan iborat. Tekshiruv davomida inson metabolizmining hidli izlari tekshiriladi. Ushbu izlar turli xil narsalarda to'planishi mumkin: kiyimda, poyabzalda, shlyapalarda va hokazo. Haqiqatan ham, bunday

narsalar egasining hidini juda uzoq vaqt, ba'zan bir necha yil davomida saqlashi mumkin. Hidi quritilgan qonda ham saqlanishi mumkin. Bunday holda, obyektning o'zi dog'lar bilan tekshirishga yuboriladi yoki qirib tashlash amalga oshiriladi, agar qon sirtida bo'lsa, yuvish amalga oshiriladi. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, muallif hidli izlar turli xil narsalarda turli vaqtlarda qoladi degan xulosaga keladi: masalan, sigareta qoldig'ida yoki pichoq tutqichida – bir necha soatgacha va agar huquqbuzar bilan aloqada bo'lsa narsa yarim soatdan ko'proq vaqt davomida, keyin hid uch kungacha davom etadi.

Kalit so'zlar: Odorologiya, xromatografiya, mass-spektroskopiya, hid bilish, ekspertiza, hidlar, izlar, sud-tibbiyot, dalillar, laboratoriya.

ANNOTATION

In this study, the author considers a specific method of forensic science, this is an odorological examination. Modern theoretical and practical problems related to the preparation and conduct of an odorological examination are considered. In addition, this article conducts a comparative study of odor samples, the possibility of which is based on the individuality of the smell of each person. The main task of the expert is to establish the presence of odor traces of specific people suspected of committing crimes. During the examination, smelling traces of human metabolism are examined. These traces can accumulate on various items: on clothes, shoes, hats, etc. Indeed, such objects can store the smell of the owner for a very long time, sometimes for several years. The smell can also be stored in dried blood. In this case, either the object itself with the stain is sent for examination, or a scraping is done, and if the blood is on a porous surface, then a wash is done. In addition to the above, the author came to the conclusion that odorous traces remain on different objects for different times: for example, on a cigarette butt or a knife handle - up to several hours, and if the offender has been in contact with the thing for more than half an hour, then the smell persists for up to three days.

Key words: Odorology, chromatography, mass spectroscopy, olfactory, examination, smells, traces, forensics, evidence, laboratory.

Знания об особенностях запаха преступников были известны еще с древних времен, однако предметом научного исследования запаховые следы, стали сравнительно недавно. Данная отрасль научного знания, которая занимается исследованием природы и механизма образования запаховых следов, технических средств и методов их использования в целях предупреждения и раскрытия преступлений, возникла в начале 60-х годов прошлого века благодаря разработкам группой советских ученых-криминалистов новых средств консервации следов запаха для дальнейшей возможности отождествления по полученным запаховым следам человека (преступника), его идентификации и поимки.

Одорологический метод был изобретен в 1965 году кафедрой криминалистики Высшей школы КГБ СССР – А.Винбергом, В.Безруковым, М.Майоровым, Р.Тодоровым, и появился новый раздел криминологии – криминалистическая odorология. В настоящее время в науке ведутся споры относительно применения odorологического метода в доказывании. Так, например, Строгович М.С. вступил в полемику с основателями данного метода, утверждая, что он научно не обоснован и юридически неоснователен [1; С. 270].

В Республике Узбекистан инициатором создания экспертной службы в составе Министерства юстиции, тогда еще Узбекской ССР, была ученый-юрист Хадича Сулаймановна Сулайманова, доктор юридических наук, профессор, академик Академии наук Узбекистана. Она внесла огромный вклад в развитие юридической науки в республике [2; Р. 271-274].

В феврале 2016 года журнал PLOS ONE опубликовал исследование нейробиологов Лионского университета, которые основывались на материале криминалистических лабораторий полиции Франции и пришли к выводу, что в 80-90% случаев собаки-детекторы верно распознают индивидуальный запах человека [3].

Возникновению криминалистической odorологии способствовало развитие технических и естественных наук, а именно, раз-

работки газовой хроматографии, методов масспектрологии [4; С. 10-13].

Одородологическая экспертиза является одним из наиболее «молодых» методов получения доказательственной информации в процессе раскрытия и расследования преступлений. В качестве объекта исследования данной экспертизы выступает запах человека.

В следственной практике одородологическая экспертиза проводится в тех случаях, когда на месте преступления не остается распространенных следов, оставленных преступником, кроме запаховых следов, так как избавиться от них сложнее, чем от таких следов человека, как следы рук, ног или крови. При выполнении процессуально необходимых правил изъятия запаховых следов и профессионально выполненной лабораторной идентификации запах, оставленный на месте преступления, может использоваться как вещественное доказательство наравне с другими следами.

Однако, несмотря на большое количество противников этого метода, он применяется в практике, но в настоящее время в европейских и центрально-азиатских странах нет необходимого количества соответствующих лабораторий, что отрицательно сказывается на развитии криминалистической одородологии как науки, так и на накоплении практики раскрытия преступлений по запаховым следам. Такого рода экспертизы все чаще назначаются следователями и судами, несмотря на то, что ученые до сих пор не могут прийти к единому мнению о целесообразности и обоснованности проведения одородологических исследований.

Следы запаха в основном исследуются посредством одородологического (ольфакторного) метода, суть которого заключается в сборе и консервировании запаховых следов при проведении как следственных действий, так и при последующем лабораторном исследовании (одородологическая экспертиза) [5; С.415].

Ko'zdan kechirishda bo'lish va ko'zdan kechirish aktining mazmuni bilan tanishish fakti hozir bo'lganlarning imzosi bilan tasdiqlanadi. Ko'zdan kechi-

rish akti natijalaridan rozi bo'lmagan tomon qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Vakolatli organ tomonidan tayinlangan ekspertiza natijalari "Ekspert xulosasi" yoki "xulosa berishning imkoni yo'qligi to'g'risidagi xabarnoma" tomonidan bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi tilxat bilan rasmiylashtiriladi.

Jismoniy yoki yuridik shaxsning iltimosiga binoan avtotovarshunoslik bo'yicha tadqiqot natijalari "Mutaxassisning xulosasi" ("Hisobot", "Ekspertiza akti" va boshqalar) bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza yoki avtotovarshunoslik bo'yicha tadqiqotlar natijalari kerakli ilovalarga ega bo'lishi mumkin (rasmlar, diagrammalar, jadvallar va boshqalar).

Ekspert xulosasi amaldagi qonunchilik talablari asosida tuziladi va yozma ravishda beriladi.

Ekspert xulosasi uchta qismdan iborat bo'ladi: kirish; tadqiqot;

– xulosalar.

Xulosaning kirish qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

tadqiqot o'tkazilayotgan tashkilotning nomi; xulosaning tartib raqami va uni taqdim etish vaqti, ekspertiza turi, u qo'shimcha, qayta va qaysi ish bo'yicha ekanligi;

ekspertiza o'tkazish uchun asos, qachon va kim tomonidan chiqarilganligi;

ekspertiza qachon o'tkazilganligi (tadqiqotlarning boshlanish va tugash vaqti, ularni to'xtatish sabablari va muddatlari);



ekspertiza kim tomonidan o‘tkazilgan: ekspertning familiyasi, ismi va sharifi, uning ma’lumoti, mutaxassisligi, ilmiy darajasi va unvoni, egallagan lavozimi;

ekspertiza qayerda o‘tkazilgan (ko‘zdan kechirish joyi va sharoiti);

ekspertizaga taqdim etilgan materiallarning ro‘yxati va zarur hollarda yetkazib berilishi, ko‘rinishi va qadoqlash holati;

ekspert tomonidan bildirilgan iltimosnomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ularni ko‘rish natijalari;

ekspertga qo‘yilgan savollar va ishning mohiyati (agarda bular xulosa berish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lsa);

ekspertiza (ko‘zdan kechirish) o‘tkazishda qatnashgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

qayta ekspertiza o‘tkazilganda, shuningdek, birlamchi ekspertiza o‘tkazgan ekspert, u tomonidan berilgan xulosa va qayta ekspertiza o‘tkazish uchun asoslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham keltiriladi.

Xulosaning tadqiqot qismida uning jarayoni va natijalari, aniqlangan faktlar bo‘yicha tushintirishlar beriladi.

Xulosa jarayonini yozishda quyidagilar bayon qilinadi:

Ekspertizaga (tadqiqotga) taqdim qilingan obyektlar, harakatlarni ko‘zdan kechirish ashyoviy dalillar bilan bajarilgan natijalari;

tadqiqotda qo‘llanilgan usullar va uslublar;

tadqiqot davomida texnik vositalardan foydalanish shartlari;

tadqiqotni o‘tkazish jarayonida foydalanilgan adabiyot manbalari yoki me‘yoriy hujjatlar.

Tadqiqot usul va uslublari, shuningdek,

ularning natijalari aniq, tushunarli, batafsil va maxsus tushunchalarga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan tushunish uchun sodda bo‘lishi kerak. Maxsus atamalariga izoh berilishi lozim. Tadqiqot jarayonlari va olingan ma’lumotlar zarur hollarda fototasvirlar, jadvallar va h.k. bilan ko‘rsatilishi kerak, ular ekspertizaning tadqiq qismida yoki ilovalarda keltiriladi. Tadqiqotning bayon qilinishi uning natijalariga ekspert bahosini berish, savollar bo‘yicha xulosalarni keng asoslarini yoritish, agarda ayrim savollar bo‘yicha javob berish imkoni mavjud bo‘lmasa, ushbu holatlar bo‘yicha ularning sabablari batafsil bayon etiladi.

Xulosaning so‘nggi qismida ekspert oldiga qo‘yilgan savollarga aniq, lo‘nda, tushinarli, sodda bayon etilgan javoblar beriladi. Agarda uning imkoniyati bo‘lmasa, u holda sabablari ko‘rsatiladi.

Agarda xulosada ilovalar keltirilsa, ularning ro‘yxati ilovaning tartib raqami, uning nomi va varaqlar soni xulosalarning oxirida keltiriladi. Har bir ilovaga tartib raqami qo‘yiladi va u qaysi xulosaga tegishli bo‘lsa, uning raqami va vaqti ko‘rsatiladi.

Xulosa berishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risidagi xabarnoma uch qismdan iborat bo‘ladi: kirish; asoslovchi; xulosa.

Asoslovchi qismda xulosa berish imkoni yo‘qligi batafsil bayon qilinadi, berilgan savollarga javob bera olish imkoniyati mavjud emasligi ko‘rsatiladi.

Xulosa (xulosa berishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risidagi xabarnoma) va ilovalar ekspertizani amalga oshirgan ekspert tomonidan imzolanadi hamda uning familiyasi, ismi, otasining ismi keltiriladi. Ekspert imzosi tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni. 2010-yil 1-iyun, №O‘RQ-249.
2. Автомобильный справочник БОСЧ: пер. с англ.ООО «СтарСПб» - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ООО «Книжное издательство «За рулем», 2012. – С. 1280.
3. Григорян В.Г. Использование в экспертной практике экспериментально – расчетных значений параметров торможения автотранспортных средств. – Москва, 1995.
4. Коваленко О.Л. Электронные системы автомобилей: учеб. пособие / О.Л. Коваленко. - Сев. (Арктич.) федер. ун-т им. М.В. Ломоносова. - Архангелск: ИПС САФУ, 2013. – С. 80.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СУДЕБНО-ЭКСПЕРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

ХУСАНОВ

*Анвар Джумабаевич,
начальник кафедры
криминалистических экспертиз
Академии МВД Республики
Узбекистан, доктор философии по
юридическим наукам (PhD).*

СОЛИЕВА

*Наргиса Абдихамитовна,
заведующая лабораторией КЭД
Республиканского центра судебной
экспертизы им. Х. Сулаймановой
при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан,
юрист 1-го класса.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена современным инновационным технологиям, являющимся сегодня актуальными не только в экономической, информационной, научно-технологической сферах, но и в социальной, в частности обеспечении общественной безопасности с целью снижения уровня преступности.

Рассмотрены современные виды материально-технического оснащения современной преступности, а также возможности использования в судебно-экспертной деятельности инновационных технологий, оказывающих неоценимую помощь в различных сферах жизни, в частности в своевременном, качественном раскрытии и расследовании преступлений.

Ключевые слова: инновационные технологии, экспертная деятельность, экспертиза, исследование, идентификация.

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqola bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, axborot, ilmiy-texnikaviy, balki ijtimoiy sohada ham jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatchilikni kamaytirishda, shuningdek, dolzarb bo'lgan zamonaviy innovatsion texnologiyalarga bag'ishlangan.

Hozirgi kundagi jinoyatchilikning moddiy-texnik jihozlanishining, shuningdek, hayotning turli sohalarida, xususan, jinoyatlarni o'z vaqtida, sifatli ochish va tergov qilishda beqiyos yordam ko'rsatuvchi kriminalistika faoliyatida innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlari ko'rib chiqilmoqda.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, ekspert faoliyati, ekspertiza, tadqiqot, aniqlash.

ANNOTATION

The scientific article is dedicated to modern innovative technologies that are relevant today not only in the economic, informational, scientific and technical, but also in the social sphere, in ensuring public safety, reducing crime and criminalizing society.

Modern types of material and technical equipment of modern crime, as well as the possibilities of innovative technologies in various spheres of life, in particular, in criminalistics, which provide incomparable help in timely, high-quality detection and investigation of crimes, are being considered.

Key words: innovative technologies, expert activity, expertise, research, determination.

В последние годы в Республике Узбекистан активно проводится широкомасштабная и прогрессивная работа по обеспечению верховенства закона и дальнейшему реформированию судебно-правовой системы, надежной защите прав и свобод человека, уважению его чести и достоинства, внедрению международных стандартов и передового зарубежного опыта в данную сферу.

В этой связи растущая популярность применения во всем мире современных технологий и методов при совершении преступлений требует дальнейшего совершенствования процессов доказывания в суде, с использованием обоснованных с научно-технической точки зрения достоверных доказательств вины лица за общественно опасное деяние.

Тема инноваций является актуальной не только в экономической, информационной, научно-технологической сферах, но и в социальной, в частности обеспечении общественной безопасности, снижении уровня преступности и криминализации общества. Развитие техники и технологий позволили современной преступности выйти на высокий уровень организации и материально-технического оснащения. Повысилась мобильность преступников, их обеспеченность различными видами техники. Соответственно усложнились задачи, стоящие перед правоохранительными органами, поскольку эффективная борьба с современной преступностью требует как оперативного реагирования на изменения, происходящие в преступной среде, так и действий на опережение.

Одним из приоритетных направлений совершенствования судебно-экспертной практики является автоматизация экспертного производства. Оно состоит в использовании технических средств, математических методов и программ деятельности, которые частично или полностью освобождают эксперта от непосредственного участия в процессах получения, преобразования, передачи и использования информации при производстве экспертизы. В этой связи возникает настоя-



тельная необходимость внедрения и функционирования в судебно-экспертной деятельности автоматизированных информационных систем, способствующих повышению эффективности поиска, сбора, обработки, хранения, анализа, выдачи и передачи информации. Их функционирование способствует повышению эффективности информационного обеспечения судебно-экспертной деятельности путем применения технических средств, задача которых – достижение максимального результата при минимальной затрате сил, средств и времени [1, с.12].

Среди основных задач экспертно-криминалистической службы – разработка, совершенствование и внедрение соответствующих научно-технических средств и методов для раскрытия и расследования преступлений. В целях адекватности современным угрозам в сфере безопасности личности, общества и государства, экспертно-криминалистическая служба интегрирует в себе последние достижения науки и техники. Для этого она должна осуществлять активнейшую «инновационную» деятельность: успешно разрабатывать, внедрять и использовать новейшие наукоемкие технологии, обеспечивать разработку научно обоснованных методов, приемов и средств раскрытия преступлений и предварительного расследования, проводить судебные экспертизы, помогать в техническом оснащении оперативно-розыскных мероприятий.

Деятельность современного института судебной экспертизы также тесно связана с решением проблемы информационного обеспечения. По мнению Н.П.Майлис, информационное обеспечение судебной экспертизы

должно представлять собой научно организованный и непрерывный процесс отбора, подготовки и выдачи систематизированной научно-технической информации, необходимой для решения судебно-экспертных задач. Кроме того, одним из направлений совершенствования судебно-экспертной практики Н.П. Майлис считает автоматизацию экспертного производства, состоящую в использовании технических средств, математических методов и программ деятельности, которые частично или полностью освобождают эксперта от непосредственного участия в процессах получения, преобразования, передачи и использования информации при производстве экспертизы [2, с.6].

Современное состояние применения инновационных технологий в судебно-экспертной деятельности рассмотрим на примере Государственного комитета судебных экспертиз Республики Беларусь. В 2018 году Государственный комитет судебных экспертиз подписал Соглашение о сотрудничестве с Национальной академией наук Республики Беларусь в научно-технической сфере. Сотрудничество проходит по следующим направлениям: использование банка ДНК Института генетики и цитологии Национальной академии наук Республики Беларусь при проведении научных исследований по направлению судебно-геномных экспертиз; судебно-экспертное исследование деталей транспортных средств с использованием технологий порошковой металлургии Института порошковой металлургии; разработка программного обеспечения на основе алгоритмов самообучения (искусственных нейронных сетей) для оперативного установления личности преступника с помощью автоматизированных информационных систем и криминалистических учетов; разработка технологий 3D-моделирования, специализированных средств фиксации обстановки места

происшествия, в том числе с использованием беспилотных летательных аппаратов. Также в Научно-практическом центре Государственного комитета судебных экспертиз идет разработка ДНК-фенотипирования, т.е. установления этногеографического происхождения, фенотипа неизвестного преступника по оставленным биологическим следам – возраста, пола, цвета глаз и волос, размеров носа и ушей и других параметров [3]. Судебные экспертизы с использованием новейшего метода востребованы по категории наиболее тяжких дел, связанных с применением огнестрельного оружия: убийства, разбойные нападения, ограбления и др.

В настоящее время рассматриваемые технологии достигли достаточно высокого уровня. Наиважнейшее внимание уделяется использованию технологий 3D-моделирования. 3D-принтер – это станок, преобразующий виртуальный макет в реальный объект методом пошагового нанесения материала.

Изготовление физических объектов осуществляется по выполненному в любом графическом редакторе трехмерному макету. Это позволяет создать конструкции любой сложности и проработать внутренние детали, которые на современном оборудовании выполнить очень сложно. При рассмотрении развития применения инновационных технологий в 3D-дактилоскопировании, можно обратить внимание на российскую разработку системы, функционирующей с 1992 года. ПАПИЛОН «Живой сканер» обеспечивает высококачественную дактилоскопическую регистрацию личности, создание электронных дактилокарт заданной формы, передачу дактилокарт в АДИС ПАПИЛОН или другую дактилоскопическую базу данных (в формате ANSI/NIST). Работа с системой ПАПИЛОН «Живой сканер» не требует специальных познаний в области дакти-



лоскопии. Система обеспечивает возможность включения в электронную дактилокарту:

- прокатанных отпечатков пальцев;
- оттисков пальцев;
- контрольных оттисков четырех пальцев;
- контрольных оттисков больших пальцев;
- оттисков ладоней, включая отпечаток «писателя».

В системе решена проблема компенсации смаза при прокатке пальцев и качественного сканирования «плохих» рук (потных, излишне сухих, с низким и стертым рельефом папиллярного узора).

При использовании метода установления личности по отпечаткам пальцев в России используют нанотехнологии в изготовлении дактилоскопических порошков. Новые порошки, разработанные в Томске, обладают уникальными свойствами благодаря тому, что в них используются наноразмерные частицы. Состав и цвет порошка позволяет получать отпечаток высокой точности, что значительно упрощает процесс установления личности подозреваемого. Такой порошок универсален, так как его можно использовать в любых условиях, при работе с любым материалом любой текстуры и при любом уровне загрязненности образца. Но главное преимущество нанопорошка в том, что с его помощью можно обнаруживать и изымать четкие следы пальцев рук человека практически с любых материалов, даже с полиэтилена и фольги.

При проведении портретных исследований можно отдать предпочтение такой российской программной установке, как «ВОКОРД видеоэксперт». Указанная программа, по словам российских экспертов-криминалистов, представляет комплекс инструментов обработки и анализа цифровых фото- и видеоматериалов, что позволяет в автоматическом и полуавтоматическом режимах выявлять факты монтажа и подделок, улучшать качество фото и видео, проводить портретную экспертизу с использованием 3D-технологий, распознавать нечитаемые государственные регистрационные знаки и осуществлять проверку по базам данных.

Наглядным примером непосредственного применения новейших компьютерных технологий при производстве судебных экспертиз является использование приборов и оборудо-

вания, созданных на основе интеграции традиционных и компьютерных технологий. Традиционные возможности таких устройств многократно усилены современными цифровыми технологиями. Одним из таких приборов, сочетающим в себе функции оптического микроскопа и широкие возможности, присущие лазерному профилометру, является микроскоп Leica DVM6 (производитель Leica Microsystems, Германия) с функцией 3D-моделирования. Являясь высокоскоростным лазерным сканирующим 3D-микроскопом, Leica DVM6 предназначен для точных и достоверных измерений, а также для построения пространственных изображений. Изображение в микроскопе формируется в масштабе реального времени за счет использования быстродействующего оптического сканирующего модуля, а также программных алгоритмов обработки сигналов. Оптическая система микроскопа имеет максимальное увеличение, соответствующее 400х, три способа освещения (кольцевой, сегментный и коаксиальный), причем все эти способы могут быть использованы во всем диапазоне увеличений. Указанные возможности позволяют полностью решить проблему нехватки глубины резкости при больших увеличениях и проводить измерения не только в плоскости, но и по глубине [4].

Большое значение приобретает анализ цифровой информации об обстоятельствах дорожно-транспортного происшествия (далее – ДТП), которая формируется в электронных системах и устройствах современного автотранспорта. В Республике Беларусь широко применяются методы получения информации о комплектации транспортного средства, режимах работы различных систем автомобиля до и в момент ДТП при проведении автотехнических и автотовароведческих экспертиз, чему способствует наличие собственных инновационных экспертных методик и современного технического оснащения экспертных подразделений.

Применение методов построения 3D-моделей в значительной степени облегчает задачи проведения как диагностических, так и идентификационных исследований. Например, при производстве баллистических экспертиз задача идентификации исследуемых объектов

становится простой и наглядной. Изображение объектов, выводимое на экран, получается со значительным увеличением и высоким разрешением, имеется возможность проведения трехмерного измерения таких объектов и изменения, при необходимости, ракурса построения модели. Прибор обладает уникальными оптическими и программными характеристиками, которые позволяют вывести на новый уровень и возможности технико-криминалистической экспертизы документов.

Преимущества применения рассматриваемого метода можно продемонстрировать на примере исследования пересекающихся штрихов в документе. Традиционно в этой работе применяются такие методы, как микроскопическое исследование, направленное на выявление наличия или отсутствия специфического для чернил блеска, копирование на адсорбент, смоченный системой растворителей, исследование люминесценции, метод влажного копирования и другие. В этих случаях эксперт использует комплекс оптических, физических и химических методов, что обуславливает увеличение сроков экспертного исследования и может оказывать разрушающее воздействие на исследуемый объект. Попытки экспертов при решении данного вопроса применять только неразрушающие методы исследования в большинстве случаев не дают положительного результата [5]. Применение метода 3D-моделей позволяет производить исследования неразрушающими методами, причем при помощи данного метода можно исследовать даже документы, штрихи в которых выполнены как разными материалами письма, так и одного вида.

Сегодня лазерная сканирующая микроскопия широко применяется экспертными подразделениями правоохранительных органов многих государств [6].

В целях своевременного выявления и раскрытия совершенных правонарушений в короткие сроки с применением современных информационно-коммуникационных технологий, дальнейшего совершенствования криминалистического исследования вещественных доказательств, а также расширения возможностей экспертов-криминалистов следует определить приоритетными направ-



лениями дальнейшего совершенствования экспертно-криминалистической деятельности подразделений органов внутренних дел:

- внедрение механизмов применения передовых достижений современной науки и техники, цифровых технологий, новых научных методов и средств криминалистики, создание автоматизированных криминалистических информационно-поисковых систем и баз данных, соответствующих современным требованиям;
- широкое использование возможностей цифровой экспертизы по правонарушениям, совершаемым с помощью информационных технологий, ведение криминалистических учетов в этом направлении;

- внедрение механизмов координации применения автоматизированных идентификационных систем на основе биометрических персональных данных (геномная информация, изображение лица, отпечатки пальцев рук);

- широкое внедрение новых видов исследования вещественных доказательств, инновационных криминалистических подходов, методов и технических средств при проведении оперативно-розыскных мероприятий, следственных и судебных действий, приведение деятельности лабораторий в этом направлении в соответствие с требованиями международных стандартов;

- проведение на постоянной основе научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ по повышению достоверности вещественных доказательств при доказывании и внедрение практики их применения в судебную экспертную деятельность;

организацию кардинально нового эффективного учебно-практического процесса целевой подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров в экспертно-криминалистической сфере, повышение статуса экспертов-криминалистов и всестороннее обеспечение их объективности и независимости в судебно-экспертной деятельности [7].

Выделенные нами направления применения инновационных технологий в судебно-экспертной деятельности не являются исчерпывающими и не носят завершающего характера, а касаются только выделения перспективных направлений инновационного развития в правоохранительной сфере, которые возникают в условиях научно-технического прогресса, динамичного развития криминалистической науки и судебно-экспертной деятельности.

Исходя из вышеизложенного, можно констатировать, что инновационные технологии активно внедряются в судебно-экспертную деятельность и оказывают неоценимую помощь в различных сферах жизни, в частности в своевременном, качественном раскрытии и расследовании преступлений. Современное состояние и перспективы развития инновационных технологий наглядно показывают

их роль и значение в указанном направлении. Руководство страны всячески поощряет внедрение инноваций в судебно-экспертную деятельность и тем самым создает реальные возможности совершенствования в данном направлении.



ЛИТЕРАТУРА

1. Майлис Н.П. Совершенствование судебно-экспертной и дидактической деятельности с использованием инновационных технологий. – Вестник Академии экономической безопасности МВД России. – №2/2015. С.12
2. Бушуев В.В. Инновационные технологии в судебно-экспертной деятельности. – Вестник Академии экономической безопасности МВД России. – №2/2015. – С. 6
3. Судебная экспертиза в Беларуси: опыт, достижения, новации. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.belta.by/special/onlineconference/view/sudebnaja-ekspertiza-v-belarusi-opyt-dostizhenija-novatsii-1031>. – Дата доступа: 12.03.2020.
4. Spagnolo G.S. Potentiality of 3D laser profilometry to determine the sequence of homogenous crossing lines on questioned documents // Forensic Science International. 2006. № 164.
5. Торопова М.В. Установление последовательности нанесения в документах реквизитов, выполненных электрофотографическим способом, и рукописных реквизитов, оттисков печатей: Метод. рекомендации. – М. 2011.
6. Электронный ресурс: <http://phys.web.ru/db/msg/1182209/> – Дата обращения: 12.03.2020.
7. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-122 “О мерах по дальнейшему совершенствованию экспертно-криминалистической деятельности органов внутренних дел с широким внедрением достижений современной науки» от 08.02.2022г.

O'ZBEKISTONDA XALQARO REYTING VA INDEKSLAR BILAN ISHLASHDA ILM-FAN VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

KADIROV

*Eshmuxamad Omanturdiyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida
professori v.v.b., yuridik fanlar doktori*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilm-fan va amaliyot uyg'unligining ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Muallif tomonidan tahlil etilgan masalalar bo'yicha tegishli takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: davlatning xalqaro nufuzi, davlat huquqiy siyosati, ilm-fan, ilm-fan va amaliyot uyg'unligi, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslari, raqamli texnologiyalar, ta'lim muassasalari, xalqaro tajriba, huquqiy tartibga solish mexanizmlari.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются научно-теоретические и правовые основы гармонии науки и практики при работе с международными рейтингами и индексами в Узбекистане. Автором по проанализированным вопросам представлены соответствующие предложения.

Ключевые слова: международная репутация государства, государственная правовая политика, наука, гармония науки и практики, международные рейтинги и индексы страны, цифровые технологии, образовательные учреждения, международный опыт, механизмы правового регулирования.

ANNOTATION

The article analyzes the scientific-theoretical and legal foundations of the harmony of science and practice in working with international ratings and indices in Uzbekistan. Relevant proposals are given on the issues analyzed by the author.

Key words: international reputation of the state, state legal policy, science, harmony of science and practice, international rating and indices of our country, digital technologies, educational institutions, international experience, legal regulatory mechanisms.

Hech qachon hech bir davlat, hech qaysi jamiyat, boshqa xalqlardan uzilib qolgan yoki o‘z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo‘lmagan bo‘lar edi. O‘zbekiston ham davlat sifatida bundan mustasno emas. Darhaqiqat, mamlakatimiz Markaziy Osiyo yoxud Movarounnahrning muhim tarkibiy qismi sifatida qulay geografik sharoiti, tabiati, iqlimi tufayli mintaqada odamlarning uzoq tarixdan bu yerda o‘troqlashib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangani bois mintaqada madaniyatning ancha erta, bir necha ming yillar oldin shakllanganidan darak beradi. Eng qadimiy va antik davrlarda uzoq masofalarni ot-ulovda bosib o‘tish mushkul bo‘lgan paytlarda otabobolarimiz Misr, Bobil, Markaziy Gretsiya va Yunoniston kabi davlatlar bilan aloqa qilganlar.

Bugun O‘zbekiston iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta‘minlash, sud-huquq sohasida moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar yo‘nalishlarida mamlakatimizning xalqaro reyting va indeksleri ko‘rsatkichlarini oshirish yo‘lida jadal faoliyat olib bormoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston xalqi va parlamentiga qilgan Murojaatida: “Jonajon O‘zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. ...Bugungi kunda O‘zbekiston jahon siyosati markazlaridan biriga aylanayotgani, xalqaro hamjamiyat buni keng e‘tirof etayotgani ham ayni haqiqatdir. Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari hamda o‘nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlarga mezbonlik qildik va muhim tashabbuslarni ilgari surdik. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi”¹, degan fikrlari real haqiqat ekanligi barchaga ma‘lum.

Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi, №259 (781), 2022-yil 21-dekabr.

mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning huquqiy asoslari hamda yangi mexanizmlarini yaratish dolzarb ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan biz xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston o‘rnining yaxshilanishiga to‘sqinlik qilayotgan huquqiy omillar yuzasidan davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda fan va amaliyot uyg‘unligi masalasini ilmiy nazariy jihatdan tahlil etishga e‘tibor qaratishni lozim topdik. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyatining ilk kunlaridayoq mamlakat olimlari bilan uchrashuvida davlat va jamiyat taraqqiyotida ilm fanning ahamiyatini shunday izohlaydi: “Davlat va jamiyat taraqqiyotini zamonaviy talablardan kelib chiqib, ilm va fansiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Har bir fanning rivojida tabiiyki fundamental tadqiqotlarning o‘rni beqiyos. Aynan, fundamental tadqiqotlar tufayli yangilik va ilmiy nazariyalar kashf etilib, innovatsion ishlanma hamda amaliy tadqiqotlar yuzaga keladi”².

Davlatimiz rahbarining mazkur fikrlari ilmiy doira vakillarining ilm-fan haqidagi quyidagi fikrlari bilan bevosita uyg‘unligi ham e‘tiborga molik. Olimlarning fikricha, ilm-fan – bilish faoliyatining muhim shakli va asosiy “fundamenti” hisoblanadi. Shuningdek, ilm-fan muntazam ravishda amaliyot bilan bevosita bog‘liq hamda o‘zining rivoji uchun unga tayanadi va o‘z o‘rnida amaliy faoliyat jarayoniga ta‘sir ham ko‘rsatadi. Ilm-fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi natijasida insonning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi³.

Darhaqiqat, hozirgacha hech bir jamiyat davlatning ishtirokisiz adolat muhitini ta‘minlay olgan emas. Hamma yerda davlat huquqiy normalarning harakatlanishini, amalga oshirishini ta‘minlaydi. Davlat huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yaratadi, huquqning aniq maqsadlariga erishish uchun mazkur mexanizmlarni ishga soladi. Ushbu fikrni davlatning huquqiy siyosatiga nisbatan ham

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy yuksalish yo‘lini yangi bosqichda ishonch bilan davom ettiramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. –B. 143

³ Основы философии: учебное пособие для средних специальных учебных заведений / В.П.Кохановский (и др.) Под ред. В.П.Кохановского. – Изд. 7-е. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. – С. 255.

bildirish mumkin. Bugun Yangi O‘zbekistonda yagona davlat huquqiy siyosatini va norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish hamda izchil va bir xil huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirish yoxud davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta‘minlash yoki aholining huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, bu borada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Siyosiy-huquqiy reyting va indekslar uchun bevosita mas‘ul organ sifatida Adliya vazirligi belgilangan. Buning ma‘nosi shuki, Boshqaruv sifati indikatorlari (**Worldwide Governance Indicators**), Hukumat samaradorligi (**Government Effectiveness**), Tartibga solish sifati (**Regulatory Quality**), Aholining fikrini inobatga olish va hisobdorlik (**Voise and Accountabiliti**), Huquq ustuvorligi (Rule of Law), Korrupsiyani tiyib turish (**Control of Corruption**), Matbuot erkinligi indeksi (**Press Freedom Index**), Korrupsiyani qabul qilish indeksi (**Corruption Perception Index**), Huquq ustuvorligi indeksi (**Rul of law, World Justice Projest**), Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi (**Democracy Index**)⁴ kabi ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash bo‘yicha qator davlat organlari va tashkilotlari bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi Farmonining 2-ilovasi.

Bu yaxshi. Biroq, masala faqat amaliy jihatdan hal etiladigan ko‘lamga ega emas. Ya‘ni mamlakatning xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilashda fundamental huquqiy tadqiqotlar yaratish hamda raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali fan va amaliyot uyg‘unlashuviga erishish zarurati yuzaga kelishi shubhasiz. Sababi, masalaning zalvori, yuki va ahamiyati ham mazkur uyg‘unlashuvni taqozo qiladi. Olimlarning fikricha, ilm kirgan har qanday soha, unga fikr, mulohaza, tahlil, qiyos, tanqid, munozara, bahs, yangilik, xulosa, taklif, tavsiya va bashorat kabi ilmning zaruriy shartlari tatbiq etilgani bois ham muammo yoxud masalaning yechimi optimallashuviga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash maqsadida davlat hokimiyati organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati, shikoyat berish mexanizmi, asosiy huquqlarni himoya qilish, diskriminatsiyaning mavjud emasligi, ma‘muriy tartib-taomillarning o‘z vaqtida ijro etilishi, hukumatning sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilishiga yo‘l qo‘ymasligi, nizolarni hal etishda muqobil mexanizmlarning ishlash samaradorligi va xolisligini ta‘minlash⁵ masalalarida ham ilm-fan va amaliyot uyg‘unlashuviga erishish muhim hisoblanadi.

⁵ O‘zbekiston Rspublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi Farmonining 3-ilovasi.



Ana shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda ayrim amaliyotchi rahbarlar reytinglar bilan ishlashning ilmiy asoslantirilishiga yetarlicha e‘tibor qaratmayotganligi va ilm-fan hamda amaliyot uyg‘unlashuvida faqat tor amaliy faoliyat doirasida masalaga yondashayotganligi, xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilayotgan so‘rovlarda respublikamizdagi aksariyat islohotlar o‘z aksini topmayotganligi natijasida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston quyi pag‘onalarda qolmoqda. Xalqaro tajribadan ma‘lumki, har qanday ta‘lim muassasasi o‘zining ta‘lim, tadqiqot va jamiyatga naf keltirish kabi ustuvor funksional vazifalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu borada muammoni hal etishning tizimli va samarali yo‘li sifatida quyidagi takliflarni ilgari surishni lozim topdik:

Birinchiidan, Adliya vazirligi tasarrufidagi ilmiy hamda ta‘lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalanishga e‘tiborni kuchaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish orqali xalqaro tashkilotlarning mamlakatimizdagi vakolatxonalarini bilan hamda xorijiy donorlar bilan ilmiy va amaliy hamkorlikni faollashtirish lozim. Tizimdagi barcha ta‘lim va ilmiy muassasalarda bitiruv-malakaviy, magistrlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini aynan shu yo‘nalishda amalga oshirishga yo‘naltirish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Bunda ilm-fan sohasi vakillari uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlardan foydalanish o‘z samarasini beradi.

Ikkinchiidan, xalqaro ekspertlar ishtirokida adliya organlari va ilmiy muassasalarining olimlari va amaliyotchi xodimlari uchun xorijiy amaliyot, seminar va o‘quv kurslarini tashkil etish⁶ ishlarini kuchaytirish kerak. Mazkur vazifani amalga oshirishda milliy manfaat ustuvorligi, tizimlilik, masalaning istiqboli hamda muntazamlilik prinsiplariga qat‘iy amal qilishga zarurat mavjudligini e‘tibordan qochirmaslik kerak.

Uchinchiidan, Adliya vazirligi xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari hamda ilmiy markazlari bilan yuridik ta‘lim, yuridik fan va bu boradagi sotsiologik tadqiqotni rivojlantirish bo‘yicha shartnomaviy huquqiy bazasini kengaytirish yoxud xalqaro huquqiy tashkilotlar bilan ilmiy amaliy hamkorlikni o‘rnatishi darkor. Mazkur vazifani amalga oshirishda uzoqni

ko‘zlab bosqichma-bosqichlik va tizimlilik asosida harakat qilish mexanizmi o‘zini oqlaydi.

To‘rtinchidan, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar to‘g‘risida xalqaro hamjamiyatning huquqiy xabardorlik darajasini oshirish va qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar bo‘yicha ishlarni faollashtirishga zarurat mavjud. Ilmiy doira vakillarining bu boradagi hamkorligi masalaning mohiyatini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada amalga oshirilgan ilm-fan va amaliyot uyg‘unligi masalalardagi mexanizm, usul va vositalar milliy manfaatimizga ham foydali bo‘lishi mumkin.

Beshinchidan, xalqaro reyting agentliklari, ayniqsa, huquqiy sohaga oid agentliklar bilan yaqin va konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa sanaladi. Adliya vazirligiga birlashtirilgan Xalqaro reyting va indekslar tuzuvchi tashkilotlar, Jahon bankining tadqiqot guruhi (**World bank Development Research Group**), Jahon odil sudlov loyihasi (**The World Justice Project**). **“The Economist Intelligence Unit”** kompaniyasi (Buyuk Britaniya) bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o‘rnatish ikki va ko‘p tomonlama manfaatli bo‘lishiga shubha yo‘q. Ushbu yo‘nalishda masalaning ilmiy asoslariga e‘tibor qaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi mazkur nufuzli xalqaro tashkilotlarning bugungi darajasi zamirida ilmiy yondashuv mavjudligi tabiiy holat hisoblanadi.

Oltinchidan, yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari turkumini amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarni inobatga olib, xorijiy olimlar va mutaxassislarni jalb etgan holda mamlakatimiz olimlari bilan birga tayyorlash hamda xorijiy yuridik adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni ta‘minlash ham dolzarb masala sanaladi. Bunda asosan ikkita jihat e‘tiborli hisoblanadi. Birinchiidan, bu boradagi bugungi xalqaro tajriba to‘g‘risida tegishli tasavvurga ega bo‘linadi. Ikkinchiidan, respublikamiz olimlari va tadqiqotchilarining mazkur yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalari shakllanishiga zamin bo‘ladi. Faqat milliy o‘ziga xoslik prinsiplarini saqlash mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yettinchidan, respublikamizda yurisprudensiya sohasida xorijiy oliy o‘quv yurtlarining filiallarini ochishni davr va zamonning o‘zi

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda Adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

taqozo etmoqda. Ya’ni mamlakatimizda bunday loyihalarni amalga oshirishga har tomonlama vaziyat pishib yetildi. Muhimi, mamlakat yoshlarida bu kabi hamkorlikka talab mavjud. Mazkur yo‘nalishda juda kam sonli oliy o‘quv yurtini istisno etganda ehtiyoj yuqori ekanligi ma’lum. Shuningdek, huquqiy ta’lim sohasida xorijiy davlatlar bilan ilmiy aloqalar o‘rnatish, shu jumladan xalqaro universitetlar va huquq assotsiatsiyalariga qo‘shilishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Bizningcha, bu bir tomondan, ilmiy aloqalarning ahamiyati va samarasi konseptual ahamiyatga ega bo‘lishiga asos bo‘lsa, boshqa tomondan ilmiy-tadqiqot yo‘nalishidagi fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishiga ham zamin yaratadi.

Maqola xulosasida, O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bu faqat yuqori sonlar ketidan quvib, soxta ma’lumotlar asosida tor manfaatdorlikka erishish emas. Bunday yuzaki natija har qanday davlat hokimiyati va boshqaruv tizimining obro‘sigacha putur yetkazib, jamiyatni demokratlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslarni yo‘qqa chiqarishi mumkinligini aytmoqchimiz. Aksincha, biz mamlakatimizda xalq



farovonligi va aholining hayot darajasini yuksaltirish, shuningdek, inson huquq hamda erkinliklari himoyasini kafolatlash kabi ustuvor vazifalar davlat organlari faoliyatining bosh maqsadi bo‘lishi kerakligini yana bir bor ta’kidlamoqchimiz.

Fikrimizcha, Xalqaro reyting va indekslarda suveren O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash masalasi faqat davlatning salohiyatini ko‘tarishni anglatmaydi. Mazkur kompleks jarayon mamlakatimizda konstitutsiyamizning va qonunlarimizning amaliy ijrosini xalqaro miqyosda ta’minlashni ham nazarda tutadi. Aniqrog‘i Yangi O‘zbekistonda konstitutsionalizmning amalga oshirilishiga xalqaro hamjamiyatning e’tiborini qaratishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi, №259 (781), 2022-yil 21-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy yuksalish yo‘lini yangi bosqichda ishonch bilan davom ettiramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 143.
3. Основы философии: учебное пособие для средних специальных учебных заведений / В.П.Кохановский (и др.) Под ред. В.П.Кохановского. – Изд. 7-е. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. – С. 255.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda Adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

YURIDIK FANLARNI O'QITISHDA PRODUKTIV TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

G'ULOMOV
Akmaljon Shukurillayevich,
Samarqand davlat univeirsiteti
professori v/b,
yuridik fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida sifatli bilim berishga erishish va undan kutilgan natijani qo'lg'a kiritish bevosita ta'lim texnologiyalari bilan bog'liq. Auditoriyada o'quv jarayoni davomida pedagoglar tomonidan ta'lim berishda turli xil ta'lim texnologiyalari tatbiq qilinadi. Ularni mazmuni bo'yicha produktiv va reproduktiv ta'lim texnologiyalariga ajratish mumkin. Mazkur maqolada yuridik fanlarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan produktiv ta'lim texnologiyalari haqida mulohazalar yuritilgan va tegishli xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim texnologiyalari, davlat organlari, qonun, produktiv ta'lim, keys-stadi, kredit-modul, Blum taksonomiyasi.

АННОТАЦИЯ

Достижение качественного образования учащихся в процессе обучения и ожидаемых результатов напрямую связано с образовательными технологиями. В процессе обучения в аудитории педагоги используют различные образовательные технологии. Их можно разделить на продуктивные и репродуктивные технологии обучения. В статье обсуждаются продуктивные технологии обучения, которые можно использовать в преподавании юридических наук, и делаются соответствующие выводы.

Ключевые слова: образование, образовательные технологии, закон, государственные органы, право, продуктивное образование, кейс-стади, кредитный модуль, таксономия Блюма.

ANNOTATION

Achievement of quality education of students in the learning process and the achievement of expected results are directly related to educational technologies. In the process of teaching in the classroom, teachers use various educational technologies in teaching. They can be divided into productive and reproductive learning technologies. This article discusses productive learning technologies that can be used in law teaching and draws conclusions.

Key words: education, educational technologies, law, government agencies, law, productive education, case study, credit module, Blum's taxonomy.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim, – degan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev [1].

Darhaqiqat, har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash bevosita ta'lim berish jarayoni sifatining uzviyligi bilan bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayonining subyektlari hisoblangan ta'lim beruvchilar ta'lim sifatida yaxshilashga xizmat qiladigan, talabalarning mustaqil fikr yuritishiga undaydigan va ularning o'z ustida tinmay izlanishini ta'minlaydigan texnologiyalardan xabardor bo'lmog'i darkor.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davr ta'lim berish jarayonini ham tubdan o'zgartirishni, produktiv ta'lim tizimini texnologiyalarini o'rganishni va o'zlashtirishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga muvofiq, "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" degan norma mustahkamlab qo'yilgan [2]. Zamon talablariga javob beradigan har tomonlama yetuk fuqarolarni tarbiyalashda ham bu mas'ullik yanada aniq namoyon bo'ladi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning ham asosiy maqsadi, fuqarolar oldidagi ana shu mas'ullikni ta'minlash uchun xizmat qilmoqda [3].

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi shundaki, talabani ko'proq mehnat qilishga undash, unda mantiqiy fikrlashni, muammoli vaziyatni topishni va uni tahlil qilishni, ijodiy yondashish va izlanishni talab etadi. Bu holatni agar formula orqali ko'rsatadigan bo'lsak, quyidagicha: $O'J = M + O'F + BF$. Bunda $O'J$ – o'quv jarayoni, M – motiv, $O'F$ – talaba faoliyati, BF – o'qituvchining boshqarish faoliyati. Bu ta'limning asosiy g'oyasi **"kam kuch sarflab ko'p natija olish"**ga tayanadi.

Demak, kutilgan natija kafolatlanishi uchun pedagog produktiv ta'lim texnologiyalari va metodlari, vosita va yo'nalishlarini belgilab beradigan axborotlar bilan ta'minlanishi darkor.

Ta'lim texnologiyalarning ta'lim berish jarayoniga ta'siri va sifatini ko'tarishdagi o'rni haqida ko'plab pedagogik olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Yurisprudensiya fanlariga oid mavzularni o'qitishda ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishda alohida mazmun kasb etadi. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega [4]. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir [5]. Mazkur ilmiy asarlarida tadqiqotchilar produktiv ta'lim texnologiyalarining yagona maqsadi talabani mustaqil ta'lim olishga yo'naltirishda samara berishini ta'kidlaydilar.

Ma'lumki, hozirgi paytda mamlakatimizda yuridik kadrlar tayyorlash sifatini jahon standartlari talablari darajasiga ko'tarish maqsadida o'quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'liqligini, talabalarda tahliliy fikrlash, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish belgilab



qo‘yildi. Bundan tashqari, ta‘lim berishning zamonaviy shakllarini, jumladan “keys-stadi”, ilmiy prezentatsiyalar, jamoada ishlash va boshqalarni joriy etgan holda amaliy mashg‘ulotlar hajmini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga yuqoridagilardan tashqari, talabalarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda sifatli amaliyot o‘tashga jalb etish, nazariya bilan amaliyotni integratsiyalashtirishni nazarda tutmoqda.

Oliy o‘quv yurtlarida va yuridik texnikumlarda yuridik kadrlarni tayyorlashda kredit-modul o‘qitish tizimi keng joriy qilindi. Bu bo‘yicha hukumatning tegishli qarorlari qabul qilindi [6]. Kredit-modul o‘qitish tizimi ham produktiv ta‘limning asosiy turlaridan sanalib, u “Toshkent davlat yuridik universitetida ta‘limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq, ta‘lim oluvchiga yo‘naltirilgan, ta‘lim olish, ta‘lim berish va ta‘lim oluvchilar bilimini baholash jarayonlarining shaffofligi tamoyili asosida kreditlarni yig‘ish va o‘tkazishdan iborat tizimdir [7].

Ma‘lumki, kredit-modul tizimi, avvalo, talabalarda ko‘proq mustaqil o‘qish va izlanishni talab qiladi va natijada erkin fikrlashni shakllantiradi, qonun normalarining mag‘zini tushunib yetishlariga ko‘maklashadi. Bu o‘z navbatida zamon talabi darajasidagi yurist-

mutaxassis bo‘lib yetishib chiqishiga yordam beradi.

Talabalarda aynan huquqiy fanlarni o‘qitishda darslik, ilmiy-ommabop va qo‘shimcha adabiyotlar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta‘lim texnologiyalaridan, innovatsiyalar va produktiv ta‘limning ilg‘or xorijiy tajribalaridan foydalaniladi. Modulli ta‘lim texnologiyalarining o‘ziga xos jihati o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur (sillabus) tuziladi. Dastur o‘zida bilimga oid hamda kasbiy jihatlarni qamrab oladigan, talabada bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta‘lim dasturining tarkibiy elementi sifatida nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadigan alohida o‘quv fani (uning qismi yoki o‘zaro bir sohaga doir fanlar majmui)dir. Talabalar modul dasturi yordamida ko‘proq mustaqil va ijodiy ishlab mashg‘ulotlardan ko‘zlangan maqsadga, natijaga erishadilar. Bu imkoniyatlarni modul dasturlari ta‘minlab beradi. Modul dasturlari o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni hamda ularni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Modul papka mazmunida mavzu yuzasidan ma‘ruza, nazorat savollari,

prezentatsiyalar, test topshiriqlari, mavzuga oid normativ-huquqiy hujjatlar, keyslar, tavsiya etilayotgan tegishli adabiyotlar va boshqalar o'rin oladi. Modul dasturlarining didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonida o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

Shuning bilan birga, yuridik fanlarni o'qitishda ta'lim jarayonida tadbiiq qilinayotgan produktiv ta'lim texnologiyalari pedagoglar oldiga ham muhim talablarni qo'yadi:

Birinchidan, o'qituvchi pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish asosida qonunchilik normalari, nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganib borishi va ularni dars jarayonlariga tatbiq eta olishi ustida ishlashi kerak. Masalan, www.lex.uz, yurida.uz, norma.uz saytlaridagi normativ hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; interfaol darslar o'tish; rolli o'yinlardan (da'vogar, javobgar, prokuror, sudya, advokat, uchinchi shaxs, qonuniy yoki shartnomaviy vakil) maqsadli foydalanish, muammoli vaziyatlarda (aniq, noaniq, taxminiy sharoitlarda) mustaqil (strategik, operativ, taktik) qaror qabul qilishga o'rgatish va boshqalar nazarda tutilmoqda;

Ikkinchidan, zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, o'tiladigan fanning o'quv rejasi, dastur va uslublarni yangilab borishi lozim.

Dars mavzusining mohiyatidan kelib chiqib qanday turdagi produktiv ta'lim texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi lozim. Masalan, case-study, Blum taksonomiyasi va boshqalar. Masalan, yuridik fanlarni o'qitishda Blum taksonomiyasidan foydalanish ko'proq samara beradi. Chunki, u eslab qolish; tushunish; tatbiq qilish; tahlil qilish; baholash va yaratish kabi tuzilishga ega bo'lgan jarayon asosida qo'llaniladi. Aynan ushbu taksonomiya rivojlangan davlatlarda yuridik kadrlarni tayyorlash tizimida keng qo'llaniladi;

Uchinchidan, pedagog global internet tarmog'i, multimedia tizimlaridan foydalanib, ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishni bilishi lozim. Masalan, prezentatsiya, internet yangiliklar va turli qiziqarli statistik ma'lumotlar, muammoli videomateriallarni olib talabalar e'tiboriga yetkazish va ular bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak;

To'rtinchidan, pedagog dars o'tish mobaynida har 10-15 minutda talabalarni muloqotga chorlab turishi kerak. Ularni bezovta qilishi, mavzu bo'yicha o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirishlariga undashi va imkoniyat yaratib berishi lozim.

Yuridik fanlarni o'qitishda produktiv ta'lim texnologiyalaridan dars jarayonida ko'proq va samarali foydalanish, shuningdek, bu jarayonni kompyuter texnologiyalari asosida uyg'unlashtirish – ta'lim berishdan maqsad, ya'ni kutilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risida". // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
4. Спивак В.А. Организационное поведение и управление персоналом: Учебник. – СПб.: Питер, 2000. – С. 416.
5. Ишмухамедов Р.Ж. Инновационные технологии в учебно-воспитательном процессе военно-образовательных учреждений. – Т.: Издание Академии ВС РУ, 2011. – 110 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 10-iyun, 359-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2021 y., 09/21/359/0546-son
7. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-iyundagi 359-son qaroriga 1-ILOVA Toshkent davlat yuridik universitetida ta'limning kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2021-y., 09/21/359/0546-son

YEVROPA ITTIFOQI EKOLOGIK SIYOSATIDA MINTAQAVIY MUAMMOLAR

JO'RAYEVA

*Shohina Narzullayevna,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti tayanch doktoranti*

ANNOTATSIYA

Global ekologik tahdid insoniyat barqaror taraqqiyotini izdan chiqarmoqda. Atmosferaning issiqlashuvi natijasida Yer sharini ayrim mintaqalari suv ostida qolib ketadi. Boshqa mintaqalarda qurg'oqchilik yuzaga keladi. Yevropa Ittifoqi hozirgi sharoitda insoniyatni ekologik tahdidan asrash borasida peshqadamlik qilmoqda. Sharqiy Yevropa, xususan, Chernobil AESi bilan bog'liq ekologik vaziyat, shuningdek, Markaziy Osiyoda tabiiy o'zgarishlar bilan bog'liq muammolarni, yadro va boshqa sanoat chiqindilarini ko'mish, yo'q qilish, atmosfera issiqlashuvining olidini olishda amaliy hamkorlik qilmoqda. Maqolada ana shu muammolar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ekologiy, ekologik tahdidlar, tabiiy ofatlar, Markaziy Osiyoda tabiiy o'zgarishlar.

АННОТАЦИЯ

Глобальная экологическая угроза подрывает устойчивое развитие человечества. В результате потепления атмосферы некоторые районы Земли окажутся под водой. В других регионах бывает засуха. В настоящее время Европейский союз лидирует в защите человечества от экологических угроз. Установлено практическое сотрудничество в предотвращении экологических кризисов в Восточной Европе, в частности, экологическая ситуация, связанная с Чернобыльской АЭС, а также проблемы, связанные с природными изменениями в Центральной Азии, захоронением ядерных и других промышленных отходов, потепления атмосферы. В статье анализируются эти проблемы.

Ключевые слова: экология, экологические угрозы, стихийные бедствия, природные изменения в Центральной Азии.

ANNOTATION

The global environmental threat undermines the sustainable development of mankind. As a result of the warming of the atmosphere, some areas of the Earth will be under water. Drought occurs in other regions. The European Union is currently leading the way in protecting humanity from environmental threats. Practical cooperation

has been established in the prevention of environmental crises in Eastern Europe, in particular, the environmental situation associated with the Chernobyl nuclear power plant, as well as problems associated with natural changes in Central Asia, the disposal of nuclear and other industrial waste, and atmospheric warming. The article analyzes these problems.

Key words: ecology, environmental threats, natural disasters, natural changes in Central Asia.

Hozirgi dunyo jiddiy ekologik inqiroz jarayonini boshdan kechirmoqda. Global ekologik tahdid jahonda keskin o‘zgarishlariga sabab bo‘lmoqda. Ilmiy bashoratlarga ko‘ra, 2100-yillarga borib, Yer yuzida iqlim 1,4 daraja, XXII asr o‘rtalariga borib esa 5 darajaga oshadi. Oqibatda dunyo okeanida suv sathi 1 metrga ko‘tariladi¹. Bu o‘z-o‘zidan kishilik jamiyati barqaror taraqqiyotiga jiddiy xavf soladi. Ana shu umuminsoniyat tanazzuli mohiyatidan kelib chiqib, amerikalik olim P. Byukenen “Yaqin yillarda hozirgi sivilizatsiyaviy sharoitdagi raqamli inqilob o‘rnini ekologik inqilob egallaydi”, degan xulosaga keladi².

Jahon hamjamiyati rivojlangan davlatlardagi ilmiy-tadqiqot markazlari va yirik mutaxassislari umumplanetar muammoga aylangan atrof-muhitning o‘zgarishi, iqlimning issiqlashish jarayoni va ekologik inqirozga tegishli bo‘lgan qator muammolarni chuqurroq o‘rganishini kutmoqda. Dunyoning eng yirik ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa muassasalari insoniyatning buguni va istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan global ekologik tanazzulning siyosiy, huquqiy va ma‘naviy-axloqiy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni, davlatlararo va mintaqalararo ekologik munosabatlarni chuqurlashtirishni, uning institutsional tizimini takomillashtirishni, globallasuv sharoitida umumdunyoviy muammoga aylangan atrof-muhitni muhofaza qilish muammosini yaxshilik sari hal etishda ularning siyosiy faoliyatini uyg‘unlashtirishni, umumiy safarbarlik namunalarini ko‘rsatishini o‘rganishmoqda. Global barqaror taraqqiyot ko‘rsatkichlarini, indekslarini, mezonlari,

¹ Глобализация. – М.: РАГС, 2008. – С. 247.

² Бьюкенен П. Смерть запада. – М.: 2008. – С. 342.

talablari, usullari va uslublarini yirik davlatlar ilg‘or tajribalari va turli mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlarning siyosiy konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini aytishmoqda.

Yevropa Ittifoqi bu sohada dunyoda peshqadamlik qilmoqda. U global ekologik muammolarni hal etishning siyosiy konsepsiyasini ishlab chiqishda va uni insoniyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydigan muhim vosita darajasiga olib chiqishda katta tajribaga ega. Ittifoqqa a‘zo davlatlarning mintaqaviy ekologik muammoni hal etishdagi o‘zaro tushunish, munosabatlar uyg‘unligi, siyosiy qarashlar va pozitsiyalarning hamohangligi bevosita Yevropa Ittifoqining atrof-muhitni muhofaza qilishga doir siyosiy konsepsiyasi, harakatlar dasturi va mintaqaviy taraqqiyotga xizmat qiladigan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarga oid talablari asosida yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda ham ekologik muammolarni hal etish va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ekologiyaga doir davlat boshqaruvi yo‘lga qo‘yildi va uning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar insonning kundalik turmushiga va yalpi jamiyat manfaatlariga bog‘liq holda olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni³ bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabrda qabul qilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martda qabul qilingan “Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to‘xtatish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 15-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida zaharli kimyoviy va boshqa toksik moddalar ko‘milgan hamda saqlanayotgan maxsus ob‘ektlar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 18-yanvarda qabul

³ Qarang: “Yangi O‘zbekiston”, 2022-yil 29-yanvar.

qilingan “Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo‘yi hududlarida “Yashil qoplamalar” himoya o‘rmonzorlarning barpo etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari⁴, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma‘ruzasi global ekologik muammolarning umumplanetar ahamiyatini ochib berdi⁵. Shuningdek, atrof-muhitni himoya qilish kabi umuminsoniy muammolarni davlatlararo va mintaqalararo kesimida hal qilishning o‘ziga xos tamoyillarini o‘rtaga tashladi. Orol dengizi qurishining oldini olish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni hal qilish, “yashil hududlar”ni tashkil etish kabi masalalarini real va natijador yo‘llarini tavsiya etdi.

Hozirgi vaqtda ekologiyaga doir mintaqalararo hamkorlikka tizimli yondashmasdan turib, O‘zbekiston Ittifoqi tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik siyosatini ta‘minlash mumkin emas. Shuni qayd etish lozimki, so‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar tomonidan ko‘rilayotgan muhim chora-tadbirlarga qaramay, Yer sharidagi atrof-muhitning holati yaxshilanayotgani yo‘q. Yevropa hududi turlicha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo‘lgan 53 ta davlatni o‘z ichiga oladi. U yerda so‘nggi o‘ttiz yil mobaynida turli qarashlar va siyosiy manfaatlarga qaramay, bir qator davlatlarning Yevropa Ittifoqiga birlashish ishtiyoqi kuchaydi. Mazkur ittifoqqa a‘zo bo‘lmagan davlatlar ham o‘z qonun hujjatlarini YI hujjatlariga muvofiqlashtirishga harakat qilishayotir. Bu bevosita atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik siyosat bilan bog‘liq tamoyillarga ham tegishli.

2001-yili Shvetsiyaning Gyoteborg shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa Kengashining sessiyasida YIning barqaror rivojlanish sohasidagi Strategiyasi ma‘qullandi. Uning asosiy talabi qilib, har qanday qarorlarni ishlab chiqayotganda va qabul qilayotganda iqtisodiy va ijtimoiy omillar qatori ekologik omillarni ham hisobga

olish lozimligi belgilandi. Strategiyaning asosiy yo‘nalishi qilib iqlim o‘zgarishi, avtotransport ta‘sirining kamayishi, aholi salomatligining kafolati hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish YI faol ichki va tashqi siyosatning muhim tamoyili qilib belgilandi.

Iqlim o‘zgarishi sohasida YI ko‘p jihatdan Kioto protokoli doirasidagi muzokaralar natijalariga amal qiladi. Ayniqsa, AQSHning Kioto protokolidan 2001-yilda chiqib ketishi oqibatida YI uning qat‘iy talablarini mustahkam himoyalashga o‘tdi va unga qo‘shilgan davlatlarni ham protokolda zimmasiga yuklangan majburiyatlarni ijro etishga chaqirdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning zamonaviy tizimi boshqaruvning milliy va umummilliy uslublariga asoslanuvchi bir qator maxsus instrumentlarni o‘z ichiga oladi. Ular qatoriga qonunchilik, axborot, ma‘muriy, iqtisodiy va ekologik yo‘nalishlarni kiritish mumkin.

XX asrning 70-yillaridan boshlab atrof-muhit muhofazasi masalasi Yevropa hamjamiyati siyosatining ham milliy, ham umuminsoniy talablar va ehtiyojlardan kelib chiqib, jiddiy dolzarblik kasb etdi. Ekologik muammolar mintaqa davlatlari siyosatida shunchaki topshiriq-nazorat maqomidan voz kechib, siyosiy-tahliliy jihatdan aniq maqsadga yo‘naltirilgan siyosiy konsepsiya darajasiga chiqdi.

Mintaqada ekologik tanazzulning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillar qatorida quyidagilarni sanash mumkin: aholining yuqori darajadagi zichligi; hududda xo‘jalik yuritishning og‘ir oqibatlarga olib keladigan jarayonlari va nihoyat, ijtimoiy talab va ehtiyojning yuqori darajada oshganligi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muvozanatning murakkablashuvi. Ushbu holatlar zamonaviy sharoitda hozirgi sivilizatsiyaviy taraqqiyot nuqtayi nazaridan Yevropa Ittifoqida atrof-muhitni asrash orqali tabiat va inson xavfsizligini ta‘minlashda yangicha qarashlar va yondashuvlarni taqozo etmoqda. Bu o‘z-o‘zidan tabiiy landshaftlar degradatsiyasi, mezo va mikro ekotizimni muvofiq tarzda o‘zgartirishni, geokimyoviy jarayonlar, texnolitomorf o‘zgarishlar tufayli atrof-muhit muvozanatining, tabiiy holatining buzilishiga olib keladigan jarayonlarni tartibga solishni taqozo

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborotnomasi. 2022. №1.

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 245.

etmoqda. Ekologik holat buzilishining asosiy omillaridan biri dengiz akvatoriyalari tabiiy holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Bir qator eskirib qolgan texnologiyalar asosida ishlaydigan sanoat korxonalarini va ularning chiqindilari ayni ana shu suv havzalarini ekologik holatiga jiddiy xavf solmoqda. Kimyo sanoati, qora va rangli metallurgiya korxonalarini hamda ko'mir bilan ishlaydigan issiqlik energiya stansiyalari mintaqa tabiiy sofligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bu ayniqsa, Angliya, Fransiya, Polsha va boshqa bir qator mamlakatlarda yaqqol sezilmoqda. Kislotali yomg'irni yuzaga keltiradigan oltingugurt anhidridining sanoat chiqindisi sifatida havoga uchirilishi katta zarar keltirmoqda. Bu o'tgan asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida fan nuqtayi nazaridan o'rganilgan va aniq statistik ma'lumotlar bilan isbot qilingan⁶.

Masalan, "Torri Kanon" neft tankerining 1967-yilda yuz bergan halokati tufayli yuzaga kelgan ekologik fojea butun mintaqaga jiddiy ta'sir ko'rsatgandi. Fransiyaning shimoliy qirg'oqlarida juda keng hududda katta miqdordagi neftning suvda oqib ketishi, shved olimlarining xulosalariga ko'ra, million tonnalab baliq va boshqa mavjudotlarning nobud bo'lishiga sabab bo'ldi, yuzlab ko'llarning havo orqali chang sifatida uchib kelgan zaharli moddalar bilan qoplangani mintaqaviy global muammoga aylandi.

Daryolarga sanoat korxonalarini chiqindilari-ning oqizilishi natijasida ularning transport kommunikatsiya arteriyasi sifatidagi g'oyat samarali imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. O'tgan asrning oxirlarida Reyn, Dunay, Oder, Visla singari yirik daryolar bundan jiddiy zarar ko'rdi. Mutaxassislarining xulosalariga ko'ra Reyn daryosida Mendeleyev davriy jadvalidagi barcha elementlar aralash-quralash oqib ketmoqda. Rotterdam, Temza daryolaridagi London portlari suv havzasining keskin ifloslanishi oqibatida katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, o'simliklarni sun'iy oziqlantirish natijasida dala landshafti antropogeniga salbiy ta'sir etmoqda. Katta hajmda xavfli moddalarning atmosferaga chiqarilishi va suvga oqizilishi transchegaraviy daryolar tufayli turli ekologik muammolarning

kelib chiqishiga va mintaqa iqlimining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, bir qator mamlakatlar o'rtasida turli kelishmovchiliklar paydo bo'lmoqda. Jumladan, Germaniya, Polsha, Avstriya, Vengriya, Bolgariya va boshqa bir qator davlatlar ayni ana shu holatlardan katta ijtimoiy va iqtisodiy zarar ko'rishmoqda⁷. Ekologik muhitning yomonlashishiga olib kelgan omillardan yana biri aholida talab va ehtiyojning keskin oshishi bo'ldi. Maishiy chiqindilar hajmi keskin oshdi. Odamlarning yaxshi yashashga intilishi ularning ma'naviy va axloqiy imkoniyatlaridan ustun keldi. Natijada bu salbiy jarayonning oldini olish uchun turli jamoatchilik harakatlari, vatanparvarlik uyushmalari paydo bo'ldi. Mintaqada aholining o'zini o'zi asrashi, o'z hayotining shaffoflashishiga da'vat etadigan kuchlar, jamoat birlashmalari yuzaga kela boshladi. Bu Yevropa mintaqasida turli shakl va yo'nalishdagi ekologik harakatlarning, yalpi safarbarlikning o'ziga xos ko'rinishidir. Shuningdek, 1986-yili Ukraina shimolida joylashgan Chernobil atom elektrostansiyasida sodir bo'lgan portlash natijasida Sobiq Ittifoq hamda Yevropa mamlakatlari atmosferasiga juda katta miqdorda radioaktiv ifloslanish tarqalgan, bir necha millionlab insonlar salomatligi katta xavf-xatarga uchragan edi. Reaktordagi portlash natijasida nafaqat chegaradosh AES atrofiga, Ukraina, Rossiya va Belorusiyaga, balki bir necha yuz, hattoki ming kilometr masofadagi boshqa hududlar atmosferasiga ham havo oqimi orqali juda katta miqdorda yadroviy yoqilg'i zarralari tarqalgan. Eng ko'p zarar ko'rgan hududlar Ukraina (41,75 ming kvadrat kilometr), Belorussiya (46,6 ming kvadrat kilometr), Rossiyaning Yevropa qismi (57,1 ming kvadrat kilometr)⁸.

Halokatdan so'ng atrof-muhitga ikki xil turdagi zaharli moddalar – yoqilg'i zarrachalari hamda mayda aerezolli gaz kondensati tarqalgan. Radioaktiv aerezol asosan yomg'ir orqali Ukraina, Belarus hamda Rossiyaning Yevropa qismlariga tarqalgan. Yoqilg'i zarrachalari, asosan, 30 kilometrgacha bo'lgan hududni qamrab olgan. Buning natijasida juda uzoq muddatda yarim yemirilishga uchraydigan plutoniya radionuklidlari

⁶ Гусев А. Экологическая политика Евросоюза (электронный ресурс). – Режим доступа: <http://www.wpec.ru/>

⁷ Документы официального сайта по экологической политике Европы: //URL:www.ecoline.ru/

⁸ O'sha manba.

faqat Chernobil AES atrofidagi aholi yashamaydigan hududgagina xavf soldi. Stronsiy izotopli moddalar chiqindisi ham aholi yashaydigan hududdan ancha uzoqda tarqalgani insonlar taqdirini biroz bo‘lsada xavfdan xoli qildi. Biroq, shunga qaramay, AESdan ancha uzoqqa, shuningdek, Rossiyagacha yetib borgan zaharli moddalar ham ko‘p. Ular orasida yemirilishi 30 yilgacha yetadigan seziiy-137 ham bor. Ma’lumotlarda ushbu moddaning umumiy miqdori 85 PBk (petabekkerel)ga teng, deya keltirilgan. Shundan 19 PBk (22%) birgina Rossiya hududiga to‘g‘ri keladi⁹.

Ushbu fojea oqibatlarini imkon qadar tezroq bartaraf etishdan manfaatdor bo‘lgan hukumatlar tomonidan katta kuch safarbar etilgan. Bu borada xalqaro hamjamiyat, nodavlat tashkilotlar hamda keng jamoatchilik ham o‘z hissasini qo‘shdi. Shunga qarmay, fojea oqibatlari hali-hanuzgacha to‘la bartaraf etilgani yo‘q. Ukraina, Belarus hamda Rossiyaning janubiy qismi bilan chegaradosh hududining aksariyat tumanlarida hozirgi kunda ham radioaktiv zaharlanish kuzatiladi. Yevropa Ittifoqi YXHT a‘zosi sanalgan “Atrof-muhit va xavfsizlik” (ENVSEC) tashkiloti bilan hamkorlikda tadqiqotlar o‘tkazib mazkur hudud hozirgi kunda suv toshqinlari, qurg‘oqchilik hamda o‘rmon yong‘inlariga nisbatan o‘ta zaif bo‘lib qolganini aniqlagan. Bu kabi fojealar juda katta maydonni qamrab olib, insoniyat taqdiri, sog‘ligi, davlatlar iqtisodiyoti hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. ENVSEC tashabbusi bilan 2016-yili o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, Sharqiy Yevropaning 200 dan ortiq manfaatdor

⁹ Документы официального сайта по экологической политике Европы: //URL:www.ecoline.ru/

tomonlari Polese hududi iqlim o‘zgarishi natijasida eng zaif mintaqaga aylanib qolganini aytishmoqda¹⁰.

2016-yili Yevropa Ittifoqi Belarus va Ukraina hududlarida Chernobil halokati oqibatida yuzaga kelgan o‘rmon yong‘inlari ziyonini kamaytirish va zarar ko‘rgan aholi, atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha yangi loyihani boshladi. Zararlangan hududlarda yuzaga kelgan o‘rmon yong‘inlari yillar davomida o‘simliklar hamda organik qatlarga o‘rnashib qolgan radionuklidning yana ko‘tarilishiga olib keladi. Shamol yo‘nalishi va boshqa atmosfera shart-sharoitlari ta‘sirida ushbu radionuklidlar Chernobildan o‘tib, boshqa hududlarni ham zararlashi va bu yerlardagi aholi uchun ham sezilarli xatar tug‘dirishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi ayni paytda boshqa mintaqalar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan yagona osmon, yagona Yer shari taqdirini yaxshilik sari burishda katta ish olib bormoqda¹¹. O‘zbekiston va Qozog‘istondagi yadro chiqindilari omborlarini jiddiy nazoratga olish, ularning daryolar va suv havzalariga oqishi xavfini nazorat qilish, radioaktiv moddalarning atmosferaga chiqib ketmaslik choralari ko‘rishda katta yordam bermoqda. Uning 2050-yilga mo‘ljallangan dasturiga muvofiq Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokida atrof-muhitni asrash, atmosfera tozaligini ta‘minlash, ob-havoning iliqlashish jarayonining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun aniq manzilli mablag‘lar ajratmoqda.

¹⁰ O‘sha manba.

¹¹ Yevropa Ittifoqi Komissiyasining “Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlari bilan aloqalar to‘g‘risida Kommunikatsiya”si. O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi axborotnomasi, 2004. 14. – B. 7.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 245.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 464.
3. Бьюкенен П. Смерть запада. – Москва, 2008. – С. 342.
3. Бьюкенен П. Смерть запада. – Москва, 2008. – С. 342.
4. Гусев А. Экологическая политика Евросоюза (электронный ресурс). – Режим доступа: <http://www.wpec.ru/>
5. Yevropa Ittifoqi Komissiyasining “Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlari bilan aloqalar to‘g‘risida Kommunikatsiya”si. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi axborotnomasi, 2004. – B. 14.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI – FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHNING KONSEPTUAL G'OYASI

ZAMONOV
Zokir Turg'inovich,
O'zDJTU dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati rivojlanishining Sharq mutafakkirlari qarashlaridagi o'ziga xos talqini asoslab berilgan. Shuningdek, demokratik taraqqiyot, avvalo, insonlar erkinligi, manfaatlari va haq-huquqlarining, bir so'z bilan aytganda, davlat mezonlarining amal qilishiga bog'liqligi Sharq mutafakkirlari nazariy qarash va g'oyalari orqali ochib berilganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, Sharq, ma'naviy-axloqiy muhit, rivojlanish, adolat, mutafakkir, ma'rifat.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена уникальная интерпретация развития крестьянского общества, основанная на взглядах восточных мыслителей. Также обосновано, что демократическое развитие, прежде всего, зависит от реализации свобод, интересов и прав людей, словом, критериев государства, раскрываемых через теоретические воззрения и идеи восточных мыслителей.

Ключевые слова: гражданское общество, Восток, духовно-нравственная среда, развитие, справедливость, мыслитель, просвещение.

ANNOTATION

In this article, a unique interpretation of the development of the peasant society based on the views of Eastern thinkers is presented. Also, it is based on the fact that the democratic development, first of all, depends on the implementation of the freedom, interests and rights of people, in a word, the criteria of the state, revealed through the theoretical views and ideas of Eastern thinkers.

Key words: civil society, East, spiritual and moral environment, development, justice, thinker, enlightenment.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat pirovard maqsad, ayni paytda biz yashab turgan jamiyat mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. Shu ma'noda jamiyatda yashab unga nisbatan apatiyaga uchramaslik, tushkunlik kayfiyatini bartaraf etish, e'tiborsizlikdan xoli bo'lish, doimo sergak, shijoatli bo'lish O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun katta mas'uliyat va o'zi-o'ziga nisbatan talabchanlikni yuklaydi.

Ma'lumki, shaxs kamolotining muhim omillaridan biri ma'naviy-axloqiy muhitdir. Ma'naviy-axloqiy muhit qanday bo'lsa, shaxsning xarakter xususiyatlari shunday ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatni anglash va rivojlantirish asosida mamlakatda barqarorlashib borayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga xos munosabatlarning yangicha, mustahkamlangan ko'rinishi shakllantiriladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omillari ichida shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatleri alohida o'rin tutadi. Bunday o'ziga xoslikning asosiy sababi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga erishish o'z navbatida ma'naviy-axloqiy kategorial tafakkurni talab qiladi. Shu ma'noda “Kuchli mamlakatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” g'oyasiga asoslangan holda mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil davom ettirish bugungi kundagi ustuvor vazifa, deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev¹.

Bugungi kundagi eng dolzarb muammo hamda vazifalardan biri, bu inson va uning ma'naviy qiyofasi, ma'naviy kompetentlikka ega bo'lishi hisoblanadi. Demokratik taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi xalqimizning sharqona fazilatlarini, tafakkuri va sharqona turmush tarzidan kelib chiqadi.

Agar uzoq o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, miloddan avvalgi XVIII asrda Bobil

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. 1-tom. – B. 58.

podshosi Xammurabi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar majmuyi huquqiy hujjat bo'lsa-da, uning zamirida ma'naviy-axloqiy fazilatlar – adolatni qaror toptirish yetakchilik qiladi. Xammurabi bu qonunlarni mamlakatda haqiqatni qaror toptirish, jamiyatda adolat o'rnatish, yetim-yesirlar va beva-bechoralarga himmat, rahm-shafqat ko'rsatish maqsadida joriy etganini ta'kidlaydi².

Sharqda azaldan jamiyatda ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish negizida inson axloqi, odobi, imon-e'tiqodi, mehr-muhabbat va ma'rifatini yuksaltirish maqsadi yotgan. Bunday yondashuvni Sharq olimlari, xususan, Markaziy osiyolik allomalar asarlarida kuzatish mumkin.

Sharqning yetakchi olimlari adolat, ezgu amallar va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini barcha podshoh ham, fuqarolar ham o'zida shakllantirishi, ularga intilib va amal qilib yashashi zarur, degan fikrni ilgari surib bu maqsadlarni ijtimoiy-axloqiy me'yor darajasiga ko'taradilar. Ushbu me'yorlar Sharq xalqlarining mentaliteti, turmush tarzi va e'tiqodiga aylanganiki, bugun ularsiz demokratik taraqqiyotni tasavvur qilish qiyin³. Qadimiy Sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan hamda o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va xatti-harakatlari erkinligi ta'min etilgan edi. Bular ayni demokratlashtirishning muhim va asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududlarida fuqarolik jamiyatini yuzaga keltiruvchi omillar, mezonlar o'zgacha talqinini topgan. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Misol uchun, Sharq donishmandi Konfutsiy davlatni adolatli boshqarishda hukmdorning qanday yo'l tutishi lozimligini ta'kidlaydi. Buning uchun “besh bebaho sifat” zarur deb ko'rsatadi. Ular ezgulikka isrofgar bo'lmaslik, mehnatga majbur eta turib nafrat uyg'otmaslik, istaklarga ziqna qilmaslik, ulug' bo'laturib, mag'rurlik qilmaslik, hurmat uyg'ota turib bag'ritosh bo'lmaslikdan iboratdir⁴.

² “The Code of Hammurabi” is from Robert F. Harper, trans., The Code of Hammurabi (Chicago: University of Chicago Press, 1904).

³ *Qarang:* Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. / O'zbekiston Respublikasi FA, I.M. Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – T.: O'zbekiston, 2007. – B. 34-40.

⁴ *Qarang:* Alimasov V. Konfutsiy va Sharq davlatchiligi. I.M. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – T.: Falsafa va huquq, 2006. – B. 21.

Shuningdek, Konfutsiy qarashlarining bosh g‘oyasi hukmdorlarni xalq va jamiyat rivoji uchun fidoyi bo‘lishga da‘vat etishdan iborat bo‘lgan. Uning uchun “dao” (“haq yo‘li”) insonlar va ularning farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish, ular mehnatidan foydalanishda adolatga amal qilishdir⁵. Jamiyatda adolat ustunlik qiladigan bo‘lsa fuqarolarning ma‘naviy-axloqiy qarashlari ham shunga mos ravishda rivojlana boshlaydi. Ma‘naviy-axloqiy qarashlari, umuman, axloq me‘yorlariga amal qilgan kishi adolat tamoyillarini ham puxta o‘zlashtirib olgan bo‘ladi.

Faylasuf olim V. Alimasovning ta‘kidicha: “Konfutsiychilikda jamiyat va davlatni boshqarish inson (podshoh, hukmdor, amaldor) ning o‘zini-o‘zi axloqiy-ma‘naviy tarbiyalashiga, takomillashtirishiga bog‘liq degan gumanistik g‘oya, yondashuv ilgari suriladi”⁶.

Sharq allomalaridan Abu Nasr Forobiy jamiyatga ta‘rif berar ekan, “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi⁷, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘noda ozod bo‘ladilar. Biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi” deydi. Forobiy adolat tarozisi ustun bo‘lgan jamiyatni ma‘rifatli hukmdor boshqarishi lozimligini uqtiradi. Bu jihat aynan Aristotelning jamiyatida adolat tarozisi ustun bo‘lishi natijasida erkinlikning yuzaga chiqishi haqidagi qarashlarining sinonimik aksidir.

Qomusiy olim Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiy munosabatlar odamlar o‘rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasidir. Ideal davlat qurish jamiyat aholisining ma‘naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog‘liq. Uning fikricha, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta‘minlaydi. “Sen o‘z qo‘l ostingdagilarni turtib tashlama, ular bilan do‘stona, hurmat-e‘tiborga asoslangan munosabatni o‘rnat. Zero, ular ham bu dunyoga inson sifatida kelganlar”, deydi alloma. Tabiiyki,

⁵ Utamuradov A. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyutsiyasi: monografiya. – T.: Adabiyot uchqunlari. 2018. – B. 13.

⁶ Alimasov V. Konfusiylilik va Sharq davlatchiligi. – T.: Falsafa va huquq, 2006. – B. 53.

⁷ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. 1993. – B. 190.

bu davrda Sharqda ijtimoiy adolat, ma‘rifat va tenglik nazariy me‘yor bo‘lishi bilan bir qatorda, amaliy hayot me‘yori, jamoa bo‘lib yashashning asosiy sharti sifatida tushunilgan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning adolat va ma‘rifat yo‘li tanlangan. Aynan shu bois, adolat va ma‘rifat ma‘naviy institutlashuvga asos bo‘lgan. Ma‘naviy institutlashuv esa – qadriyatlarga aylangan, uzoq yillar davomida xalqning, millatning turmush-tarzi ifodalab, ularni ezgulik yo‘lida birlashtirishga xizmat qiluvchi negizlarning tizimlashgan shaklidir.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” hamda “Hindiston” asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan. U, jamiyat paydo bo‘lishining bosh sabablaridan biri – odamlarning o‘zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji hamda intilishlari natijasi, deb baholaydi. Shuningdek, adolatli jamiyatni qurishda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanish lozimligi aytib o‘tiladi.

Bizning nazarimizda, yillar o‘tgan sari har qanday ko‘rinishdagi davlat va jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohada, bir tomondan, ushbu sohalarga oid bilim va tajribalarni shakllantirib borsa, ikkinchi tomondan esa, ularni xalqning mentaliteti, turmush tarzi bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlab borishga harakat qilgan.

Bu borada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asarida pand-nasihatlar, ta‘lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk didaktik asar sifatida e‘tirof etish mumkin. Adabiyotshunos olim B. To‘xliyevning ta‘kidlashicha, Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida “Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko‘rsatib o‘tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o‘z manfaatlarini, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g‘ami bilan yashashi, ko‘pchilik manfaati uchun fidoyi bo‘la bilishdir”⁸. Vaholanki, ko‘pchilik manfaatini ustun qo‘yish jamiyatning tenglikning asosiy sharti hisoblanadi. Bunday muhitda jamoaviy manfaatdorlik har qanday jarayonlarda o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatib keladi.

⁸ Tuxliev B. Xos Yusuf Xojibning “Kutadg‘u bilig” asariga so‘z boshi. Nashrga tayyorlovchi Kayum Karimov. – T.: Fan, 1971. – B. 6.

Yusuf Xos Hojib davlat boshqaruvi shamoyilini o'ziga xos tarzda tasniflab beradi. Jumladan, "Shohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish uquvi bilan ham siylaydi", deb ta'kidlagan. Yana u shunday yozadi: "Kimning odobi yaxshi va axloqi to'g'ri bo'lsa, u kishi maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi"⁹, chunki "yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir". Yusuf Xos Hojib ilm va ma'rifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab-yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga da'vat etadi¹⁰.

Har qanday jamiyatda adolat mezonlarini amal qilinsa, u jamiyatda tartib va fuqarolar manfaatlari mushtarakligi o'z o'zidan ta'minlanib boradi. Bu xususda, Sharqning buyuk mutafakkiri Husayn Voiz Koshifiy "Agar adolat himoya qilinmasa, zaif va kuchsiz odamlar yo'qolib ketadi. Modomiki, zaiflar qirilib ketar ekan, kuchlilar ham omon qolmaydi. Chunki kishilar turmushi bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Xullas kalom, xalqning ahvoli adolatga bog'liq bo'lib, usiz yaxshilanmaydi"¹¹, degan edi. Husayn Voiz Koshifiy qarashlarida adolatning ustunligi, jamiyatning rivojlanishi insonlarning ilm-ma'rifati orqali yuzaga kelishini uqtiradi.

Ibn Havqalning "Kitob surat ul-ard" asaridagi "Hukmdorlar va boshqaruv tizimi" deb nomlangan 7-bobida "Har safar [tarqatiladigan] nafaqalarning yig'indisi besh ming dirhamni tashkil etadi, to'rt marta [tarqatiladigan] nafaqalar yig'indisi esa bir marta yig'iladigan xirojga teng bo'ladi. [Odamlar] esa, buni ochiq ko'ngillik, quvonch, qalb shodligi va ochiq xursandchilik bilan, o'zlariga nisbatan adolatli munosabatdan to'la mamnun ravishda amalga oshiradilar. ...Bu hol ra'iyatga nisbatan adolat, oddiy xalqqa nisbatan haqqoniylik va hokimlar qo'liga [katta] mas'uliyat [tufayli]dir"¹², deb bayon qilingan. Aslida ham, agar jamiyatda adolatli boshqaruv

tizimi o'rnatilgan bo'lsa, jamiyat a'zolari ham undan xotirjam, o'zaro ishonch va ijtimoiy munosabatlar tartibi yetakchilik qilishini kuzatish mumkin.

Qolaversa, X–XI asrlarda yashagan siyosatchi va huquqshunos olim (basralik, bu haqda shogirdi Xatib Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod" asarida qayd etgan) Abulhasan Ali ibn Muhammad bin Habib Movardiy¹³ning (973–1058-yy.) "Al-Ahkom as-sultoniyya" musulmon Sharqi davlat boshqaruvi huquqi bo'yicha muhim manba" deb ataladi. "Al-Ahkom as-sultoniyya"da bayon etilgan saltanatni boshqarish ta'limoti musulmon Sharqining boshqaruvida hukmdor sulton faoliyatiga oid qoidalar, ish yuritishni yo'lga qo'yish, mansabdorlar iyerarxiyasi, vakolatlari, majburiyatlari, saltanat tuzish tartib-qoidalari, ish yuritishga oid huquqlar ishonchli dalillar, jumladan, oyat va hadislar bilan asoslangan.

"Al-Ahkom as-sultoniyya" davlatchilik tarixiga oid umumbashariy qimmatga ega manbalardan biri sifatida baholanishga munosibdir. Zero, Movardiyning merosi umuman musulmon Sharqi, jumladan, Xuroson va Movarounnahrda ilm-ma'rifatning ravnaqi, islom ta'limotida ulug'lanadigan insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi qadriyatlarining qaror topishiga asrlar davomida xizmat qilib kelgan¹⁴.

Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" asarida odamlarda ijtimoiy-axloqiy sifatlarni shakllantirish orqali fuqaro va davlat, sinf va tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish mumkinligi ta'kidlanadi¹⁵. Nizomulmulk, o'z navbatida, boshqarish «odamlardan biriga» berilishini, turli boshqaruv pog'onalari bo'lishini yoqlagan holda, davlat, shoh har kimni iqtidoriga yarasha vazifa bilan ta'minlashi, raiyatni (xalqni) nohaqlik va zo'ravonlikdan muhofaza qilishi, adolatni qaror toptirishini zarur, deb bilgan¹⁶.

¹³ Jo'rayev Z. Al-Movardiyning "al-Ahkom as-sultoniyya" asari – musulmon Sharqi davlat boshqaruvi tarixiga oid muhim manba (XI asr). // Tarix fan.bo'y.fals.dok. (Phd) diss.avtoref. – T.: - B. 13-14.

¹⁴ Qarang: Jo'rayev Z. Al-Movardiyning "al-Ahkom as-sultoniyya" asari – musulmon Sharqi davlat boshqaruvi tarixiga oid muhim manba (XI asr). // Tarix fan.bo'y.fals.dok. (Phd) ...diss.avtoref. – T., 2019. – B. 17-21.

¹⁵ Qarang: Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk. – T.: Adolat, 1997.

¹⁶ Musayev F. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. Fals. fan.dokt. ...diss. – T.: 2008. – B. 35.

⁹ Yusuf Xos Hojib Kutadgu bilig. – T.: Fan, 1971. – B. 329.

¹⁰ Kamolova K. Ma'rifatli jamiyat qurishda sharq allomalari merosidan foydalanish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – T., 2022. – B. 181.

¹¹ Qarang: Voiz Koshifiy. Axloqi muxsiniy. (fors tilida) O'zR FA. Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. Inv. № 3020.

¹² Qarang: Ibn Havqal "Kitob surat ul-ard" (Movarounnahr) arab tilidan tarj., izohlar muallifi Sh.Kamoliddin. – T.: O'zbekiston miliy entsiklopediyasi 2011. – B. 23.

Xususan, uning boshqaruvchilarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat va intizom, ijro haqidagi qarashlari jamiyatni adolat prinsiplarini ta'minlashda muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining yashovchanligi, xalqchilligi, hayotiyliigi va samaradorligi o'sha davlat boshqaruvchisining xatti-harakatlari hamda davlatdagi huquqiy me'yorlarning qay darajada amal qilinishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, Amir Temur davlatchiligi ikki asosga o'rnatilgan edi: bu diniy va dunyoviylik. Diniy ahkomlar bir tomondan, ikkinchi tomondan esa, kuch, adolat va qonun ustuvorligini kuzatish mumkin. Uning davlat boshqaruvida dinga, xususan, Qur'oni karim, hadislar, bu eng avvalo, ma'naviy negizlar insonlarni bir-birga yaqinlashtiruvchi, mehr-muhabbatli, sadoqatli, mehmondo'st bo'lishga chorlovchi axloqiy tamoyillar ustunlik qilgan.

Bundan ko'rinadiki, buyuk Temur adolatli va fozil boshqaruvga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur davri mafkurasining bunyodkorlik kuchi hamda Sohibqironning bevosita amaliy sa'y-harakati va rahnamoligi tufayli mamlakatda fan, madaniyat, san'atning ko'p sohalari gurrakib taraqqiy topdi. Ma'naviyatda yuksalish bo'ldi¹⁷. Amir Temur o'z davri adolatni yoqlab chiquvchi shaxs, ijtimoiy-ma'naviy sohalarida yuksalish amalga oshirgan hukmdor sifatida ko'plab manbalarda tilga olinadi. Hatto, "Temur tuzuklari"dan shu jihat anglashiladiki, sayyidlar, ulamo, mashoyix, o'z davri olimlarini yuksak qadrlab, izzat-hurmatlarini o'rniga qo'ygan.

Bir gap bilan aytganda, Amir Temur tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari, davlatdagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarni shakllantirish taomillari, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, davlat xizmatchilarini tashkil etish ularni faoliyatini rag'batlantirib borish yo'llari va talablarini o'ta tadbirli qilib tasiflab bergan, deyish mumkin.

"Tuzuklar"da yozilishicha, saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash bilan, qolgan bir ulushi esa, kuch yordamida amalga oshirilgan. Bu

¹⁷ G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – B. 28.

o'rinda kengash deganda, adolatga erishishning eng muhim samarali omili bo'lgan, saltanatda boshqaruv institutlaridan biriga aylangan ijtimoiy falsafiy tushuncha haqida gap bormoqda. Bu tushuncha o'z navbatida davlat boshqaruv institutlari bo'lgan qurultoy, kengash kabi siyosiy tadbirlarning davlat va jamiyat hayotida tutgan mavqeyi, ta'siri nechog'lik ahamiyatga ega ekanini belgilab beradi¹⁸. Bundan ko'rinadiki, Amir Temur kuchli siyosatchi sifatida davlat yuritish tamoyillarini bilgan va bundan oqilona foydalangan.

Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Sohibqironning yuksak insoniy kechinmalari, uning uzoq va mashaqqatli yurishlari, zafarli janglari, siyosiy, madaniy yoki ma'rifiy ishlarining natijasi – uning adolat egasi sifatida gavdalaniriladi.

O'sha davrning yirik mumtoz namoyandalaridan biri – mutafakkir Alisher Navoiy adolatli jamiyatga erishish uchun insonlar ma'rifatlil, ilmli bo'lishi zarur ekanini ta'kidlaydi. U adolatli rahbarning ish uslubi va ma'naviy-axloqiy qiyofasini tasvirlab beradi. Insonlar hayotidagi eng afzal tomonlaridan biri – yaxshilik yo'lidagi o'zaro yordamdir. U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Xususan, uning "...davlat ishi bilan mashg'ul amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odatlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim"¹⁹, degan mulohazasi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. U adolatli jamiyatga erishishda nafaqat podshohning odilligi, balki fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning adolatli, ma'nan sog'lom bo'lishi lozimligiga e'tibor qaratadi: "oilamda bo'lmish har nav odam bilan ko'rishdim; katta-kichikning fe'l-atvorini o'rgandim; yaxshilik va yomonlikning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Baxil va

¹⁸ Qilichyev A. Amir Temurning davlat boshqaruvida adolat falsafasi. Ma'rifatlil jamiyat qurish jarayonida Sharq mutafakkirlari ilmiy-ma'naviy merosining ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – T.: 2022. – B. 247.

¹⁹ Navoiy A. Mahbub ul-Qulub. – T.: F.Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 12.

pastkashlarning zahmini, sahovatli kishilarning malhamini ko‘nglim darhol sezadigan bo‘lib qoldi”²⁰. Mavlononing e’tiroficha, jamiyatda adolat ustuni mustahkam o‘rnashgan bo‘lishi kerak. Shundagi jamiyat a’zolarining qarashlari turmush tarzi ham ma’naviy-axloqiy jihatdan mukammallashib boradi.

Bundan tashqari, keyingi davrlarda ham ma’rifatli jamiyat, faol fuqarolardan iborat jamiyatni tuzish g‘oyasi Sharq mutafakkirlari asar va qarashlarida birlamchi masala sifatida qaralib kelindi.

Misol uchun, Ahmad Donishning asarlarida bayon etilgan fikrlar, avvalambor, davlatchilik huquqini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlarga erishish, inson manfaatlariga birinchi darajali ahamiyat berish uchun tashqi va ichki siyosatda muhim o‘zgarishlar yasab, mavjud tuzumni ma’rifat bilangina isloh qilishga qaratilgan edi. Ahmad Donishning serqirra hayotiy tajribasi mahsuli hisoblangan “Navodir-ul-vaqoye” (“Nodir voqealar”) asari allomaning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, tabiiy-falsafiy yo‘nalishga oid teran qarashlari hamda keng dunyoqarashini anglashda muhim o‘rin tutadigan qomusiy asar hisoblanadi²¹.

²⁰ Komilov N. Navoiy va zamonamiz. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2001. Fevral soni. – B. 10.

²¹ Qarang: I.Naimov Ahmad Donishning ma’rifatparvarlik faoliyati va uning ilmiy merosi. // Tarix fan.bo‘y.fals.dok.

Ya’ni, uning bu asari, o‘z zamonasining ilm-fan rivojlantirish orqali yosh avlodni Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik, dunyoviy ilmlarni egallash va yaxshi xulqli etib tarbiyalashni ta’kidlashi, buguni kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Uning qarashlarida ilm va fanni chuqur o‘zlashtirgan fuqaro jamiyatda o‘zgarish yasaydi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga sababchi bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rish mumkinki, jamiyat tarixi, ijtimoiy kelib chiqishi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va to‘la qaror topishi, demokratik jamiyat talablarining ishlab chiqilishi va amal qilishi, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotining erkinlashtirish talabi va uning nazariy asoslari Sharq mutafakkirlarining qarashlarining dasturulamali bo‘lib xizmat qilgan va bu qarashlar bugun kunda ham jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy-axloqiy asoslari bilan ham bog‘liq ekanligi o‘zining isbotini topib bormoqda.

Ayni shu ma’noda, adolatli jamiyatdagina ma’naviy-axloqiy muhit barqarorlashib boradi, ma’naviy asoslar yuksak qadrlanadi. Zero, adolat jamiyat yuritish tartibi va fuqarolarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantiruvchi, o‘rni kelganda, tartibga soluvchi kuchga aylanadi.

(PhD) ...diss.avtoref. –T.: 2022. – 54 b. -B. 15-16.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. 1-tom. – B. 58.
2. “The Code of Hammurabi” is from Robert F.Harper, trans., The Code of Hammurabi (Chicago: University of Chicago Press, 1904).
3. Qarang: Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. / O‘zbekiston Respublikasi FA, I.M.Mo‘minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – T.: O‘zbekiston, 2007. – B. 34-40.
4. Qarang: Alimasov V. Konfusiy va Sharq davlatchiligi. I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – T.: Falsafa va huquq, 2006. – B. 21.
5. Qarang: Ibn Havqal “Kitob surat ul-ard” (Movarounnahr) arab tilidan tarj., izohlar muallifi Sh.Kamoliddin. – T.: O‘zbekiston miliy entsiklopediyasi 2011. – B. 23.
6. Jo‘rayev Z. Al-Movardiyning “al-Ahkom as-sultoniyya” asari – musulmon Sharqi davlat boshqaruvi tarixiga oid muhim manba (XI asr). // Tarix fan.bo‘y.fals.dok. (Phd) diss.avtoref. – T.: - B. 13-14.
7. Qarang: Jo‘rayev Z. Al-Movardiyning “al-Ahkom as-sultoniyya” asari – musulmon Sharqi davlat boshqaruvi tarixiga oid muhim manba (XI asr). // Tarix fan.bo‘y.fals.dok. (Phd) ...diss.avtoref. – T., 2019. – B. 17-21.
8. Qarang: Nizomulmulk, Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk. – T.: Adolat, 1997.
9. Musayev F. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. Fals.fan.dok. ...diss. – T.: 2008. – B. 35.

**SIYOSIY YETAKCHI
IMIJINING
TAKOMILLASHUVIDA
IMIJMAYKERLAR
XIZMATIDAN
FOYDALANISHNING
AHAMIYATI**

QOLQANOV

*Nuriddin Tashpulatovuch,
X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazining
Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot
instituti direktori*

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy jamiyatlarda siyosiy yetakchilarni tayyorlashda hamda ular siyosiy imiji shakllanishi va tokimillashuvida imijmeykerlar xizmatining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: siyosat, siyosatchi, siyosiy yetakchi, imij, imijmeyker, siyosiy imij, saylov, elektorat, imijni shakllantiruvchi ma'lumotlar.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение службы имиджмейкеров в подготовке политических лидеров в современных обществах, а также в формировании и совершенствовании их политического имиджа.

Ключевые слова: политика, политик, политический лидер, имидж, имиджмейкер, политический имидж, политический процесс, выборы, электорат, информация, формирующая имидж.

ANNATATION

The article analyzes the importance of the service of image makers in the training of political leaders in modern societies, as well as in the formation and improvement of their political image.

Key words: politics, politician, political leader, image, image maker, political image, political process, elections, electorate, image-forming information.



Mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston poydevorini qurish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida, siyosiy yetakchi imijini shakllantirish, targ‘ib qilish va undan foydalanish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda imijlar tadqiqi bilan shug‘ullanadigan imijeologiya fani rivojlanib bormoqda. Imijeologiya – bu turli xil bilim va ko‘nikmalar tizimi bo‘lib, psixologiya, politologiya, etika, sotsiologiya, ritorika, pedagogika, dizayn kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Biroq, eng muhimi, imijeologiya shaxsiy imij texnologiyasini loyihalash va undan samarali foydalanish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Imijni shakllantirish bo‘yicha mutaxassislar imijmeykerlar deb ataladi.

Imijmeyker bu imijlar yaratuvchisi, bunyodkori hisoblanadi. Nazariy jihatdan esa imijmeyker imiji moslashtiriladigan eng optimal modelning muallifi va ishlab chiquvchisidir. Amaliyotda esa bir vaqtning o‘zida u siyosatchi, tuzilma bilan ishlash jarayonida ushbu modelni hayotga tatbiq etuvchi hamda ommaviy axborot vositalari orqali natijani, ya‘ni imijni tarqatuvchi hamdir. Tadqiqotchi V.Shepelning fikricha, imij bu “insonning eng yaxshi shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini namoyon etish, kundalik muloqotda qulaylik yaratish, optimistik kayfiyatni yaratish imkonini beruvchi lupa turi”¹.

Mutaxassislar fikricha, imijmeykerlar qobiliyatli nomzod qo‘shimcha ravishda 15–20% ovozga ega bo‘lishiga yordam berishi mumkin. Ayrim hollarda bu ko‘rsatkich 80% gacha ham yetishi mumkin. Biroq, shuni hisobga olish lozimki, agar nomzod xarizmatik shaxs bo‘lmasa, hech qanday imijmeyker

yordam bera olmaydi. So‘nggi jumlagi qo‘shilmaymiz. Chunki kuchli xarizma mavjud bo‘lsa, imijmeykerlarning ham keragi yo‘q. Odatda, xarizmatik xususiyatlar mavjud bo‘lmasa yoki sust bo‘lsagina imijmeykerlar xizmatidan foydalaniladi. Aynan mana shunday murakkab vaziyatlarda ular samarali foyda keltirishi mumkin.

Ko‘plab siyosiy imijmeykerlar tarixan tijorat reklamalaridan kelib chiqqan. Birinchi marta professionallarga respublikachilar partiyasi 1952-yili AQSHda D.Eyzenxauer saylovoldi kampaniyasi vaqtida murojaat etgan. O‘shanda T. Rivz nomzod ishtirok etgan 49 ta rolik yaratgan. Har birida biron-bir AQSH shtatining vakili D. Eyzexaueriga savol berar edi. Javobda esa nomzodning faoliyatiga alohida urg‘u berilardi. Rivzning tavsiyalariga ko‘ra D. Eyzexauer o‘z chiqishlarining vaqtini qisqartirgan, “shpargalkalardan” foydalanmagan, o‘z yoshini aytmagan. Partiya budjetida birinchi bor imijmeykerlarga mablag‘ ajratilganligi qayd etilgan. Shu sababli, ko‘pchilik insonning, shu jumladan siyosiy rahbarning sun‘iy qiyofasini yaratish kerak degan xulosa kelishadi, chunki bu korporativ zinapoyaga ko‘tarilish, muvaffaqiyatli rahbar bo‘lish yoki boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Imijmeyking – siyosiy PRda ingliz tilidan tarjima qilinganda imij yaratishdir. Bu jarayonda siyosiy imij asosiysidir. U auditoriya ongida professional imijmeykerlar tomonidan yaratiladigan insonning tasavvuridagi qiyofasidir. U nafaqat reallikning aksi sifatida ongning psixik qiyofasi, shu bilan birga bu aksning alohida modellashtiriladigan, maqsadli aksidir. Ya‘ni qandaydir reallik asosida professional tomonidan yaratiladigan sun‘iy qiyofa, modelning aksidir. 4 ta tarkibiy

¹ Шепель В.М. Имиджелогия: как нравиться людям. – М.: Издательство Народное образование, 2002. – С. 576.


qismga ega: 1. Birlamchi ma'lumot; 2. Auditoriya tasavvurlari asosida yaratilgan model; 3. Tarqatish.

Siyosiy imijni maqsadli shakllantirish ko'p vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, uni endi nomzodning yolg'iz o'zi emas, balki ixtisoslashgan agentliklar amalga oshirishi mumkin. Professional imijni shakllantiruvchilar ta'kidlashicha, ular odamlarning nomzod haqidagi g'oyasini qayerga va qancha o'zgartirish kerakligini aniqlaydi va shunga mos ravishda axborot siyosati jarayonini modellashtiradi. Bu borada tadqiqot olib borgan O. Feofonovning fikriga ko'ra, "imijmeykerlarning sa'y-harakatlari qobiliyatli nomzodga o'rtacha 15–20% qo'shimcha ovoz keltirishi mumkin. Ba'zida balki 80% ham"². Imijmeykerlarda reklama, axborot kampaniyasi, qarshi targ'ibot, mish-mishlar, g'iybat va hokazolarning maxsus guruhi mavjud. Siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etayotgan har bir siyosatchi muayyan

orqali rasmiy saylov kampaniyasining qisqa davrida siyosatchi imijini shakllantirish va reklama qilishga urinishlar ajralib turadi. Biroq, bu turdagi muvaffaqiyatli pretsedentlar istisno hol hisoblanadi. Imij yillar, kerak bo'lsa o'n yillar davomida shakllanadi. Shu bois, imijmeykerlarning istiqbolli siyosatchilar bilan uzoq muddatli ishlashi (maxsus til, siyosiy-psixologik va boshqa treninglar) saylovoldi tashviqoti strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib ko'rinadi.

Siyosiy yetakchi imijini yaratish bilan shug'ullanadigan bir qator mutaxassislar va imijmeykerlar quyidagilarni ta'kidlashadi:

- hech qachon nomzodning xarakteriga mos bo'lmagan imijni tanlamang;
- imijni tanlaganingizdan so'ng, unga e'tiborli bo'ling, ya'ni imijning yaxlitligini esda tuting;
- imij o'z vaqtida yangilanishi kerak, ya'ni har bir yangi saylovda – avvalgilarini saqlab qolish va yangi elektoratni jalb qilish.



natijaga erishish uchun bunday mutaxassislarning yordamidan foydalanishi lozim bo'ladi. Bu orqali siyosiy rahbar imijini yaratishni PR vositalari va aloqa kanallaridan foydalangan holda to'g'ri tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy siyosiy jarayonda siyosatchi imijini shakllantirish uchun eng maqbul vaqt qancha degan savol dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy siyosiy jarayonda muhim resurslardan, birinchi navbatda, moliyaviy resurslardan foydalanish

Imijni shakllantiruvchilar oldiga siyosiy yetakchini yanada "mashhur qilish" yoki hali nomma'lum nomzodning imijini shakllantirish vazifasi quyilganda, siyosiy yetakchining tashqi ko'rinishi va nutqiga katta e'tibor beriladi. Siyosiy rahbar qanchalik iste'dodli va xarizmatik bo'lsa, uning obrazini tuzishda muammolar shunchalik kam bo'ladi. Birinchi taassurot odamlar ongida imijning shakllanishida iz qoldiradi, shuning uchun "boshdan oyoqqacha" imijmeykerlarning ishi obyektini uning maqomiga muvofiq ko'rinishi kerak.

² Феофанов О.А. Реклама: новые технологии для России. – Санкт-петербург.: Питер, 2000. – С. 261.

Bugungi kunda imij davlat siyosatining asosiy tarkibiy qismiga aylangani aniq. Imijni imijmeykerlar tomonidan, shuningdek, ommaning ongi tomonidan murakkab obyektini qayta ishlash mahsuloti sifatida baholash odatiy holdir. Ko‘pincha imij yetakchining raqibga nisbatan haqiqiy afzalliklarini o‘zlashtiradi, imijning vazifasi siyosatchining eng jozibali afzalliklarini emas, balki ijobiy fazilatlarini namoyon etishdir. Shunga asoslanib, imij haqiqiy faktlarga tayanmasdan sun‘iy ravishda yaratilgan mahsulot bo‘lib, uning maqsadi imkon qadar tarafdorlarni jalb qilishdir, deb ta’kidlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy yetakchi imijni shakllantirish jarayonining murakkabligi va ko‘p qirraliligini ta’kidlash mumkin. Ushbu sohadagi mutaxassislar nutq yozish, bashorat qilish, kuzatish, analitik fikrlash va hokazo ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Omma ongida hissiy idrok etiladigan imijni shakllantirishning o‘zi yetarli emas, uni nafaqat saqlab qolish, balki doimiy to‘ldirib borish ham kerak. Saylovchilar o‘z tanlovining to‘g‘riligini bilishlari va buning tasdig‘ini muntazam ravishda his qilishlari lozim. Aks holda, siyosiy yetakchining xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kamayishi yoki uning xalqdan uzoqlashuviga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Bobojonov F. Shaxs imiji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. 112 bet.
2. Феофанов О.А. Реклама: новые технологии для России. – Санкт-петербург.: Питер, 2000.
3. Шепель В.М. Имиджелогия: как нравиться людям. – М.: Издательство Народное образование, 2002.
4. Qolqanov N.T. Siyosiy yetakchi imijining shakllanish jarayoni. – Toshkent.: Ilm ziyo zakovat, 2019. 132 bet.

YIG'ILISH QARORLARINING DAVLAT ORGANLARIDA HUQUQIY AHAMIYATI

XASANOVA

*Sarvinoz O'ktamjon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Mustaqil izlanuvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yig'ilish qarorlari natijasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar vujudga kelishi va ularni tartibga soluvchi normativ hujjatlar qabul qilish zarurligi masalalari ham amaliy, ham nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada yig'ilish qarorining yuridik fakt sifatidagi yuridik mohiyatini aniqlash, yig'ilishlarning turli qarorlarini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish, majlislar qarorlari haqiqiy emasligining huquqiy oqibatlarini o'rganish, yig'ilish qarori tarkibining elementlari va shartlarini aniqlashdan iborat ekanligi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Yig'ilish qarori, majlis qarorlari, Oliy Sud Plenumi, qarorlari, yuridik fakt, korporativ huquqiy munosabatlar.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются как практические, так и теоретические аспекты формирования гражданско-правовых отношений в результате решений собрания и необходимость принятия нормативных актов, регулирующих их. Кроме того, в статье определяется правовая природа решения собрания как юридического факта, всестороннее изучение и анализ различных решений собрания, изучение правовых последствий недействительности решений собрания, элементов и условий решения.

Ключевые слова: решение собрания, решения Пленума Верховного Суда, юридический факт, корпоративные правоотношения.

ANNOTATION

This article analyzes both the practical and theoretical aspects of the formation of civil law relations as a result of the decisions of the meeting and the need to adopt regulations governing them. In addition, the article defines the legal nature of the decision of the meeting as a legal fact, a comprehensive study and analysis of various decisions of the meeting, the study of the legal consequences of invalidity of the decisions of the meeting, the elements and conditions of the decision.

Key words: Meeting resolution, meeting resolutions, Decisions of the Plenum of the Supreme Court, legal fact, corporate legal relations.

Tarixan ma'lumki, muhim masalalar yuzasidan qarorlar turli majlislar natijasida qabul qilingan. Jumladan, tarix maydonida javlon urgan jahonshumul siymolardan biri bo'lgan Sohibqiron Amir Temur faoliyatining asosiy dasturul amallari yig'indisi bo'lgan "Temur tuzuklari" kitobida ham yig'ilish va uning natijasi xususida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. "O'zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g'anim lashkarlarini sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni do'stga aylantirish, do'st-dushman orasida muomala, murosas-yu madora qilish xususida tadbir va kengashlarni qo'lladim".

Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda, oldimzdagi ishlarning yaxshi-yomon, foyda-yu ziyon tomonlari, ularni qilish qilmaslik haqida so'z ochib, ulardan fikr so'rardim. Ularning so'zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib, foyda-ziyon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim" deb ko'rsatgan.

Mana necha yillarki, ushbu amal bo'yicha hozir ham ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, davlat va boshqaruv organlarida ish faoliyatini tashkil etish, yuklatilgan vazifalarni ijrosini tashkil etish va sohaga oid muhim masalalarni o'zining yig'ilishlarida ko'rib chiqish va ko'rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda davlat organlari o'zining kollegial organlari, ya'ni hay'atiga ega bo'lib, ushbu hay'atlar Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hay'atining namunaviy reglamentiga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Mazkur Reglamentga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organining hay'ati doimiy faoliyat ko'rsatadigan maslahat organi hisoblanadi.

– Hay'at o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari to'g'risidagi nizomlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

– Hay'at o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq qonuniylik, nazoratda bo'lish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot berish, boshqaruv va kollegiallikni markazlashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi.

– Hay'at yig'ilishda hay'at tarkibining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli bo'ladi.

– Ko'rib chiqiladigan masala yuzasidan hay'at qarori ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

– Hay'at qarorlari davlat boshqaruvi rahbarining buyruqlari (qarorlari) (davlat boshqaruvi organi qarorlari) bilan amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi organi rahbari va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan holatda davlat boshqaruvi organi mustaqil qaror qabul qiladi va kelishmovchiliklar haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot beradi. Hay'at a'zolari ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga o'z fikrini bildirishi mumkin.

– Hay'at qarorlari hay'at raisi yoki uning vazifalarini bajaruvchi shaxs (raislik qiluvchi) tomonidan imzolanadi va odatda, davlat boshqaruvi organi rahbarining buyrug'i (qarori) bilan amalga oshiriladi.

Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan tasdiqlangan bayon orqali ushbu vazifalarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

Shuningdek, yurtimizning qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Oliy Majlis va Senat ham o'z qarorlarini kengash orqali muhokama qilib, qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senatning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamentiga

ko'ra Qonunchilik palatasining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Kengash tuziladi.

– Kengash tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar rahbarlari, qo'mitalarning raislari kiradi.

– Kengashga Qonunchilik palatasi Spikeri rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini chaqiradi, olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

– Kengash majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki Boshqaruvining raisi ishtirok etishi mumkin. Kengash majlislarida deputatlar ham ishtirok etishga haqli bo'lib, ular Kengash majlisida ko'rib chiqiladigan masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildirishi mumkin.

Sud hokimiyati bo'yicha ham o'z kengashlari va rayosati orqali turli qarorlar qabul qilinadi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ish yuritish tarkibi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raislaridan iborat tarkibda ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Sudyalar oliy kengashi raisi, Bosh prokurori, Adliya vaziri, Advokatlar palatasi raisi, sudyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi zaruriyatga qarab, lekin to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi:

– sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

– qonunchilik tashabbusi tarkibida ishlab chiqilgan qonun loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik

palatasiga kiritish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish masalalari yuzasidan murojaat kiritish, shuningdek, muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi sudlar tashabbusi bilan kiritilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat kiritish haqidagi taqdimnomasini ko'rib chiqadi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomalariga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek, sudlov hay'atlari faoliyati haqidagi ma'ruzalarni eshitadi;

– O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari raislarining qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlari bajarilishi haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati rahbarini tasdiqlaydi va uning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati reglamentlarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi.

Misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 24.12.2019-yildagi 24-sonli "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi Qarori qabul qilingan bo'lib unda:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi

4-moddasiga muvofiq, manfaatdor shaxs, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, prokuror, shuningdek, boshqa shaxslar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga vakolatli ayrim fuqarolar va davlat organlari ma'muriy organ qarorini haqiqiy emas va uning mansabdor shaxsi harakatini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza (shikoyat) bilan, basharti bu qaror, harakat (harakatsizlik) tufayli uning:

huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilgan;

huquqlari, erkinliklarini amalga oshirish va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda to'sqinlik yaratilgan;

zimmasiga qonunga xilof ravishda biror-bir majburiyat yuklatilgan;

u yoki bu sohadagi faoliyatini amalga oshirish uchun boshqa to'sqinlik yaratilgan deb hisoblasa, sudga murojaat qilishga haqli.

2. Sudlarga tushuntirilsinki, qonun hujjatlariga ko'ra tekshirilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mutlaq vakolatiga kiradigan davlat organlari qarorlari, shuningdek, qonun hujjatlarida ustidan sudga shikoyat

berishning boshqacha tartibi nazarda tutilgan qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 23-bobida belgilangan tartibda ko'rib chiqilmaydi.

Xususan, ma'muriy organlar mansabdor shaxslarining jinoyat ishi yohud ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritish bilan bog'liq qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan, tegishincha, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda shikoyat qilinadi.

3. Sudlar shuni nazarda tutishi lozimki, ma'muriy organlarning quyidagilar bilan bog'liq qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 23-bobida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi:

binoyat, inshoot va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, foydalanishga topshirish, foydalanish va buzishga kelishish va ruxsat berish;

ommaviy axborot vositasini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoki davlat organining belgilangan muddatda uni ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi, ommaviy axborot vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani haqiqiy emas deb topish, ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish;

fuqarolarning axborot olish huquqini amalga oshirish.

Qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo'llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir (O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risidagi qonunining 25-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi vazifalarini bajarish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisini tayyorlashga, majlis bayonnomasini yuritishga doir ishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori ijrosini tashkil etish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, xorij amaliyotini ko'radigan bo'lsak, "Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi 1994-yil 21-iyuldagi 1-FKZ-sonli Konstitutsiyaviy qonuniga ko'ra:

– Ishlar va masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilish Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan kollegial tarzda amalga oshiriladi. Qaror faqat ishni sud majlisida ko'rishda ishtirok etgan sudyalardan qabul qilinadi;

– Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi yig'ilishda kamida olti sudya ishtirokida qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi 1994-yil 30-noyabrdagi

N 51-FZ (2022-yil 25-fevraldagi tahrirda) da yig'ilish qarorlari haqida alohida moddalar kiritilgan bo'lib, yig'ilish qarorlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari bayon etilgan.

V.S.Mixaylovning ta'kidlashicha, umumiy yig'ilish qaysi tashkilotning organi ekanligi to'liq aniq emas, chunki "boshqaruv organi" tushunchasi uning ma'lum bir tashkilotga tegishli ekanligini anglatadi va u ma'lum bir tashkilotning yuridik faoliyatini amalga oshirish uchun shakllanadi.

Bayon etilganlardan kelib chiqib, qonunchilikka quyidagi takliflarni berib o'tmoqchimiz:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga yig'ilish qarorlari bo'yicha alohida modda kiritish.

2. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun muhim bo'lgan yig'ilish qarorlari va uning ijrosi ommaviy axborot vositalarida doimiy yoritib borish.

3. Yig'ilishlarda ko'riladigan masalalar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bildiriladigan takliflarga e'tibor qaratish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, yig'ilish va uning yakuni bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar qanchalik muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

Yig'ilishda ovoz berish fuqarolik-huquqiy jamiyat a'zosining aniq qaror qabul qilishdan manfaatdorligi bilan bevosita belgilanadi.

Xulosa qilib quyidagilarni aytish lozimki: yig'ilish qarorlari muhim fuqarolik-huquqiy hujjat ekanligidan hamda uning natijasida ko'plab huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi mumkin – bu birinchidan;

ikkinchidan, xorij tajribasi orqali ko'rganimiz, Rossiya qonunchiligi orqali alohida normalar bilan tartibga solingan va ushbu qarorlar qonuniyligi so'zsizligi ta'minlangan;

uchinchidan, yig'ilish qarorlari orqali qabul qilingan qarorlar nafaqat tashkilot irodasi, balki tashkilot ichidagi ichki masalalar ham hal qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B. 8-9.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2018. – B. 85.
3. O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risidagi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 28.07.2021-y. O'RQ-703.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 24.12.2019 y.
5. Temur tuzuklari. – Toshkent.: Sharq, 2005. – B. 12-15.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hay'atining namunaviy reglamenti // Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qarori.

KORRUPSIYA MUAMMOSINING MAMLAKATIMIZDA VA XORIJDA O'RGANILISHI

BEKMURODOV A.B.,
mustaqil tadqiqotchi

АННОТАЦИЯ

Maqolada davlat rivojlanishiga tahdid soladigan korrupsiyaning oldini olishning psixologik jihatlarini to'g'risida so'z yuritiladi. Jumladan, unda mahalliy va xorijiy olimlarning bu boradagi izlanishlari o'rganilgan va solishtirilib tahlil qilingan. Bundan tashqari, mamlakatimizdagi "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaviy huquqbuzarlik, korrupsiyaning psixologik omillari, munosabat, korrupsiyaga qarshi kurashish.

АННОТАЦИЯ

В статье представлен анализ коррупции как острой социальной проблемы, которая неуклонно становится угрозой развитию государства. Также приводится анализ результатов исследований коррупции зарубежных авторов. Изучены данные эмпирических исследований Республиканского центра изучения общественного мнения "Ижтимоий фикр".

Ключевые слова: коррупция, коррупционное преступление, психологические факторы коррупции, отношение, борьба с коррупцией.

ANNOTATION

This article presents an analysis of corruption as an acute social problem, which is steadily becoming a threat to the development of the state. It also provides an analysis of the results of studies of corruption by foreign authors. The data of empirical studies of the Center for the Study of Public Opinions "Izhtimoiy Fikr" have been studied.

Key words: corruption, corruption crime, psychological factors of corruption, attitude, fight against corruption.

Hozirgi kunda milliy, mintaqaviy va xalqaro miqiyosda korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish masalalariga e'tibor ortib bormoqda. Buning sababi, korrupsiya jamiyatda demokratiya va qonun ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, xufiyona iqtisodiyot va boshqa shu kabi salbiy hodisalarning yuzaga kelishiga sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya bilan kurashish dunyodagi barcha davlatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"¹.

BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi"da korrupsiya – mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlab, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi² sifatida ta'rif berilgan.

Shu sababli ushbu maqolada korrupsiya va uning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo'yicha mamlakatimiz va xorijda olib borilgan ishlar tahlil qilindi.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning ko'p qirrali va darajali hamda iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, boshqaruv, axloqiy va siyosiy tarkibli tashkiliy ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlashadi. Unda psixologik tarkib ham mavjud bo'lib, u mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy, boshqaruv, axloqiy va boshqa jihatlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu psixologiya fanining korrupsiyani fanlararo

o'rganishi va psixologik amaliyotni korrupsiyani yo'q qilishga jalb qilishi zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Korrupsiyaga yorqin ta'rifni rus tadqiqotchisi A.I.Kirpichnikov beradi: "Korrupsiya – hokimiyatning chirishi. Zang metallni yemirgandek, korrupsiya ham davlat apparatini buzadi va jamiyatning axloqiy negizlarini nuratadi. Korrupsiya darajasi – jamiyatning o'ziga xos termometri, uning axloqiy holati va davlat apparatining vazifalarini o'z manfaatlarini emas, balki jamiyat manfaatlarini yo'lida hal qilish qobiliyatining ko'rsatkichi. Metall uchun zanglash chidamlilik darajasining pasayganligini bildirganidek, jamiyat uchun korrupsiyaga berilish qarshilik ko'rsatish qobiliyatining pasayganligini bildiradi"³.

Hozirgi vaqtda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda korrupsiya umummilliy muammo sifatida (E.Migel, R.Fisman), ijtimoiy huquqiy fenomen sifatida (D.I.Aminov), davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida (A.A.Svirko), tarixan bog'liq fenomen (V.R.Solovyov), umumjahon muammosi (Y.Lammers, S.Rouz-Akerman) sifatida turli jihatdan o'rganilmoqda.

Katta e'tibor korrupsiyaning paydo bo'lish sohalari va xususiyatlariga qaratilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan: korrupsiya va byurokratizm (G.I.Ivanov), davlat xizmatchisini sotib olish (S.D.Krasnousov), institutsional korrupsiya (L.M.Timofeyev), yo'lardagi korrupsiya (M.A.Krasnov), oliy ta'lim muassasalaridagi korrupsiya indikatorlari (V.N.Konishchev, A.A.Sergunin), ichki ishlar tizimidagi korrupsiya (A.A.Makarov).

Tadqiqotchilarning jiddiy e'tiborini korrupsiyaga qarshi kurashish muammosi jalb qilmoqda (Y.P.Garmayev, V.G.Grib, A.M.Jukayev, E.Y.Kozonov, S.V.Maksimova, L.Y.Oks).

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan korrupsiya fenomeni odatda iqtisodiy va huquqiy jihatlardan o'rganilayotgan bo'lib, ushbu illatning psixologik jihatlari aksariyat hollarda bilvosita ko'rib chiqilmoqda.

Shu bilan birga, korrupsiya muammo sifatida ayrim psixologlar tomonidan faol o'rganilmoqda (Y.A.Antonyan, O.V.Vanovskaya, A.L.Juravlyov, L.M.Zakirova, V.A.Sosnin, A.V.Yurevich).

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // [Elektron manba]. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyoyevning-oliy-25-01-2020>.

² United Nations Law Library <http://legal.un.org/avl/ha/uncc/uncc.html>

³ Кирпичников А.И. Это модно слово "коррупция" // Российская провинция. – Набережные Челны. 1995 № 5

Korrupsiya muammosining alohida jihatlari yuridik psixologiya va yaqin vaqtlardan boshlab rivojlanish psixologiyasining bo‘limi hisoblangan akmeologiyada o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, uning tadqiqi asosan axloqiy, ruhiy va falsafiy nuqtayi nazar doirasida olib boriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jahondagi yetakchi mutaxassislardan biri bo‘lgan professor Robert Klitgaard 1998-yildayoq korrupsiyaning klassik formulasini taklif qilgan: “Korrupsiya = Monopoliya + harakatlarning erkinligi – javobgarlik», ya’ni hokimiyatga ega bo‘lgan, o‘zining harakatlarini yuqori darajadagi javobgarlikda tutib tura olmaydigan odamlar bu hokimiyatni suiiste’mol qilish va korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil bo‘lishadi⁴.

Shu bilan birga, korrupsiya sohasidagi mavjud psixologik tadqiqotlarning ko‘pchiligi to‘liq yakunlanmagan xarakterga ega. Masalan, A.Aki-menko, G.Grachyova, V.Znakova va boshqalarning ishlarida shaxsning axloqiy normalarining nazariy modeli (axloq, odob kodeksi) o‘rganilib axloqsizlik-buzuqlik va jinoiy modeli harakatlarning ayrim jihatlari tadqiq qilingan bo‘lsa-da, ular korrupsiya nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilmagan.



Mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tomonlari falsafiy tarzda o‘rganilgan. Masalan, davlat boshqaruvida ijtimoiy mexanizmlarning roli, milliy davlatchilik rivojidadagi mohiyati va falsafiy paradigmasining o‘zgarishi F.Musayev,

⁴ Dupuy K., Neset S. The cognitive psychology of corruption. 2018. – 31 p.

A.Saidov⁵, I.Ergashev, N.Jo‘rayev, Sh.Paxrutdinov, A.Rahmonov⁶, M.Bekmurodov, A.Qodirov, V.Qo‘chqorov, F.Ravshanov, M.Qirg‘izboev⁷ hamda N.Qolqanovlar⁸ning tadqiqotlarida yoritilgan.

Shu bilan birga, korrupsioner shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘rganish yo‘nalishidagi bir qator ilmiy o‘rganishlar (O.Abramovskaya, M.Kroz, N.Ratinova va boshqalar) olib borilgan bo‘lib, korrupsiyaviy harakatlarning shaxs determinantlari (O.Vannovskaya, I.Devyatovskaya, E.Simanyuk va boshqalar), ommaviy ongda korrupsiyaga munosabatni shakllantiruvchi omillar tadqiq qilingan.

Xorijiy ijtimoiy gumanitar fanlarda korrupsiyaning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlari bilan birga psixologik xususiyatlari ham keltiriladi. Xorijiy adabiyotlarda korrupsiya kelishmagan (muvofiqlashmagan) davlat va biznes ehtiyojlarining to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi deya keltiriladi.

Korrupsiyaning global omiliga qarshi kurashishda ijobiy liderlik, barcha tomonga teng huquq berish, qonuniy qattiq jazo va sanksiyalarni belgilash. Korrupsiyaga qarshi kurashda

⁵ Saidov A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, 2012. – B. 80.

⁶ Рахманов А.Р. Гражданское общество: достижение, проблемы, перспективы. – Ташкент: «Ал-Фаба-сервис», 2007. – С.343.

⁷ Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 256.

⁸ Qolqanov N. va boshq. Korrupsiyaga qarshi kurashning me’yoriy-huquqiy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.

fuqarolik jamiyati rolini oshirish kabi qator tadbirlarni taklif qilishadi.

G'arb tadqiqotchilari korrupsiya biznes va davlat ehtiyojlari to'qnashuvidan yuzaga kelishini anglashadi va aynan shu nuqtada korrupsiya muammosini hal etishdagi qarama-qarshiliklar jamlangan. L.Kokfortning fikricha, korrupsiya zamonaviy dunyoning holatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jumladan, rivojlanayotgan davlatlardagi ommaviy qashshoqlikdan tabiiy boyliklarning o'zlashtirilishi va siyosiy partiyalarga ishonchning yemirilishigacha. Muallif korrupsiyani elitaning o'zaro munosabati natijasi sifatida ko'rish mumkin deya ta'kidlaydi. U korrupsiyaning moliyaviy bozorlar globallashuvi va "ofshorlashuvi"ga olib kelishini ko'rsatadi. Korrupsiya muammosini hal qilish uchun bir qancha chora-tadbirlar, jumladan "ofshor sxemalarni" nazorat qilish taklif etiladi⁹.

Rober Rotberg yadro qurolining tarqalishi va terrorizm sohalarida korrupsiya muammosining muhimligini e'tirof etib, quyidagi chora-tadbirlarni taklif qiladi: pozitiv liderlik, ochiq transparent hamkorlik (konfliktlarni hal etishda barcha tomonlar huquqlarining tengligi), qattiq qonuniy jazolar va sanksiyalar¹⁰. Bu tavsiyalarga ko'pchilik tadqiqotchilar, jumladan ijtimoiy psixologlar ham qo'shilishadi.

Korrupsiyaning oldini olishda fuqarolik jamiyatining roli katta ekanligi keltiriladi¹¹. Xususan, ayrim davlatlarda ular kuchsiz, ayrimlarida tarqoq,

⁹ Журавлев А.Л., Китова Д.А., Соснин В.А. Социально-психологические исследования коррупции // Институт психологии Российской академии наук. – Москва, 2017. – С. 30.

¹⁰ Журавлев А.Л., Китова Д.А., Соснин В.А. Социально-психологические исследования коррупции // Институт психологии Российской академии наук. – Москва, 2017. – С. 30.

¹¹ Журавлев А.Л., Китова Д.А., Соснин В.А. Социально-психологические исследования коррупции // Институт психологии Российской академии наук. – Москва, 2017. – С. 31.

boshqalarida esa demokratik bo'lmagan rejim hukmronlik qiladi va fuqarolik jamiyatining faolligi bosim ostida bo'ladi.

Bizningcha, korrupsiyani ikkita muhim ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim. Birinchidan, korrupsiya qadimgi vaqtlardan boshlab har qanday insoniyat hamjamiyatining o'zaro munosabatining xususiyati bo'lib, uni to'liq bartaraf qilish imkoni yo'q.

Ikkinchidan, korrupsiyani tadqiq qilishda korrupsiyaviy kelishuv davomida shaxsiy va jamoaviy nafni hisobga olgan holda ko'p qirrali yondashuv zarur bo'ladi.

S.Roze-Akerman tahriridagi "Korrupsiya iqtisodiyoti bo'yicha xalqaro qo'llanma" to'plamidagi g'arb mualliflarining maqolalari alohida qiziqish uyg'otadi. Unda psixologiyada korrupsiyani tadqiq qilishda bir qator farazlar ilgari surilgan:

- korrupsiyani muhokama qilishda mustaqil jamoat tashkilotlari ishtirokini ta'minlash, rahbarlarning korrupsiyaviy harakatlarining ijtimoiy-psixologik tiplari bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazish;
- korrupsiyani tahlil qilishda bir qator boshqarib bo'lmaydigan holatlarni (institutsional normalar, atrof muhitning noaniqligi, ijtimoiy va iqtisodiy omillar) hisobga olish¹².

T.Rabla va T.M.Kyulmannalarning "Tashkilotlarda korrupsiyani tushunish – harakatlar modelining dinamikasi va empirik baholash" tadqiqoti alohida qiziqish uyg'otadi. Tadqiqotda korrupsiyaviy qarorlar qabul qilishga undaydigan korrupsioner shaxs harakatlari hissiy va kognitiv parametrlarining motivatsiya bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga insonning bu kabi qarorlarining psixologik asoslari ochib berilmaydi. O'zlarining xulosalariga tayangan holda mualliflar korrupsiyaga qarshi kurashda bir necha tadbirlarni taklif qilishadi va bu muammoning tadqiqi istiqbolli ekanligini ta'kidlashadi. Ular turli metodlarni aralashtirib qo'llashning samarasi, jumladan real korrupsioner bilan sifatli intervyu o'tkazish, so'rovnoma o'tkazishda

– korrupsiyani muhokama qilishda mustaqil jamoat tashkilotlari ishtirokini ta'minlash, rahbarlarning korrupsiyaviy harakatlarining ijtimoiy-psixologik tiplari bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazish;

– korrupsiyani tahlil qilishda bir qator boshqarib bo'lmaydigan holatlarni (institutsional normalar, atrof muhitning noaniqligi, ijtimoiy va iqtisodiy omillar) hisobga olish¹².

¹² O'sha yerda



“bo‘lg‘usi kompaniyalar rahbarlari va biznes lider”lari sifatida talabalardan foydalanishni tavsiya etishadi.

“Korrupsiya spirali: tashkilotlarda korrupsiyaning o‘shishiga sharoit yaratib beradigan ijtimoiy aynanlik jarayonining dinamik tahlili” tadqiqida mualliflar tashkilotlarda korrupsiya o‘shishi sabablarini tushuntirishga harakat qilishadi¹³.

S.Ziglidopulosa, P.Fleminga, S.Rozenderga va K.Steliosalarning “korrupsiyaning ratsionalizatsiya, sverxkompensatsiyasi va eskalatsiyasi” tadqiqida axloqiy muammo – qanday (va nima uchun) qonunga itoatkor individ korrupsiyaviy faollikda ishtirok etishga qaror qabul qilishini tushuntirishga harakat qilishadi.

Bunda asosiysi ratsionalizatsiya mexanizmi bo‘lib, u inson tomonidan turli hayotiy holatlarda o‘zining axloqiy bo‘lmagan harakatlarini, jumladan korrupsiyaviy harakatlarini (o‘zining hamda boshqalarning) oqlash uchun foydalaniladi. Mualliflar ratsionalizatsiya mexanizmi ko‘p hollarda individning korrupsiyaviy harakatlarning sverxkompensatsiya mexanizmi bo‘lib xizmat qilishini va uning jiddiy korrupsiyaviy harakatlarini psixologik qo‘llab-quvvatlaydi deb hisoblashadi.

Ularning ishlarida bu korrupsiyaviy harakatlarning tipologiyasi keltiriladi hamda harakat va uning ratsionalizatsiyasi o‘rtasidagi uzilish zamonaviy tashkilotlarda korrupsiyaning “o‘shishi”ni izohlab berishi mumkin (xuddi korrupsiyaviy harakatlarni “oqlash” mexanizmini ratsional psixologik izohlash kabi).

So‘nggi vaqtlarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bu muammoga qiziqish tobora ortib bormoqda. Korrupsiyaning tabiati, uning sabablari, oqibatlari hamda korrupsiyaga qarshi o‘tkazilayotgan tadbirlar ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda.

Xususan, rus olimlari (A.A. Kashkarov; Y.Y. Gavrina; Y.M. Bogoduxova, V.G. Gordiyenko, A.L. Juravlyov, V.A. Sosnin, A.V. Yurevich; O.V. Vannovskaya; M.V. Kroz va boshqalar) tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar “psixologik tadqiqotlarning yangi sohasi bo‘lgan korrupsiya

psixologiyasi shakllanayotganligidan darak beradi”¹⁴.

Olimlar korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha qator profilaktik tadbirlar o‘tkazib borish g‘oyasini ilgari surishadi. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar (I.V. Devyatovskaya, E.E. Simanyuk, D.A. Kitova, A.L. Juravlyov, V.A. Sosnin, A.V. Yurevich, O.V. Vannovskaya va boshqalar) profilaktikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy institutlarning korrupsiyaga qarshi tura oladigan shaxs xususiyatini shakllantirishga qaratilgan maqsadli faoliyatini keltirishadi.

Ta’kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda bir xil psixologik holatni ta’riflashda turli atamalardan foydalaniladi. Jumladan, O.N. Juravlyova va S.V. Oxapkinlar “korrupsiyaviy faoliyatga nisbatan shaxs, ijtimoiy guruh va barcha jamiyatning salbiy munosabatini aks ettiradigan g‘oyalar, qarashlar, prinsiplar tizimi”ni nazarda tutadigan “korrupsiyaga qarshi dunyoqarash” to‘g‘risida fikr yuritishgan.

O.I.Lapteva, A.N.Pastushenya, L.V.Abdraxmanova, O.V.Vannovskayalar insonning anti-korrupsiyaviy harakatlarini ta’minlaydigan maxsus sifatni “antikorrupsiyaviy barqarorlik” deya nomlab “korrupsiyaviy bosimlarga qarshi turish hamda jinoiy va qonunga mos harakatlar tanlovida ikkinchisi foydasiga qaror qabul qila oladigan shaxsning tizimli xususiyati” deya ifodalashadi¹⁵.

Jadavpur universiteti (Hindiston) va Sukub universiteti (Yaponiya) xodimi, falsafa doktori Baumik Sushanta Kumar “Hozirgi vaqtda insoniyat rivojlanishi nuqtayi nazaridan eng dolzarb muammolarga tengsizlik, kambag‘allik va savodsizlik kiradi. Tarixiy davrlardan buyon imkoniyatlarning teng emasligi korrupsiyaning birlamchi sabablaridan biri bo‘lgan” degan fikrni bildirgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jahondagi yetakchi mutaxassislardan biri bo‘lgan professor Robert Klitgaard 1998-yildayoq korrupsiyaning klassik formulasini taklif qilgan: “Korrupsiya = Monopoliya + harakatlarning erkinligi – javobgarlik», ya’ni hokimiyatga ega bo‘lgan, o‘zining harakatlarini yuqori darajadagi javobgarlikda tutib tura olmaydigan odamlar bu hokimiyatni suiiste’mol qilish va korrupsiyaviy

¹³ Журавлев А.Л., Китова Д.А., Соснин В.А. Социально-психологические исследования коррупции // Институт психологии Российской академии наук. – Москва, 2017. – С. 33.

¹⁴ Журавлев А.Л., Китова Д.А., Соснин В.А. Социально-психологические исследования коррупции // Институт психологии Российской академии наук. – Москва, 2017. – С. 33.

¹⁵ O‘sha yerda.

huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil bo‘lishadi.

Shu mazmundagi xulosalar “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2021-yili o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalarida ham qayd etilgan. Xususan, 20,7% so‘rovnoma ishtirokchilari mansabdor shaxslarning haddan tashqari katta vakolatlari, fuqarolarning farovonligi bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlar qabul qilishga ularning ta’sir ko‘rsatish imkoniyati, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik bazasining nomukammalligi korrupsiyaning paydo bo‘lish xavfini ancha ko‘paytiradi degan fikrni bildirishgan¹⁶.

Korrupsiyani yengish uchun aholini pora bermaslikka o‘rgatish g‘oyasini ilgari surgan holda korrupsiya muammosiga boshqa tomondan qarash ham birmuncha utopik hisoblanadi. Xususan, g‘arb olimlarining (K.Dupuy, S.Neset) fikricha “kuchsiz shaxslar hokimiyatga ega bo‘lganlarning korrupsiyaviy harakatlarini to‘xtatishi va korrupsiyaga qarshi turishi imkonsizdir¹⁷”.

Balki shu sababli ham mamlakatimizda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda qatnashganlarning 34,4% “ba‘zan qonunda belgilangan organlarga zarur to‘lovni to‘lagandan ko‘ra, pora berish osonroq” deb hisoblashlarini bildirishgan¹⁸.

Shuningdek, “antikorrupsiyaviy ta’limni amalga oshirish” orqali korrupsiyaga qarshi yo‘nalgan shaxsni shakllantirish mumkin degan fikrlar ham ilgari surilgan¹⁹.

Bir necha yillardan buyon korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga toqatsizlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Lekin o‘tkazilayotgan ijtimoiy so‘rovlar ushbu dasturlar kutilgan natijani to‘liq bermayotganli-

gini va kelgusida ushbu turdagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan psixologik jihatlarni ham hisobga olish zuriyatini yuzaga keltirmoqda.

Har o‘ninchi respondent, so‘rovnomaga ko‘ra, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni yetarlicha emas, binobarin korrupsiyaga qarshi kurashni yetarlicha muvaffaqiyatli emas, deb hisoblaydi.

2021-yilda (2020-yil bilan qiyoslaganda), so‘rovning ko‘rsatishicha, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonidagi o‘zgarishlar dinamikasini ijobiy baholovchi respondentlar ulushi kamaydi. Ayni vaqtda korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonidagi dinamika ko‘proq salbiy mazmunga ega, deb hisoblovchi respondentlar ulushi ko‘paydi²⁰.

Bizningcha, bu kabi dasturlar qaysidir jihatdan kunlik hayotiy voqelikka va ayni vaqtda shakllangan aniq ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos kelmasligi uni amaliyotga joriy etishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Rus olimi L.V.Abdraxmanova “korrupsiyaga qarshi madaniyat shaxsning harakatlar strategiyasining ixtiyoriy, ongli ravishda tanlovi bo‘lib oxir-oqibat korrupsiyaviy harakatlar qadriyat darajasida “beadablik” bo‘lishi kerak” deb hisoblaydi²¹.

Shu sababli birinchi navbatda, jamiyatda qabul qilingan qadriyat va ideallarni tahlil qilib ko‘rish lozim.

Afsuski, hozirgi vaqtda barcha davlatlarda “iste’molchi jamiyat” qadriyatlari keng targ‘ib qilinadi. Bunday jamiyatda hayot mazmuni moddiy boyliklarni ommaviy qondirish, iste’molchi uchun esa baxt bu boyliklarning eng ko‘pligiga teng bo‘ladi. Shaxs o‘zini qurshab olgan jamiyatning muvaffaqiyatli a‘zosi bo‘lish uchun unga moslashishga harakat qiladi.

Ayni vaqtda ijtimoiy so‘rovlarning ko‘rsatishicha, korrupsiya – ijtimoiy muammodir (51,1%): ommaviy axborot vositalari iste’molni targ‘ib qilishga asoslangan ommaviy ong qadriyatlarini ilgari surishi barobarida korrupsiya darajasining oshishiga yordam berishmoqda. So‘rov ishtirokchilarining qayd etishlaricha, bugungi kunda jamiyatdagi har bir insonda reklama

¹⁶ Китова Д.А., Журавлев А.Л., Соснин В.А., Юревич А.В. Коррупция как объект социально-психологических исследований: состояние и перспективы // Институт психологии Российской академии наук. Социальная и экономическая психология. – 2017. – Том 2. – № 3 (7). – С. 6-38.

¹⁷ Журавлёва О.Н. Формирование антикоррупционного мировоззрения школьников на уроках истории и обществознания: 5-11 классы: методическое пособие. – М.: Вентана-Граф, 2010. – С. 144.

¹⁸ Ванновская О.В. Психология коррупционного поведения государственных служащих: Монография. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – С. 251.

¹⁹ Баумик С.К. Коррупция может быть уничтожена только согласованными действиями во всем мире // Актуальные проблемы экономики и права. – 2017. – т. 11, № 1. – С. 117-128.

²⁰ Dupuy K., Neset S. The cognitive psychology of corruption. 2018. – 31 p.

²¹ “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi ma’lumotlaridan olindi.

Korrupsiya insonning g‘arazli harakatlarining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ma’lum miqdordagi moddiy boylikni qo‘lga kiritishga intilishida aks etadi. Shu sababli insonning moddiy ehtiyoji yetarli qondirilma-ganda yoki qisman qondirilgan ijtimoiy muhitda doimiy ravishda u yoki bu huquqbuzarliklarni, xususan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishga undaydi.



bilan faol rag‘batlantirilayotgan katta miqdordagi turli xil ehtiyojlar paydo bo‘lmoqda, ayni paytda ularni qondirish uchun hamisha ham imkoniyat mavjud emas, bu insonni huquqqa zid harakatlarga undashi mumkin²².

Shaxsning, jumladan uning tarkibiy qismi sifatida korrupsiyaga qarshi yo‘naltirilganlik shakllanishida ehtiyoj shaxs asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli shaxsning korrupsiyaga qarshi yo‘naltirilganligi shakllanishi jarayonining muvaffaqiyatli kechishini aholining ehtiyojlar sohasini hisobga olmasdan ta‘minlab bo‘lmaydi.

XX asr ikkinchi yarmining eng taniqli psixologlaridan biri bo‘lgan amerikalik A.Maslouning fikricha, shaxsning gumanistik psixologiyasi nazariyasi bo‘yicha shaxsning ehtiyojlarini tahlil qilmasdan uning hayotini tushunish mumkin emas²³.

Shu sababli, insonning 5 ta asosiy ehtiyojlarini o‘z ichiga olgan mashhur “Maslou piramidasi”ni o‘rganib chiqishga harakat qilamiz.

Maslou piramidasi besh darajaga bo‘linadi. Ushbu piramidada iyerarxik ravishda qoplanishi kerak bo‘lgan ehtiyojlar ahamiyatiga qarab joylashtirilgan bo‘lib, unda yuqori ehtiyojlar quyi ehtiyojlarga bo‘ysunadi.

Shunday qilib, Maslou taklif qiladigan ehti-

yojlar: **fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik, muhabbat, tan olinish va o‘zini anglash.**

1. Fiziologik ehtiyojlar (ovqatlanish, jismoniy va ruhiy dam olish, jinsiy aloqa va hokazo).

Bu ehtiyojlar piramidaning tagida joylashgan. Ular insonning ishlashiga imkon beradigan minimal shartlarni qondirishni nazarda tutadigan narsalardir. Bu oziq-ovqat, chanqash, nafas olish, dam olish, jinsiy aloqa, boshpana va gomeostazga taalluqli bo‘lgan har bir narsa (tananing muvozanati, doimiy va normal holatni saqlab turish uchun tana avtomatik ravishda harakat qilishi).

Agar inson bu ehtiyojlar qondirilayotganligini sezmasa, u darhol yuqori ehtiyojlarga erishish uchun turtki sezmaydi, chunki ularning motivatsiyasi fiziologik ehtiyojlarni qoplashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. Xavfsizlik (yashash uchun pul, kiyim-kechak, uy va kasal vaqti tibbiy yordam olish va hokazo).

Ular bizning xavfsizligimizni, barqaror muhitda harakatlanishimizni, atrofimizni tartibga solishimizni anglatadigan ehtiyojlardir. Inson noaniq muhitda yashashni yoqtirmaydi. Ular tartib va hayotiy xavfsizlikni saqlashga imkon beradigan ehtiyojlarni nazarda tutadi. Bu yerda xavfsizlik shaxsni boshqaradigan kuchga aylanadi. Inson xavfsizlikka muhtoj, ammo uning fiziologik ehtiyojlari qondirilgan taqdirdagina, barqarorlik, tartib, himoyaga ehtiyoj seziladi.

²² “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi ma’lumotlaridan olindi.

²³ Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 1999. – С. 479.

3. Muhabbat yoki ijtimoiy ehtiyojlar (do'stlar, yaxshi oilaviy munosabatlar va sherik bilan mehrlil munosabatlar va hokazo).

Inson ijtimoiy mavjudotdir. Shuning uchun, yuqorida aytib o'tilgan ehtiyojlar qoplangandan so'ng, guruhga a'zo bo'lish zarurati paydo bo'ladi. Odamlar o'zlarining ma'lum bir ijtimoiy guruhning bir qismi ekanligini his qilishlari kerak.

Ushbu ehtiyoj fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini ustuvor yo'nalish sifatida qondirishga bo'ysunadi. Birlashishga bo'lgan ehtiyoj doirasida biz yerga ildiz otish va shu tariqa yolg'izlikni to'xtatish uchun guruhga mansublik, sevgi, muhabbatni topamiz.

4. Tan olinish, e'tirof etilish (ish joylarida mukofotlash, davlat mukofotini olish, chempionatda g'olib bo'lish, medallar olish, jamoatchilik tomonidan maqtalish).

Har bir inson o'zining qadrlanishi va tan olinishini istaydi. Agar odam bu ehtiyojini qondira olmasa, ko'pincha baxtsizlik hissi paydo bo'ladi, odamlar o'zlarini boshqalardan kam deb bilishadi.

5. O'z-o'zini anglash ehtiyojlari (shaxsiy maqsadlarga erishish, musiqa yaratish, biznes ochish, sport bilan shug'ullanish va hokazo).

Maslouning nazariyasini tushunish uchun biz bir qator fikrlarni hisobga olishimiz kerak:

a) Faqat bir daraja yetarli darajada qondirilgandagina, keyingi yuqori darajaga erishish mumkin. Agar motivatsiya yoki ehtiyoj qondirilmasa, inson xatti-harakati uni qondirishga intila-

di. Unday bo'lmaguncha, inson keyingi motivatsiyaga o'tmaydi va shu sababli rivojlana olmaydi.

b) Shuning uchun, hamma ham piramidada bir xil joyda bo'lmaydi. Shaxsiy sharoitga qarab, har bir kishi piramidaning bir nuqtasida bo'ladi.

d) Hamma odamlar o'zlarini anglash uchun piramidaning so'nggi bo'g'iniga yoki yuqori qismiga erisha olmaydilar. Ba'zi odamlar buni qondirish haqida tashvishlanishlari mumkin, boshqalari esa hayotlari davomida o'zlarini past darajalarda topishadi.

e) Piramida – bu yuqorida aytib o'tganimizdek, iyerarxiya. Ba'zilar qoniqtirilganda keyingisi boshlanadi.

Ammo, agar ma'lum bir lahzada va yuqoriroq bo'g'inda bo'lsak, pastroqlardan biri qoniqishdan to'xtasa, organizmda taranglik paydo bo'ladi.

f) Turli xil ehtiyojlarni qondirishda ko'ngilsizlik tanaga tahdid soladi va bular organizmda signal reaksiyasini keltirib chiqaradi hamda uni harakatga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya insonning g'arazli harakatlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib, ma'lum miqdordagi moddiy boylikni qo'lga kiritishga intilishida aks etadi. Shu sababli insonning moddiy ehtiyoji yetarli qondirilganda yoki qisman qondirilgan ijtimoiy muhitda doimiy ravishda u yoki bu huquqbuzarliklarni, xususan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishga undaydi.



ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // [Elektron manba]. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. United Nations Law Library <http://legal.un.org/avl/ha/uncc/uncc.html>
3. Кирпичников А.И. Это модное слово “коррупция” // Российская провинция. – Набережные Челны. 1995 № 5
4. Dupuy K., Neset S. The cognitive psychology of corruption. 2018. – 31 p.
5. Saidov A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, 2012. – B. 80.
6. Рахманов А.Р. Гражданское общество: достижения, проблемы, перспективы. – Ташкент: «Ал-Фаба-сервис», 2007. – С.343.
7. Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 256.
8. Qolqanov N. va boshq. Korruptsiyaga qarshi kurashning me‘yoriy-huquqiy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
9. Журавлёв А.Л., Китова Д.А., Соснин В.А. Социально-психологические исследования коррупции // Институт психологии Российской академии наук. – Москва, 2017. – С. 30-31, 33.
10. O‘sha yerda.
11. Китова Д.А., Журавлев А.Л., Соснин В.А., Юревич А.В. Коррупция как объект социально-психологических исследований: состояние и перспективы // Институт психологии Российской академии наук. Социальная и экономическая психология. – 2017. – Том 2. – № 3 (7). – С. 6-38.
12. Журавлёва О.Н. Формирование антикоррупционного мировоззрения школьников на уроках истории и обществознания: 5-11 классы: методическое пособие. – М.: Вентана-Граф, 2010. – С. 144.
13. Ванновская О.В. Психология коррупционного поведения государственных служащих: Монография. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – С. 251.
14. Баумик С.К. Коррупция может быть уничтожена только согласованными действиями во всем мире // Актуальные проблемы экономики и права. – 2017. – т. 11, № 1. – С. 117-128.
15. Dupuy K., Neset S. The cognitive psychology of corruption. 2018. – 31 p.
16. “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi ma’lumotlaridan olindi.
17. Dupuy K., Neset S. The cognitive psychology of corruption. 2018. – P. 7.
18. “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi ma’lumotlaridan olindi.
19. Шарапова Е.А. Формирование антикоррупционной направленности личности в профессиональном воспитании студента вуза: автореферат дис. кандидата педагогических наук: 13.00.08, Краснодар, 2017. – С. 22.
20. “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi ma’lumotlaridan olindi.
21. Абдрахманова Л.В. Социальная среда как фактор формирования антикоррупционной устойчивости личности // Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития. Материалы 12-й Международной научно-практической конференции. – 2018. – С. 288-291.
22. “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi ma’lumotlaridan olindi.
23. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 1999. – С. 479.

JAMIYATDA KORRUPSIYA JINOYATCHILIGINI PASAYTIRISH, NAZORAT QILISH VA OLDINI OLISH CHORALARI

BOYDEDAYEV

Sadirdin,

*Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif jamiyatda korrupsiya jinoyatchiligini pasaytirish, nazorat qilish va oldini olish choralari ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Ayni damda, korrupsiya jinoyatchiligini mutlaqo yo'q qilish imkoniyati hozirgi kunda mavjud emasligi barobarida, uni pasaytirish va nazorat qilishning turli yo'nalishlari va choralari haqida so'z yuritadi. Bundan tashqari, maqolada korrupsiyaga qarshi kurashga oid ayrim xalqaro huquqiy standartlarning talablari tavsiflangan. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun tizimli choralar ko'rish yuzasidan qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar xususida fikr yuritilib, tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar. korrupsiya, korrupsiyaga qarshi qonunchilik, korrupsiyaviy qilmish, korrupsiyaviy huquqbuzarlik, korrupsiya jinoyati shakllari, korrupsiyaning oldini olish, yuridik shaxs javobgarligi.

АННОТАЦИЯ

В статье дан анализ научно-теоретических и практических аспектов мер по снижению, контролю и предупреждению коррупционной преступности в обществе. Наряду с этим, поскольку на данный момент нет возможности полной ликвидации коррупционной преступности, рассмотрены различные направления и меры ее снижения и контроля. Также в статье определены некоторые требования международных правовых стандартов касательно борьбы с коррупцией. При этом рассмотрены новации, вносимые в национальное законодательство в рамках системных мер по борьбе с коррупцией, и представлены соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: коррупция, антикоррупционное законодательство, коррупционное деяние, коррупционное правонарушение, формы коррупционных преступлений, предупреждение коррупции, ответственность юридического лица.

ANNOTATION

In the article, the author analyzes the scientific, theoretical and practical aspects of measures to reduce, control and prevent corruption crime in society. Along with this, since at the moment there is no possibility of the complete elimination of corruption crime, various directions and measures for its reduction and control are considered. The article also defines some requirements of international legal standards regarding the fight against corruption. At the same time, innovations introduced into national legislation as part of systemic measures to combat corruption are considered and relevant conclusions and recommendations are presented.

Key words. Corruption, anti-corruption legislation, act of corruption, corruption offense, forms of corruption crimes, prevention of corruption, liability of a legal entity.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tizimli islohotlar jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘lib, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Biroq, hayot hech qachon bir joyda to‘xtab qolmaydi. Chunonchi, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rishimiz zarur”. Albatta, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki, aynan fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq yoki loqayd emasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyatining jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi demokratik-huquqiy davlatni mustahkamlashning muhim shartidir. Shu bilan bir qatorda korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta‘lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta‘lim va tarbiyani kuchaytirish davr talabidir. Zero, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yetuk bo‘lgan fuqarolar korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar.

Shu sababli ham biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, ya‘ni, uning huquq-tartibot idoralari ustidan ham jamiyat, jumladan, siyosiy partiyalar va deputatlar nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim.



Ana shunda korrupsiyaga qarshi kurash izchil va tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy yetuklik ko‘rsatkichidir. Fuqarolarimizning siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirmasdan turib amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga erishib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, ma‘no-mazmuni va mohiyatini o‘rganish, ya‘ni konstitutsiyaviy savodxonlik shaxs huquqiy ongini shakllantirishda muhim omil ekanligi sababli ushbu sohadagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llarini tizimli o‘rganishni talab etadi.

Aynan shuning uchun ham shaxs huquqiy ongini shakllantirish orqali mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va islohotlarni to‘g‘ri anglash, ularga moslashishga erishiladi.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organlarini ko‘pchilik korrupsiyaga qarshi yetarli chora-tadbirlar ko‘rmayotganlikda ayblamoqda. Biroq, bu yerda davrimizning mazkur xavfli illatiga qarshi kurashning samarasizligi sabablarini aniqlab olish muhimdir. Muhim sabablardan biri

shundaki, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qonunchilik bazasi hozirgi vaqtda endigina ishlab chiqilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini huquqiy ta'minlashda "korrupsiya" tushunchasiga amaldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda to'laqonli va mufassal ta'rif berilmaganligi bugungi kunda katta muammo tug'dirmoqda. Jumladan, qonunning 3-moddasida korrupsiya – bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdan iborat [1].

Bizningcha, qonun chiqaruvchi korrupsiyaga shu tarzda ta'rif berish orqali korrupsiyaga ancha tor tushuncha berib, uning mohiyati va mazmunini to'laqonli aks ettirmagan va sodir etishi mumkin bo'lgan aniq xatti-harakatlarning hattoki qisqa ro'yxatini ham bermagan.


Holbuki, mazkur illatga qarshi kurash chora-tadbirlarining aniq chegaralarini o'rnatish uchun korrupsiyaga huquqiy ta'rif berish zarur. U, shuningdek, qaysi jinoyiy qilmishlarni korrupsiya xatti-harakatlari qatoriga kiritish lozimligini, korrupsiya harakati sifatida tan olingan nojinoiy qilmishlarning qaysilari uchun boshqa javobgarlik turlari – ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, intizomiy

jazolar nazarda tutilishi lozimligini tushunishni yengillashtiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi haqida so'z yuritilganda, avvalambor kurashning maqsadini aniqlab olish muhimdir. Qarshi kurash real holatga asoslangandagina o'zining samaradorligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashning maqsadini aniqlashda, umumiy (bosh maqsad) va aniq vaziyatga asoslangan (muayyan muddat ichida) maqsadga ajratish mumkin.

K.Fridrixning qarashlariga ko'ra [2], korrupsiyani yo'q qilishni vazifa sifatida belgilash mumkin emas, ya'ni bu utopiya hisoblanadi. Unga qarshi kurashdagi asosiy vazifa korrupsiyani siyosiy tizimga yoyilishini, izdan chiqarishining oldini olishga qaratish lozim deb izohlaydi. Bizningcha ham korrupsiyaga qarshi kurashish korrupsiya darajasini va uning ijtimoiy xavfliligini pasaytirishni ko'zlovchi, shuningdek, uning determinantlarini bartaraf etish va yo'q qilishga qaratilgan murakkab tizimdan iborat faoliyatdir. Ushbu faoliyat korrupsiyani mutlaqo yo'q qilish imkoniga ega emas. Biroq, shunga qaramasdan, uni davlat, jamiyat va fuqarolar hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan ijtimoiy maqbul darajaga tushirish mumkin.

Rossiyaning "INDEM" markazi direktori G.Sattarov [3] korrupsiyaga qarshi kurashning murakkabligini barcha amalga oshirilayotgan



kurash chora-tadbirlarining tizimga solinmaganligi va muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Bir qator davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi tahlil qilinganda, ushbu qonunlarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish" atamasiga ta'rif mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining 2008-yil 25-dekabrda "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" [4] gi Federal qonunida, shuningdek, Qozog'iston Respublikasining 2015-yil 18-noyabrda "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" [5] gi Qonunida 1-moddasining o'zidayoq "korrupsiyaga qarshi kurashish" atamasiga ta'rif berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Amaldagi qonunchiligimizda "korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar" ta'riflanmagani kabi, "korrupsiyaga qarshi kurashish" atamasi ham yoritib berilmagan [6]. Vaholanki, qonunning 5-7-moddalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga bag'ishlangan.

Korrupsiya, uning sodir etilish sabab va shart-sharoitlari hamda ushbu turdagi jinoyatlarni profilaktika qilish muammolarini ilmiy tadqiq qilgan bir qator olimlar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning profilaktikasini turlicha tasniflashgan. Xususan, V.K.Maksimov [7] korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning profilaktikasini ikki guruhga ajratishni taklif etgan, ya'ni umumiy va maxsus profilaktika.

Umumiy profilaktika uchun aholining turmush tarzini yaxshilash va davlatning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, xufyona iqtisodiyotning tarkibiy qismini qisqartirish talab tiladi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, davlat hokimiyatining barcha sohalarini mustahkamlash yo'li bilan haqiqiy demokratiya darajasiga erishish bilan bog'liq siyosiy o'zgarishlar amalga oshirilishi kerak.

Maxsus profilaktika bu davlat boshqaruv apparatida korrupsiyaning oldini oluvchi chora-tadbirlari yig'indisi, ya'ni davlat funksiyalarini bajaruvchi organlar va ushbu organlarning vakolatlari bajarilishini ta'minlash funksiyasini

bajaruvchilar xodimlar o'rtasidagi chora-tadbirlar yig'indisi bo'lib, ular quyidagilar:

- ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdagi, ya'ni mansabdor shaxslarning oddiy farovonligi va ijtimoiy ta'minlanganligini oshirish bilan bog'liq;
- tashkiliy xususiyatdagi, ya'ni davlat organlari va mansabdor shaxslarining xizmat o'tash tartibi, xodimlarni tanlash va joylashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyatini tashkillashtirish bilan bog'liq bo'lgan;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish bilan bog'liq xususiyatdagi, ya'ni, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga korrupsiyaga qarshi kurashishga yo'naltirilgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlarning majburiy kriminologik ekspertizasini joriy etishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish va yangilarni qabul qilish yo'li bilan takomillashtirish.

Bizningcha, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- korrupsiyaga qarshi kurashning jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan tajribasini chuqur o'rganib, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy aspektlarini qamrab olgan muammolar yechimiga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha yangi, zamonaviy Kompleks Dasturni ishlab chiqish;

- ***"Davlat xizmatchisining maqomi to'g'risida"gi Qonunni*** qabul qilish;

- davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoyalash me'yoriy aktlarni ishlab chiqish, ular mehnatiga haq to'lash tizimini isloh qilish, bunga tibbiy xizmat bilan, uy-joy bilan ta'minlash (sotib olish) bo'yicha imtiyozlar ham kiradi;

- davlatning korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini doimiy amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida korrupsiyaga qarshi kurash komissiyalarni tashkil etish, bu komissiyalar qabul qilinayotgan qonunlarning qanchalik korrupsiya uchun shart-sharoit yaratishini tahlil va nazorat etib boradi;

- korrupsiyaning barcha turlariga barham berish uchun jinoyat qonunchiligining muvofiqligini, shu jumladan jinoyat-huquqiy va protsessual normalarini tegishli ravishda qayta ko'rib chiqish lozim;

– qonun ustuvorligini va fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlovchi sud-huquq tizimini, korrupsiyaga qarshi kurash olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishni izchil davom ettirish;

– korrupsiya domiga ilingan mansabdor shaxslarni aniqlash, tergov qilish va hukm etishning maxsus taomillarini belgilash;

– ma'lumot manbayi hamda korrupsiya, qonunbuzilish holatlari haqida ma'lumot yetkazuvchi guvohlar va shaxslar haqida ma'lumotlar sir tutilishini himoya qiladigan institutlar ishini takomillashtirish kerak;

– xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasini o'rganish orqali, davlat xizmatchilarining mulki va daromadlari haqidagi deklaratsiyalar va ularni tekshirish hamda ommaga oshkor etish tizimini yaratish;

– xususiy tadbirkorlikning to'la erkinligini ta'minlash, bu yo'lda uchrab turadigan qog'ozbozlik to'siqlarini bartaraf etish yo'lida qat'iy olg'a yurish;

– barcha davlat organlari xodimlarining mansab vazifalarini hududiy va sohaviy prinsip asosida tizimli ravishda o'zgartirib turish (rotatsiya). Bundan maqsad davlat amaldorlari va ular xizmatlaridan foydalanuvchilar o'rtasidagi yaqin va quyuq munosabatlar o'rnatish imkoniyatlarini kamaytirishdir;

– davlat tuzilmalari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash lozim, buning uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlarini ishga solish; ishonch telefonlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak;

– korrupsiyani vujudga keltirayotgan aniq sabab va shart-sharoitlarni aniqlash: korrupsiyaning “ogohlantiruvchi signallari” ro'yxatini ishlab chiqish; hududlar (viloyat, tuman) va idoralar (ta'lim, sog'liqni saqlash, va h.k.) bo'yicha korrupsiya darajasini doimiy ravishda jamoatchilik fikrini aniqlash bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar olib borish.

Korrupsiyaning oldin olish bo'yicha zamonaviy huquqni qo'llash amaliyotining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina holatlarda ijtimoiy boshqaruv sohasidagi korrupsiya bilan bog'liq faoliyat asosan uni sodir etuvchi huquqbuzar va uning to'g'ridan-to'g'ri jabrlanuvchisi o'rtasidagi munosabatlar doirasida

yuzaga keladi. Biroq masalaning muammoli tomoni shundaki, har ikki subyekt mazkur holat bo'yicha muayyan sabablarga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaydi. S.Rouz Akkermannaning fikricha “Korrupsiyaviy munosabatlarda pora oluvchi va pora beruvchining ikkalasi ham yutadi, biroq davlat zarar ko'radi [8]. Korrupsiyaviy harakatdan har ikki subyektning manfaatdorligi uning latent bo'lib qolishiga zamin yaratadi.

O'tkazilgan so'rovda “Korrupsiyaviy jinoyat domiga tushib qolishingizga nima sabab bo'lgan?” degan savolga respondentlarning 9 foizi vakolatli organlarga murojaat qilish ortiqcha sarsongarchilik hamda vaqt talab qilishini oldindan bilganligim uchun, 12 foizi ish yoki muammoning tez va oson yechim topishidan manfaatdor bo'lganligi uchun, 14 foizi davlat organlariga juda ko'p murojaat qilganligini, biroq ishi bitmagach tez va oson yo'llarni izlashga majbur bo'lganligini, qolgan 65 foizi korrupsiyaviy jinoyatdan jabrlanmaganligini bildirishgan. Demak, korrupsiyaviy jinoyatlarning latentligi jabrlanuvchilarning korrupsiyaviy xulq-atvorini shakllantiruvchi viktin omillarga bog'liq.

Ayni chog'da korrupsiyaga qarshi kurashishda ma'naviyat masalasi ham ochiq qolmoqda. Ya'ni ma'naviy olami boy insonni tarbiyalash korrupsiyaga qarshi kurashda eng ta'sirchan usullardan biridir. Shu bois maktablarda, oliy ta'lim va undan keyin, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda ma'naviyat darslarini keng yo'lga qo'yish ayni muddao. Zero, tamagirlik ma'naviyatsizlikning yorqin bir ko'rinishi ekanini o'sib kelayotgan yosh avlod qalbiga chuqur singdirish lozim.

Ma'naviy-ruhiy xarakterdagi omillar:

odamlar orasida davlatga ishonchsizlikning rivojlanishi;

kelajagidan xavotirlanishi va qo'rqish holatining mavjudligi.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilishida jabrlanuvchi shaxslar bilan bog'liq bo'lgan viktin omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali tizimni yaratish hamda bu boradagi huquqbuzarliklarning viktinologik profilaktikasini tashkil etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yuqori darajada tashkil etishga xizmat qiladigan

mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaviy huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga oshirishdagi muammolar:

- qonunda huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi mazmun va mohiyati ochib berilib, aniq chora-tadbirlar belgilangan bo'lsada, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat aniq huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasiga yo'naltirilmagan;

- amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamma vaqt ham jabrlanuvchi shaxsini o'rganishga e'tibor qaratishmaydi. Ular tomonidan ko'pincha, korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik ishlar amalga oshiriladi. Vaholanki, ko'pgina holatlarda huquqbuzarliklarning sodir etilishida jabrlanuvchilar bilan huquqbuzarlar o'rtasida qandaydir bog'liqlik sabab bo'ladi. Boshqa tarafdin huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining jabrlanuvchilar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishda shaxsga oid ma'lumotlarni tahlil qilish metodlarini bilmasliklari bilan ham izohlanadi.

- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashning eng asosiy yo'nalishi deb e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, uning mustaqil tarzda amalga oshirilishiga kelganda maxsus hamda yakka tartibdagi profilaktika jarayonida amalga oshirilib kelinayotganligi kuzatilmoqda (o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining 90 foizi mazkur fikrni tasdiqlashgan);

- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi subyektlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligini tashkilotishda muammolar mavjud bo'lib, ularning jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishni samarali ta'minlashga qaratilgan kuch-vositalari hamda usul va metodlari amalda to'liq maqsadga yo'naltirilmagan;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning hisobi yuritilishi lozim. Ammo bugungi kunga qadar bunday turdagi hisoblar yuritilishi yo'lga qo'yilmagan. Natijada jabrlanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlari,

xulq-atvori bilan bog'liq masalalar tahlil qilinmay qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 10-moddasida ichki ishlar organlarining eng asosiy vazifasi sifatida huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarning hisobini yuritish hamda mazkur ma'lumotlarning tahlilini amalga oshirish nazarda tutilganligini ham unutmazlik lozim [9].

- surishtiruv organlarining eng asosiy e'tibori korrupsiyaviy jinoyat va uni sodir etgan jinoyatchiga qaratilib, jabrlanuvchilar bilan bog'liq masalalar ochiqlicha qolmoqda. Xususan, jinoyatlarning kelib chiqish sabab va sharoitlarini o'rganishda jabrlanuvchilar bilan bog'liq bo'lgan hamda jinoyat sodir etilishiga turtki beruvchi viktimogen omillar tahlil qilinmayapti.

Vaholanki, ko'p hollarda aynan jabrlanuvchilarning xulq-atvori jinoyatning sodir etilishiga ko'maklashuvchi omil sifatida baholanadi.

Kriminologik faktor (umumiy kabi aniq jinoyatlarni xarakterlovchi)larni har tomonlama inobatga olishni taqozo etuvchi viktimologik xarakterdagi axborotlarni keng analiz qilmasdan viktimologik profilaktikaning samaradorligini oshirib bo'lmaydi.

To'plangan axborotlar va ularni o'rganish potentsial jabrlanuvchilar toifalariga aniqlik kiritishga xizmat qiladi. So'zsiz, bu toifa shaxslarni aniqlash o'zi bilan og'ir vazifa yuklaydiki, chunki aksariyat xollarda jinoiy xatti-harakatdan jabrlanganlarning ko'pchiligi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmaydi;

